

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI**

**2024**

---

**1/2**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI**

ISSN \_\_\_\_\_  
№ 2 (2), 2024

**“FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI  
AXBOROTNOMASI” ILMIY JURNALI**

**НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ВЕСТНИК АКАДЕМИИ МИНИСТЕРСТВА ПО  
ЧРЕЗВЫЧАЙНЫМ СИТУАЦИЯМ”**

**SCIENTIFIC JOURNAL “BULLETIN OF THE ACADEMY OF THE  
MINISTRY OF EMERGENCY SITUATIONS”**

**TOSHKENT – 2024**

## O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi “Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi axborotnomasi” ilmiy jurnali

**Bosh muharrir:**  
**S.M.Turabdjano**

*O‘zbekiston  
Respublikasi Fanlar  
Akademiyasi  
akademigi, texnika  
fanlari doktori,  
professor*

**Bosh muharrir  
o‘rinbosarlari:**  
**A.H.Qo‘ldoshev**  
*texnika fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori (PhD),  
dotsent*  
**O.E.Ziyadullayev**  
*kimyo fanlari doktori  
(DSc), professor*

**Mas’ul kotib:**  
**E.E.Sabirov**

*Texnika fanlari  
bo‘yicha falsafa  
doktori (PhD),  
dotsent*

**Texnik muharrir:**  
**B.B.Choriyev**

*kafedra katta  
o‘qituvchisi*

### TAHRIR HAY’ATI A’ZOLARI:

**D.A.Abdurahimova** – O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, pedagogika fanlari doktori, professor

**B.H.Amanov** – Chirchiq davlat pedagogika universiteti, biologiya fanlari doktori, professor

**G‘.I.Botirov** – Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**A.R.Davlatova** – Chirchiq davlat pedagogika universiteti, filologiya fanlari doktori, professor

**J.Sh.Djumabayeva** – O‘zbekiston Milliy universiteti, filologiya fanlari doktori, professor

**F.N.Nurqulov** – Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti, texnika fanlari doktori, professor

**A.Ikramov** – Toshkent kimyo texnologiya instituti, texnika fanlari doktori, professor

**E.E.Jumayev** – Yangi O‘zbekiston universiteti, texnika fanlari doktori, professor

**M.E.Mamarajabov** – Toshkent davlat pedagogika universiteti, pedagogika fanlari doktori, professor

**Q.M.Murtazayev** – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, texnika fanlari doktori, dotsent

**B.A.Mavlyankariyev** – I.M.Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz universiteti Toshkent shahridagi filiali, texnika fanlari doktori, professor

**A.K.Abdushukurov** – O‘zbekiston Milliy universiteti, kimyo fanlari doktori, professor

**I.A.Raxmatullayev** – Toshkent shahridagi “MMFI milliy tadqiqot yadro universiteti” federal davlat avtonom oliy ta’lim muassasasi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**N.A.Xoliqulov** – Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali, texnika fanlari doktori,

**A.D.Dusmatova** – Farmatsevtika ta’lim va tadqiqot instituti, kimyo fanlari nomzodi, dotsent

**Sh.S.Karshiyev** – Chirchiq davlat pedagogika universiteti, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori

**A.V.Lityaga** – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**M.Sh.Karimov** – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**X.A.Kurbanov** – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, texnika fanlari nomzodi, professor

**R.Boltaboyev** – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, kimyo fanlari nomzodi, professor

**H.M.Sharipov** – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, texnika fanlari nomzodi

**M.I.Saidkarimova** – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, pedagogika fanlari nomzodi

**N.K.O‘razbayev** – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**R.S.Reimbayev** – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

**J.N.Muradov** – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**D.R.Raupov** – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**D.K.Nasriddinov** – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**X.N.Yangiboyev** – O‘zbekiston Respublikasi FVV

professor

**N.A.Qodirov** – Toshkent davlat texnika universiteti, texnika fanlari doktori, professor

**R.R.Nurmamatova** – Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi xodimlarining malakasini oshirish markazi, texnika fanlari doktori, professor

**M.A.Eshmuxamedov** – Toshkent davlat texnika universiteti, kimyo fanlari nomzodi, dotsent

**S.Q.Omonov** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori

**S.S.Abduraxmanova** - Oʻzbekiston Milliy universiteti, kimyo fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Sh.X.Abdazimov** – Toshkent davlat transport universiteti, texnika fanlari nomzodi, dotsent

Fuqaro muhofazasi instituti, texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)

**A.A.Rustamov** – Oʻzbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, qishloq xoʻjaligi fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)

**M.R.Doschanov** - Oʻzbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**G.K.Otamuxamedova** - Chirchiq davlat pedagogika universiteti, kimyo fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)

**J.S.Bolikulov** - Oʻzbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)

**D.M.Junsaliyev** - Oʻzbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)

Jurnal ommaviy axborot vositasi sifatida Oʻzbekiston matbuot va axborot agentligida 2024-yil 19-aprelda roʻyxatga olingan. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan roʻyxatdan oʻtkazilganligi boʻyicha 259550-raqamli guvohnoma berilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_/\_\_\_\_-son qarori bilan texnika fanlari boʻyicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar roʻyxatiga kiritilgan. Litsenziya reyestri boʻyicha tartib raqami S-5669537.

Jurnalda maqolalar oʻzbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi va yiliga toʻrt marotaba nashr etiladi.

UO‘K 614.841

## YONG‘INLARDA ODAMLAR XATTI-HARAKATINING EVAKUATSIYA VAQTIGA TA‘SIRINI BAHOLASH

*Ilashov Ziyoviddin Rahmatulla o‘g‘li,  
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),  
O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi kafedra katta o‘qituvchisi,  
E-mail: ziyoviddinilashov@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqola matnida evakuatsiya yo‘l va yo‘laklaridagi kishilar sonining o‘sib borishi odamlar oqimi zichligining ortishiga va oqim harakatining sekinlashishiga hamda evakuatsiya paytida eng katta talafotlarga sabab bo‘luvchi omillardan biri bo‘lmish odamlarning sarosimaga tushib qolishiga sabab bo‘lishini baholash orqali evakuatsiya chiqish joylari va yo‘llarini to‘g‘ri loyihalashtirish hamda odamlarni xavf-xatardan xabardor qilish tizimlarini to‘g‘ri tanlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari aks ettirilgan. Bino va inshootlarda sodir bo‘lgan yong‘inlarda qatnashgan va yong‘inni boshidan kechirgan shaxslar bilan o‘tkazilgan so‘rovnomalar tahlili, yong‘in vaqtida odamlarning xatti-harakatlari hamda undagi o‘zgarishlar tahlili bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** evakuatsiya, yong‘in, bino, oqim, odamlar, zichlik, yo‘l, yo‘lak, jarohat, tutun, jadallik.

## ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ПОВЕДЕНИЯ ЛЮДЕЙ НА ВРЕМЯ ЭВАКУАЦИИ ПРИ ПОЖАРЕ

*Илашов Зиёвиддин Рахматулла угли,  
доктор философии по техническим наукам (PhD),  
старший преподаватель кафедры Академии МЧС Республики Узбекистан,  
E-mail: ziyoviddinilashov@gmail.com*

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются результаты исследования вопросов правильного проектирования мест и путей эвакуации, а также подбора соответствующих систем оповещения людей об опасности через оценки ситуаций, когда увеличение количество людей на путях и проходах эвакуации влияет на рост и увеличения плотности движения людей и замедление течения движения, а также, самое опасное во время эвакуации, возникновение растерянности людей. Изложены результаты анализов опроса людей, участвовавших и переживших пожаров в зданиях и сооружениях, поведения людей во время пожара и происшедших в нем изменений.

**Ключевые слова:** эвакуация, пожар, здание, поток, люди, плотность, путь, коридор, травма, дым, интенсивность.

## ASSESSMENT OF THE INFLUENCE OF HUMAN BEHAVIOR ON THE

## EVACUATION TIME DURING A FIRE

*Ilashov Ziyoviddin Rahmatulla ugli,  
Doctor of Philosophy in Technical Scienses (PhD),  
Senior Lecturer of the Academy of the Ministry of Emergency Situations  
of the Republic of Uzbekistan,  
E-mail: ziyoviddinilashov@gmail.com*

**Annotation.** *This article discusses how increasing the number of people on evacuation routes and corridors leads to increased crowding, slow flow, and confusion, which is one of the largest causes of casualties during evacuation. awareness of the danger line, the results of studies on the correct choice of systems. The analysis of questionnaires conducted with persons who participated in fires that occurred in buildings and structures and experienced a fire, human behavior during a fire, and an analysis of changes in it are described.*

**Keywords:** *evacuation, fire, building, flow, people, density, path, corridor, injury, smoke, intensity.*

**Kirish.** Bugungi kunda favqulodda vaziyatlar yuz berganda odamlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash, favqulodda vaziyatlar va yong‘inlarni bartaraf qilish sohasidagi muammolarning yechimini topish borasida ko‘plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan bo‘lsada, hamon bu borada o‘z yechimini kutayotgan va takomillashtirilishi lozim bo‘lgan dolzarb muammolar mavjud. Birgina Jahon yong‘in statistikasi markazi (WFSC) va Yong‘inlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro texnik qo‘mitasi (CTIF) qoshidagi Yong‘in statistikasi markazlarining statistik ma‘lumotlariga e‘tibor qaratilsa, dunyo mamlakatlari bo‘yicha yiliga o‘rtacha 7-7,5 millionta yong‘inlar yuz berishi, 70-75 ming kishilarning halok bo‘lishi va 700-800 ming kishi yong‘in natijasida turli darajada tan jarohati olishi kabi achinarli holatlarni ko‘rish mumkin.

So‘nggi vaqtlarda dunyoning turli mamlakatlarida sodir bo‘lgan yong‘in va favqulodda vaziyatlar vaqtida ko‘plab insonlarning bevaqt halok bo‘lishi va tan jarohati olishi o‘z navbatida favqulodda vaziyatlar paytida avariya-qutqaruv ishlarini tashkillashtirish bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish, kuch va vositalarni to‘g‘ri yo‘naltirish va odamlar xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan yangi yechimlarni ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son “Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq ilmiy yondashuvlarni kengaytirish va boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish aholi va hududlar xavfsizligini ta’minlashdagi muammolarni joylarga chiqib o‘rganish, aholi o‘rtasida so‘rovnomalar olib borish bo‘yicha qator vazifalar belgilab berilgan.

**Tadqiqotlar metodologiyasi.** Ilmiy izlanishlarni amalga oshirish mobaynida umumiy ilmiy uslublar: matematik statistika, matematik modellashtirish, funksional yondashuv, mantiqiylik, tizimlilik, sotsiologik so‘rov, amaliy tajriba-sinov (eksperiment) o‘tkazish, statistik tahlil va amaliy eksperimental tajribalar tahlili kabi metodlardan foydalanilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Favqulodda vaziyatlarda qutqaruv ishlarini tashkillashtirish bilan bog‘liq usullarni takomillashtirish borasida turli xil binolardan odamlarning harakatlanishi va ularning xavfsizligini ta’minlash masalalari bilan A.Y.Rodichev, V.V.Terebnyov, V.A.Kopilov, V.A.Kalinsev, V.V.Xolshevnikov, Y.V.Alekseyev, D.A.Samoshin, S.V.Belyayev, S.V.Slyusarev, A.I.Milinskiy, M.A.Yeremchenko, A.N.Ovsyannikov, S.A.Nikonov, R.A.Istratov, T.J.Shaxuov, M.L.Siikonen, H.Hakonen, D.Ch.Choi va boshqalar shug‘ullangan. Ilmiy izlanishlarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, ularda yong‘in-qutqaruv ishlarini tashkillashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha masalalar deyarli ko‘rilmagan.


Rossiya Federatsiyasining ayrim olimlari (A.N.Denisov, A.Y.Rodichev, M.V.Bopdarenko) turli favqulodda vaziyatlar, jumladan, yong‘inlar paytida qutqaruv ishlarini tashkillashtirish borasida hamda binolardan odamlarni evakuatsiya qilishning o‘ziga xos tomonlarini ko‘rib chiqishgan, ammo bu ma’lumotlar raqamli texnologiyalar yordamida takomillashtirilmagan.

Shunday qilib, bugungi kunda nafaqat O‘zbekistonda, hatto dunyoning boshqa mamlakatlarida ham yong‘in xavfsizligini ta’minlash, odamlarni xavfsiz evakuatsiya qilish masalalari ilmiy tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan. Zero, har qanday favqulodda vaziyat paytida odamlarni qutqarish va ularni xavfsiz joylarga

evakuatsiya qilish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Bu esa ushbu sohada mavjud muammolarni chuqur tahlil qilishni hamda ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

**O‘tkazilgan tadqiqotlar va ularning muhokamasi.** Binolarni loyihalashning yong‘in xavfsizligi me‘yorlarida odamlar xavfsizligini ta‘minlashning asosiy va birinchi darajali talablaridan biri bo‘lmish “Evakuatsiya” tushunchasi – bu insonlarning shaxsiy ehtiyojlaridan biri hisoblanadi. Ko‘p qavatli va baland qavatli binolarda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarda odamlarning evakuatsiyasini tashkillashtirish, avvalo, binoni loyihalashtirilayotgan loyihachi tomonidan ushbu binoda bo‘lishi mumkin bo‘lgan odamlar sonini e‘tiborga olgan holda to‘g‘ri loyihalashtirishdan boshlanadi.

O‘tkazilgan tadqiqot va so‘rovnomalarga asosan binodan majburiy evakuatsiya qilingan kishilarning ko‘pchiligi yong‘in sodir bo‘lgan xonaning tashqarisida bo‘lganligi sababli, yong‘in sodir bo‘lgan paytni hamda yong‘inning rivojlanishini bevosita kuzata olmaydi (1-rasm).



**1-rasm. Binodagi odamlarning yong‘in haqidagi xabarni olish shakllari va olingan xabarlarining ulushi**

Yuqorida keltirilgan 1-rasmda ko‘rish mumkinki, yong‘in sodir bo‘lgan joyda qatnashgan yoki shu yerda bo‘lgan odamlar bilan olib borilgan anketa so‘rovnomalarga asosan ularning anketadagi savollarga bergan javoblariga ko‘ra, so‘rovdan o‘tkazilganlarning 34 foizi yong‘in haqidagi xabarni ko‘pincha og‘zaki xabarlardan, 22 foizi yong‘inni ko‘rishdan va 18 foizi esa tutun hidini sezishdan


bilishgan, qolganlari esa qandaydir boshqacha tarzlarda sezishganligi ma'lum bo'ldi.

Sodir bo'lgan yong'in shovqin orqali aniqlanganligi to'g'risida hech qanday ma'lumot mavjud emas. Yong'in paytida chiqqan shovqinni eshitgan odamlarni so'rovdan o'tkazish shuni ko'rsatdiki, ular buni xavfli signal sifatida qabul qilishmagan, chunki ular buni uy sharoitida (shovqin ko'targan qo'shnilar, sayr qilayotganlar guruhi, bezorilarning g'ala-g'ovuri va boshqalar sifatida) tushuntirishgan. Yonish hodisasi tufayli chiqadigan hid ham xavf-xatar haqidagi signal sifatida darhol qabul qilinmaydi, chunki bu dastlab boshqa qandaydir bir sabablar bilan, masalan, qo'shni xonalarda kuygan mahsulotlar yoki bino yaqinidagi axlatni yondirish bilan izohlanadi. Hatto og'zaki xabarlar ham har doim ham haqiqiy va yaqin turgan xavfning belgisi sifatida qabul qilinmaydi.

Shunday qilib, biror-bir yo'l bilan inson yong'in haqida signalni qabul qiladi. O'tkazilgan so'rovnomalardan ma'lum bo'ldiki, yong'in haqidagi xabarni olganlarning 31 foizi binoni tekshirishni boshlashi, 12 foizi binolarni tark etishga tayyorgarlik ko'rishi, 19 foizi boshqalarni ogohlantirishga harakat qilishi, 11 foizi yong'in-qutqaruv bo'linmalariga xabar berilganligi yoki berilmaganligiga aniqlik kiritishga urinishi, 7 foizi yong'in-qutqaruv bo'linmalarini o'zlari chaqirishga urinishi, 12 foizi o'zlari olovni o'chirishga harakat qilishi, 8 foizi esa hech narsa qilmasdan, boshqalar nima qilayotganligini kuzatib turishi ma'lum bo'ldi (2-rasm).

Tadqiqot mobaynidagi kuzatuv natijalariga ko'ra, yong'in payti maxsus tayyorgarlik va yo'riqnomalardan o'tkazilgan odamlar ham o'zining harakatlarini to'liq bajarmasligi va yo'riqnomalarga amal qilmasliklariga amin bo'lindi. Hattoki, yirik savdo kompaniyaning xizmatchi xodimlari bilan muntazam ravishda yong'inga qarshi mashg'ulotlar o'tkazilganligiga qaramay, ularning e'lon qilinmagan yong'indagi xatti-harakati (xulq-atvori)ni o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yong'in xabarini olgan xodimlarning atigi 37,4 foizigina yo'riqnomalarda ko'rsatilgan harakatlarni to'g'ri bajardi, qolgan xodimlar esa yong'in belgilari va hatto ogohlantirish signaliga qaramay, ularning haqiqatga mos kelishini

aniqlashga, mijozlarni evakuatsiya qilishni tashkil etish yoki binoni tark etishni davom ettirish o‘rniga, yuqori turuvchi menejerlari bilan maslahatlashib, ko‘p vaqtni boy berishdi.



**2-rasm. Yong‘in haqidagi xabarni olganlarning harakatlari bo‘yicha o‘tkazilgan amaliy anketa so‘rovlari natijalari**

Shuni ta’kidlash joizki, odam gorizontal proyeksiyasining haqiqiy shakli ellipsdan biroz farq qiladi. Biroq, fizik ma’lumotlar va kiyimlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda, olingan natijalar gorizontal proyeksiyaning haqiqiy hajmi va shaklini sezilarli darajada buzmasligi aniqlandi. Quyidagi 1 va 2-jadvallarda odamlarning o‘lchamlari fiziologik, anatomik, yoshga va kiyim rusumlariga qarab farq qilishini o‘rganish natijalari keltirilgan [31; 54-73 b].

1-jadval

**Katta yoshli odamlarning gorizontal proyeksiyalari yuzalari**

| Katta yoshli odam kiyim-kechagi bilan birgalikda: | Kengligi (eni)<br>a, m | Qalinligi s, m | Odam gorizontal<br>proyeksiyasining yuzasi,<br>m <sup>2</sup> /kishi |
|---------------------------------------------------|------------------------|----------------|----------------------------------------------------------------------|
| yoz paytida                                       | 0,46                   | 0,28           | 0,100                                                                |
| bahor va kuzda                                    | 0,48                   | 0,30           | 0,113                                                                |
| qish faslida                                      | 0,50                   | 0,32           | 0,125                                                                |

Odamlarning evakuatsiya yo‘llarida maksimal darajadagi zichligini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan eksperiment natijalari odamlar oqimining maksimal zichlik chegarasini belgilash imkonini berdi. Unga ko‘ra 0,09 m<sup>2</sup>/kishi, yoki gorizontal proyeksiya bo‘yicha 1,12–1,13 m<sup>2</sup>/m<sup>2</sup> bo‘lgan odamlar oqimi tiqilinch ro‘y bergan paytdagi deformatsiya tufayli taxminan 15% ga kamayishi aniqlandi.

2-jadval

**Bolalar va o'smirlar gorizontal proyeksiyalarining yuzalari**

| Gorizontal proyeksiyaning yuzasi,<br>m <sup>2</sup> /kishi | Yosh bo'yicha guruhlar |                             |                           |
|------------------------------------------------------------|------------------------|-----------------------------|---------------------------|
|                                                            | Bolalar<br>7-9 yoshli  | O'spirinlar<br>10-13 yoshli | O'smirlar<br>14-16 yoshli |
| uy kiyimida                                                | 0,04                   | 0,06                        | 0,08                      |
| maktab sumkasi bilan                                       | 0,07                   | 0,10                        | 0,14                      |
| maktab sumkasi bilan ko'cha kiyimida                       | 0,09                   | 0,13                        | 0,16                      |

Barcha o'tkazilgan tadqiqot va eksperimentlarda zichlikning maksimal qiymati  $D_{\max} = 0,92 \text{ m}^2/\text{m}^2$  dan oshmadi. Ushbu zichlikda odamlarning bir-biriga ko'rsatgan bosimini hisoblash shuni ko'rsatdiki, odamlarning tiqilinchdagi kuch ta'siri 120 kg.dan oshishi mumkin. Tibbiyot ilmidan ma'lumki, inson tanasiga kuchli va uzoq muddatli bosim ta'sir qilganda siqilish asfiksiyasi, ya'ni nafas olish yetishmovchiligi, qon aylanishi va ichki organlarning shikastlanishi natijasida rivojlanadigan o'tkir patologik jarayon rivojlanadi va bunday ta'sir insonning halok bo'lishiga olib keladi. Zichlik o'zgarishi oqimdagi odamlar harakatining tabiatiga kuchli ta'sir qiladi, bu ta'sir uning erkin harakatlanishini o'zgartirib borishiga sabab bo'lishi mumkinligini quyidagi 3-jadvaldagi natijalarga asosan ko'rish mumkin.

3-jadval

**Oqimlar zichligi oralig'ida odamlar harakatining turi**

| T/r                                  | Odamlarning harakatlanish turi                                     | Zichlik qiymati,<br>m <sup>2</sup> /m <sup>2</sup> |
|--------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------|
| <b>Shaxsiy harakat</b>               |                                                                    |                                                    |
| 1                                    | Erkin harakatlanish                                                | 0-0,05                                             |
| <b>Oqimli harakat</b>                |                                                                    |                                                    |
| 2                                    | Erkin harakatlanish                                                | 0,05-0,15                                          |
| 3                                    | Bir-biriga tegmasdan harakatga monelik qilish holatlari            | 0,15-0,4                                           |
| 4                                    | Bir-biriga tegib harakatga monelik qilish holatlari                | 0,4-0,7                                            |
| <b>Kuch ta'siri ostidagi harakat</b> |                                                                    |                                                    |
| 5                                    | Birga qo'shilib ketgan harakat                                     | 0,7-0,9                                            |
| 6                                    | Odam tanalarining deformatsiyalanishi bilan ro'y beradigan harakat | 0,9-1,0                                            |
| 7                                    | Odam tanalarining siqilishi bilan ro'y beradigan harakat           | 1,0-1,15                                           |

Shubhasiz, oqimning zichligi oshib borishi bilan odamlarning shu oqimda harakat qilish imkoniyatlari cheklanadi va bu butun bir odamlar oqimining  $v_i$ , m/daqiqqa harakatlanish tezligining pasayishiga ham sabab bo'ladi, bu tezlik  $i$  uchastkada oqimni

tashkil etuvchi  $N$  sonli odamlarning o‘rtacha tezligi sifatida belgilanadi (1-formulaga ko‘ra):

$$v_i = \sum v_N / N, \quad (1)$$

Tezlik yo‘lining ko‘rib chiqilayotgan  $l_i$  uzunlikka ega bo‘lgan uchastkasi bo‘yicha harakatlanishning hisoblangan  $t_i$  vaqtini ham 2-formulaga ko‘ra aniqlab beradi:

$$t_i = l_i / v_i \quad (2)$$

Oqimning zichligi va yo‘l turining oqim tezligiga ta’siri o‘rganilganda oqim zichligi oshib borishi va evakuatsiya uchastkalarining o‘zgarishi bilan harakat ko‘rsatkichlari o‘zgarib boradi (4-jadval).

4-jadval

#### Odamlar harakatining oqim zichligiga bog‘liqligi

| Oqim zichligi<br>$D, m^2/m^2$                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | 0.01 | 0.05 | 0.1 | 0.2  | 0.3  | 0.4  | 0.5  | 0.6  | 0.7  | 0.8  | 0,9 va<br>undan ko‘p |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|------|-----|------|------|------|------|------|------|------|----------------------|
| Eshik<br>o‘rnidagi<br>jadallik $q$ ,<br>$m/daqiga$                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      | 1    | 5    | 8,7 | 13,4 | 16,5 | 18,4 | 19,6 | 17,9 | 18,5 | 17,3 | 8,5                  |
| <b>Gorizontal yo‘l bo‘yicha harakatlanish ko‘rsatkichlari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |      |      |     |      |      |      |      |      |      |      |                      |
| Tezlik $v$ ,<br>$m/daqiga$                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              | 100  | 100  | 80  | 60   | 47   | 40   | 33   | 27   | 23   | 19   | 15                   |
| Jadallik $q$ ,<br>$m/daqiga$                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            | 1    | 5    | 8   | 12   | 14,1 | 16   | 16,5 | 16,3 | 16,1 | 15,2 | 13,5                 |
| <b>Zinadan pastga harakatlanish ko‘rsatkichlari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |      |      |     |      |      |      |      |      |      |      |                      |
| Tezlik $v$ ,<br>$m/daqiga$                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              | 100  | 100  | 95  | 68   | 52   | 40   | 31   | 26   | 18   | 13   | 8                    |
| Jadallik $q$ ,<br>$m/daqiga$                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            | 1    | 5    | 9,5 | 13,6 | 16,6 | 16   | 15,6 | 14   | 12,6 | 10,4 | 7,2                  |
| <b>Zinadan yuqoriga harakatlanish ko‘rsatkichlari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |      |      |     |      |      |      |      |      |      |      |                      |
| Tezlik $v$ ,<br>$m/daqiga$                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              | 60   | 60   | 53  | 40   | 32   | 26   | 22   | 17   | 15   | 13   | 11                   |
| Jadallik $q$ ,<br>$m/daqiga$                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            | 0,6  | 3    | 5,3 | 8    | 9,6  | 10,4 | 11   | 10,8 | 10,5 | 10,4 | 9,9                  |
| <b>Izoh:</b> Oqimning zichligi 0,9 va undan katta bo‘lganida eshik o‘rnidagi harakat jadalligining jadvaldagi 8,5 m/daqiqaga teng bo‘lgan ko‘rsatkichi, kengligi 1,6 va undan katta bo‘lgan eshik o‘rni uchun belgilangan, bundan kichik bo‘lgan kenglikdagi eshik o‘rni $\delta$ uchun esa harakat jadalligini $q = 2,5 + 3,75\delta$ formula bo‘yicha aniqlash lozim. |      |      |     |      |      |      |      |      |      |      |                      |

Odamlarning evakuatsiya paytidagi xatti-harakati va ularning oqimdagi harakatlarini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga asosan evakuatsiya

jarayoniga to‘sqinlik qiluvchi omillar yong‘in paytida binodagi odamlarga xabar berish shakli va xabarni qabul qilgan odamlarning ruhiy holati hamda ularning oqimdagi birgalikdagi harakatiga zichlikning ta‘siri yuqori ekanligi aniqlandi.

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, evakuatsiya yo‘l va yo‘laklaridagi kishilar sonining o‘sib borishi odamlar oqimi zichligining ortishiga va oqim harakatining sekinlashishiga hamda evakuatsiya paytida eng katta talafotlarga sabab bo‘luvchi omillardan biri bo‘lmish odamlarning sarosimaga tushib qolishiga sabab bo‘lishini baholash evakuatsiya chiqish joylari va yo‘llarini to‘g‘ri loyihalashtirish hamda odamlarni xavf-xatardan xabardor qilish tizimlarini to‘g‘ri tanlash imkonini beradi.

Odamlar oqimi zichligini aniqlash ular harakati tezligini baholashga va o‘sha oqimning evakuatsiya uchastkasini bosib o‘tish uchun sarflaydigan vaqtini hisoblash, bu esa evakuatsiya yo‘l va yo‘laklarining uzunligi, eni va undagi odamlar sonini me‘yorlashtirish imkonini beradi. Inson harakatining antropometriyasini o‘rganish unga mos keladigan evakuatsiya yo‘llari kengligini, zinalar va panduslar o‘lchamlarini, balandligi, qiyaligi hamda nishabligiga qo‘yiladigan talablarni loyihalash standartlari va qurilish me‘yorlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Evakuatsiya yo‘llarida zichligi yuqori bo‘lgan odamlar to‘planishining oldini olish eng muhim va birinchi darajali talab bo‘lib, bu yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan jarohatlar va siqilish (bo‘g‘ilish) asfiksiyasiga olib kelishi natijasida baxtsiz hodisalarga sabab bo‘lishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Galea E.R., Sharp G., Lawrence P.J., Holden R. Approximating the evacuation of the World Trade Centre North Tower using computer simulation. Journal of Fire Protection Engineering, Vol. 18, 2008, SFPE.
2. Hedman G.E. (2010) ‘Travel Along Stairs by Individuals with Disabilities: A Summary of Devices Used During Routine Travel and Travel During Emergencies’, in Pedestrian and Evacuation Dynamics. Boston, MA: Springer US, pp. 110-119.
3. Proulx G. Evacuation by lifts: Who goes first?, NIST/ASME conference “On the use of lifts in fires and other emergencies”, 2004.
4. Akramxodjayev B., Ilashov Z.R. Yuqori qavatli binolarning qurilishi va ularda sodir bo‘lgan yong‘inda odamlar xavfsizligini ta‘minlash muammolari // Yong‘in-portlash xavfsizligi

ISSN 2181-9327 №2 (5), 2020. (05.00.00; №28).

5. *Апаков А.В.* “К вопросу о целесообразности моделирования параметров людских потоков при эвакуации с использованием теории массового обслуживания”. //Пожаровзрывобезопасность. 2003. Т. 12. № 5. стр. 37.

6. *Баженова Л.М., Егоров В.Ю.* Комментарий к Федеральному закону от 22 июля 2008 г. N 123-ФЗ “Технический регламент о требованиях пожарной безопасности” (под ред. Л.М. Баженовой). – Специально для системы ГАРАНТ, 2014 г.

7. *Вечтомов Д.А.* “Информационно-аналитическая система поддержки принятия управленческих решений в процессе мониторинга требований пожарной безопасности”. Диссертация кандидата технических наук. Москва, 2014.

8. *Вильчик С.И.* “Формирование баз знаний для интеллектуальной системы по предупреждению и ликвидации ЧС на промышленном предприятии”. Тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 05.13.01, кандидат технических наук, 2003.

9. ГОСТ 12.1.004-91\*. “Пожарная безопасность. Общие требования”.

10. *Ibragimov B.T., Do'smatov X.M., Ilashov Z.R.* Yuqori va ko'p qavatli binolarda yong'inlarni o'chirish usullarini takomillashtirish // “Yong'in-portlash xavfsizligi”. ISSN 2181-9327, №2 (5), 2020. (05.00.00; №28).

11. *Иванов В.Н.* “Оптимизация нормативных требований к пределам огнестойкости основных несущих конструкций высотных жилых зданий”. Диссертация кандидата технических наук. Москва, 2019.

12. QMQ-2.01.05-2019. “Tabiiy va sun'iy yoritish”.

13. *Теребнев В.В., Подгруппин А.В., Артемьев Н.С.* Учебное пособие “Пожаротушение в зданиях повышенной этажности”. Москва, 2009.

14. *Теребнев, В.В., Артемьев Н.С., Думилин А.И.* Противопожарная защита и тушение пожаров. Жилые и общественные здания и сооружения. – М.: Пожнаука, 2006.

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentabrdagi 754-son “Aholini Favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida”gi Qarori.

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-oktabrdagi 649-son “Yong'in xavfsizligi qoidalarini tasdiqlash to'g'risida”gi Qarori. – Toshkent, 2020-yil.

17. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-avgustdagi O'RQ-790-son “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonuni.

18. Favqulodda vaziyatlar vazirligining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari // fvv.uz.

19. *Xadjayev A.A., Xatamov A.T., Tulaganov A.T., Yusupxujayev S.A.* Konstruksiyalarning shikastlanish sabablari va uning buzilish oqibatlarini aniqlash. – Toshkent: O'zbekiston, 2004-yil.

20. *Холщевников В.В., Самошин Д.А.* Учебное пособие “Эвакуация и поведение людей при пожарах”. Москва, 2009.

21. SHNQ 2.07.02-07 – “Insonlarning hayoti va faoliyati muhitini nogironlar ehtiyojlari va aholining kam harakatlanuvchi guruhlarini hisobga olgan holda loyihalash”.

22. SHNQ 2.08.02-09\* – “Jamoat binolari va inshootlari”.



УДК: 614.841.343

**О СПОСОБАХ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕЙ И ПОЖАРНОЙ  
БЕЗОПАСНОСТИ АТОМНОЙ ЭЛЕКТРОСТАНЦИИ, ПЕРСПЕКТИВЫ  
РАЗВИТИЯ ГРАЖДАНСКОЙ ЗАЩИТЫ ДЛЯ АЭС И КОНЦЕПЦИЯ  
РАЗВИТИЯ АТОМНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН  
НА ПЕРИОД 2019-2029 ГОДОВ**

*Абсаламов Рашид Амирович  
доктор философии по техническим наукам (PhD),  
доцент кафедры Академии МЧС Республики Узбекистан,  
E-mail: abduosalomovamirovichrashid@gmail.com*

**Аннотация:** В статье рассматриваются способы обеспечения общей и пожарной безопасности атомной электростанции. Показано, что на практике имеют место аварии на атомных объектах, в том числе на атомных электростанциях, таких как: Чернобыльская, Тримайл-айленд, Фукусима, включая также и возникновение пожаров. Учитывая то, что в настоящее время достигнуто соглашение между Российской Федерацией и Республикой Узбекистан о строительстве на территории Узбекистана атомной электростанции, обеспечение ее безопасности, включая и пожарную безопасность, имеет актуальное значение. Приведены рекомендации для достижения условий безопасного функционирования данного атомного объекта, который планируется построить в течение десяти лет.

**Ключевые слова:** атомная электростанция, землетрясение, атомная электростанция Фукусима, пожарная безопасность, общая и пожарная безопасность на атомной электростанции.

**ATOM ELEKTR STANSIYASINING UMUMIY VA YONG‘IN  
XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH USULLARI, AES UCHUN FUQARO  
MUHOFAZASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI VA  
2019-2029-YILLARDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ATOM  
ENERGETIKASINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI**

*Absalamov Rashid Amirovich  
Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),  
O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi kafedra dotsenti,  
E-mail: abduosalomovamirovichrashid@gmail.com*

**Annotatsiya:** Maqolada muallif atom elektrostansiyasining umumiy va yong‘in xavfsizligini ta‘minlash usullariga e‘tibor qaratgan. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, Chernobil, Trimayl-aylend va

*Fukusima atom elektrostansiyalarida yuzaga kelgan fojialar, shu jumladan yong'inlar mazkur vaziyatga jiddiy qarashni taqozo etadi. Hozirgi paytda Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida mamlakatimiz hududida atom elektrostansiyasini qurish bilan bog'liq bitim tuzilganini inobatga olib, ushbu atom obyektida umumiy va yong'in xavfsizligini ta'minlash masalalari dolzarb ahamiyatga egaligi shubhasizdir. Shunga asosan muallif mazkur xavfsizlik sharoitlarini yaratish va ta'minlash bobida tegishli takliflarni keltirgan.*

**Kalit so'zlar:** atom elektr stansiyasi, zilzila, Fukusima atom elektrostansiyasi, yong'in xavfsizligi, atom elektrostansiyasida umumiy va yong'in xavfsizligi.

## ON WAYS TO ENSURE GENERAL AND FIRE SAFETY OF A NUCLEAR POWER PLANT, PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF CIVIL PROTECTION FOR A NUCLEAR POWER PLANT AND THE CONCEPT OF DEVELOPMENT OF NUCLEAR ENERGY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN FOR THE PERIOD 2019-2029

*Absalamov Rashid Amirovich  
Doctor of Philosophy in Technical Sciences (PhD),  
Associate Professor of the Department of the Academy of the Ministry of  
Emergency Situations of the Republic of Uzbekistan,  
E-mail: abduosalomovamirovichrashid@gmail.com*

**Annotation:** *In the article observing the methods providing general and fire safety of nuclear power plants. As practice shows, unfortunately accidents at nuclear facilities, including the Chernobyl, Trimile Island, Fukushima unfortunately, occur the occurrence of fires. Based on the fact that an agreement has now been reached between the Russian Federation and the Republic of Uzbekistan on the construction of a nuclear power plant in Uzbekistan, ensuring its safety, including fire safety, is of current importance. In this regard, the authors offer appropriate recommendations to achieve the conditions for the safe operation of a given nuclear facility, which will be built within ten years.*

**Keywords:** *nuclear power plant, earthquake, Fukushima nuclear power plant, fire safety, general and fire safety at a nuclear power plant.*

Человечество вступило в XXI век, век высоких технологий и поиска наименее дорогостоящих источников энергии. Среди этих источников наиболее привлекательным является использование атомной энергии путем строительства атомных электростанций. Обеспечение общей и пожарной безопасности данных станций – веление времени. Республика Узбекистан не может быть в стороне от процессов использования ядерной энергии в мирных целях. На основе учета этих закономерностей было принято постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по развитию атомной энергетики в Республике

Узбекистан» от 19 июля 2018 года №ПП-3870 [1], ибо оно стало основой зарождения новой инновационной отрасли экономики Узбекистана, которая может быстро развиваться благодаря наличию в Узбекистане урановых месторождений [2].

В принятой Президентом Республики Узбекистан Постановлении «Об утверждении Концепции развития атомной энергетики в Республике Узбекистан на период 2019-2029 годов» от 7 февраля 2019 года отмечается, что «удовлетворение растущих энергетических потребностей мировое сообщество связывает, наряду с развитием возобновляемых источников энергии (солнце, ветер и вода), с развитием атомной энергетики, которая уже превысила 11 процентов от общего энергетического производства. В 5 странах атомная энергетика обеспечивает более 40 процентов потребности в электрической энергии – Франции, Словакии, Украине, Венгрии и Бельгии.

Атомная энергия является экологически чистым видом энергии. При производстве электрической и тепловой энергии на атомных электростанциях, в отличие теплоэлектростанций традиционных видов, работающих на угле, мазуте и газе, не образуются загрязняющие окружающую среду вредные вещества, такие как оксиды азота, сера, углерод, зола и др.

Одним из основных экономических аргументов в пользу развития атомной энергетики является ее способность гарантировать стабильность цены вырабатываемой электрической энергии на весь срок службы АЭС, который составляет не менее 60 лет с возможностью его продления.

Атомная энергия используется в 31 стране мира, в которых функционируют более 450 энергоблоков общей мощностью около 400 ГВт. В настоящее время ведется строительство 60 новых энергоблоков, из которых 39 – приходятся на азиатский регион.

В целях удовлетворения растущих потребностей экономики республики в электрической энергии (117 миллиардов кВт/ч к 2030 году) между

Правительством Республики Узбекистан и Правительством Российской Федерации 7 сентября 2018 года в городе Москве заключено Соглашение о сотрудничестве в строительстве на территории Узбекистана атомной электростанции.

Данным Соглашением предусматривается сооружение в Республике Узбекистан современной и безопасной референтной АЭС поколения III+ в составе двух энергоблоков установленной мощностью 1,2 ГВт каждый, а также создание национальной ядерной инфраструктуры, системы государственного регулирования безопасности, подготовки кадров, осуществление сотрудничества по вопросам поставки ядерного топлива, обращения с отработавшим ядерным топливом»<sup>1</sup>.

Вместе с тем, строительство данного объекта атомной энергетики непосредственно связано и с наличием водных ресурсов, которые имеют тенденцию к неуклонному сокращению. Недостаток водных ресурсов для охлаждения реакторов АЭС чреват определенными рисками, которые связаны с нарушением технологии производства электрической энергии, перегревом ядерных реакторов, которые охлаждаются именно путем использования воды и последующим неуправляемым взрывом на АЭС, подобно Чернобылю или Фукусиме.

Следует отметить, что территория, на которой будет возводиться первая в Узбекистане АЭС имеет тенденцию к опустыниванию. Данный процесс связан не только с гибелью Аральского моря, но и в целом с глобальным процессом расширения пустынь в мире, благодаря глобальному потеплению. Дело в том, что засушливые земли занимают 41,3% поверхности земли. Эта значительная доля земельных площадей, что не позволяет сбрасывать её со счетов как бросовую землю. Следует учитывать и то, что эти районы пригодны для жилья,

---

<sup>1</sup> Постановление Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции развития атомной энергетики в Республике Узбекистан на период 2019-2029 годов» за № 4165 от 7 февраля 2019 года// НБДЗ № 07/19/4165/2592 от 08.02.2019 г.

а часть оставшихся земель составляют в том числе и горы.

Явление засушливости напрямую связано с наличием или нехваткой воды. Это оказывает непосредственное влияние на благосостояние человека, а также на две основные функции земельных угодий, а именно первичное производство и переработку питательных веществ. Нехватка воды, разрыв между спросом и предложением, выше всего в засушливых районах. При этом уровень нехватки воды возрастает по мере увеличения засушливости.

Для удовлетворения самых элементарных потребностей человеку требуется не менее 2000 кубометров воды в год. Население засушливых районов имеет доступ только лишь к 1300 кубометров воды на человека, причем, согласно прогнозам, количество имеющейся воды будет только уменьшаться. На сегодняшний день проблема нехватки воды актуальна для 1-2 миллиардов человек, большинство из которых проживает в засушливых районах.

По мере изменения климата, к 2030 году до половины населения мира будет проживать в районах, характеризующейся высокой нагрузкой на водные ресурсы. В некоторых засушливых и полузасушливых районах это приведет к перемещению населения в количестве от 24 млн. до 700 млн. человек.

Глобальные оценки состояния и темпов опустынивания, проведенные Программой Организации Объединенных Наций по окружающей среде (ЮНЕП) в 1977, 1984 и 1991 годах, выявили недостаточность базовых знаний относительно процессов опустынивания, обусловленных деятельностью человека, и их взаимосвязи с колебаниями климата и периодическими засухами в засушливых районах земного шара.

Надлежащие всемирные системы систематического наблюдения способствуют разработке и осуществлению эффективных программ борьбы с опустыниванием. Возможности существующих международных, региональных и национальных учреждений, в особенности в развивающихся странах, по сбору и обмену соответствующей информацией являются ограниченными. Для

понимания динамики процессов опустынивания и развития засухи существенно важное значение имеет наличие комплексной и скоординированной системы информации и систематического наблюдения, в основе которой лежит соответствующая технология и которая охватывает глобальный, региональный, национальный и местный уровни. Это также имеет важное значение для разработки надлежащих мер по борьбе с опустыниванием и засухой, а также для улучшения социально-экономических условий.

Учитывая эти обстоятельства в Концепции развития атомной энергетики в Узбекистане указывается на операционные проблемы строительства АЭС, а именно: наличия непредвиденных расходов в связи с необходимостью замены выбранной площадки вследствие обнаружения в ходе изысканий новых, непредвиденных ранее, запрещающих или опасных факторов, в том числе экологических и водоохранах<sup>2</sup>.

На наш взгляд, в проекте строящейся АЭС с позиции ноксологии (науки изучающей опасности) необходимо предусмотреть не один, а два резервуара с пресной водой (действующий и резервный), пригодных для охлаждения реакторов АЭС, что позволит избежать нехватки водных ресурсов при бесперебойной работе станции, включая и установки по конденсации и выработке питьевой воды, а также насосную систему вооруженную установками по опреснению соленой подземной воды и трубопроводами для слива данной воды в действующий и резервный бассейн АЭС. В этом плане большую помощь могут оказать солнечные батареи по нагреву воды и работе насосов.

Необходимо учесть, что использование непосредственно воды из Айдаркуля имеет более чем опасный характер, так как охлаждать соленой водой реактор означает готовить новый Чернобыль, ибо вода, охлаждающая реактор

---

<sup>2</sup> Постановление Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции развития атомной энергетики в Республике Узбекистан на период 2019-2029 годов» за № 4165 от 7 февраля 2019 года// НБДЗ № 07/19/4165/2592 от 08.02.2019 г.

должна быть дистиллированной. Отсюда, вопросы гражданской защиты для АЭС в Узбекистане приобретают не только теоретической, но и сугубо практический характер. Причем, цель управления за проектной аварией заключается в возвращении АЭС в контролируемое состояние, при котором прекращается цепная реакция деления, обеспечивается постоянное охлаждение топлива и удержание радиоактивных продуктов в установленных границах и количествах. Персонал АЭС должен быть подготовлен к действиям при проектных и за проектными авариями.

Действия эксплуатационного персонала при за проектными авариями должны регламентироваться специальными инструкциями, которые должны разрабатываться с учетом выполнения анализов проектных и за проектных аварий. Для подготовки персонала к действиям в аварийных условиях должны периодически проводиться противоаварийные тренировки.

Предписываемые специальными инструкциями действия персонала должны основываться на признаках происходящих событий и состояния реакторной установки и прогноза, ожидаемых в процессе развития аварийных условиях. Основанные на прогнозе действия должны быть направлены на восстановление определяющих функций безопасности и на ограничение радиационных последствий аварии.

В условиях радиационной аварии все работы выполняются аварийным персоналом, в состав которого входят: персонал аварийного объекта, а также члены специальных, предварительно подготовленных аварийных бригад – основной персонал; привлеченные к аварийным работам лица – привлеченный персонал, который также должен быть предварительно обучен и информирован о радиационной обстановке на местах выполнения работ.

К работам по ликвидации последствий промышленной радиационной аварии привлекается лишь основной персонал, как из числа работников объекта, так и профессионально обученные работники аварийных бригад.

Ограничение облучения основного персонала, занятого на аварийных работах, осуществляется таким образом, чтобы не были превышены установленные НРБУ-97 значения регламентов первой группы для категории А. На время работ в условиях коммунальной радиационной аварии привлеченный персонал приравнивается к категории А.

При этом, привлеченный персонал должен быть обеспечен в одинаковой мере с основным персоналом всеми табельными и специальными средствами индивидуальной и коллективной защиты (спецодежда, средства защиты органов дыхания, зрения и открытых поверхностей кожи, средства дезактивации и пр.), а также системой измерения и регистрации полученных доз облучения.

Аварийный персонал должен быть постоянно проинформированным о полученных дозах облучения и соответствующих этим дозам рисках для здоровья.

В случаях, если работы в зоне аварии совмещаются с:

осуществлением вмешательства для предотвращения серьезных поражений людей, которые очутились в зоне аварии;

уменьшением численности лиц, которые могут получить аварийное облучение (предотвращение больших коллективных доз);

2. Атаева Р.Р. Организация самостоятельной работы по русскому языку для студентов нефилологических направлений. – Ташкент, 2023.
3. Актуальные проблемы развития речи учащихся: сб. статей / Под ред. Еремеевой А.П. – М.: Просвещение, 1980. – 150 с.
4. Величко Л.И. Работа с текстом на уроках русского языка: пособие для учителя. – М.: Просвещение, 1983. – 128 с.
5. Еремеева А.П. Формирование речевой деятельности учащихся в процессе изучения русского/родного/языка: автореф. дис. д-ра пед. наук. – М., 1991. – 44 с.
6. Иохвидов В.В. Проблема повышения эффективности урока в отечественной педагогике в период 40-90-годов XX столетия: диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук / Пятигорский государственный лингвистический университет. – Пятигорск, 2007.
7. Иохвидов В.В. Особенности познавательной деятельности в повышении эффективности урока // Вестник Челябинского государственного педагогического университета. – 2015. – № 8. – С. 35-39.
8. Иохвидов В.В. Коллективные формы познавательной деятельности школьников как средства повышения эффективности учебных занятий // Вестник Костромского государственного университета им. Н.А.Некрасова. Серия: Педагогика. Психология. Социальная работа. Ювенология. Социо-кинетика. – 2015. – Т. 21, № 1. – С. 176-178.
9. Иохвидов В.В. Повышение самостоятельности и активности учащихся // Научные итоги года: достижения, проекты, гипотезы. – 2011. – № 1-1. – С. 109-113.
10. Иохвидов В.В. Мастерство воспитателя – успех развития полноценного коллектива в педагогическом наследии А.С.Макаренко // В сборнике: Педагогическое мастерство. Материалы Международной научной конференции. – 2012. – С. 65-67.
11. Иохвидов В.В. Основные пути повышения эффективности урока М.А.Даниловым // Проблемы и перспективы развития образования. Материалы II Международной научной конференции. – 2012. – С. 35-38.

12. *Ладыженская Т.А.* Формирование коммуникативных умений и навыков учащихся: метод. рекомендации. – М.: КГПИ, 1985. – 61 с.
13. *Базанова Е.М.* Международные образовательные программы в системе дистанционного обучения // Вестник Московского государственного лингвистического ун-та. Образование и педагогические науки. М.: 2015. № 14 (725) С. 168-177.
14. *Гальперин И.Р.* Текст как объект лингвистического исследования. М. : URSS, 2009. 137 с.
15. *Головин С.Ю.* Словарь практического психолога. М.: АСТ : Харвест, 1998. 287 с.
16. *Биченок Л.П.* Военно-гуманитарные тексты, их структурно-содержательные компоненты // Русистика на современном этапе: сб. научн. тр. М.: Изд-во МПГУ, 1999. С. 174-179.
17. *Гальперин И.Р.* Текст как объект лингвистического исследования. М.: Наука, 1981. 140 с.
18. *Авдеева И.Б.* Лингводидактическая концепция обучения профессиональной коммуникации иностранных учащихся инженерного профиля: автореф. дисс. ... д. пед. н. М., 2006. 83 с.
19. *Галетко А.В., Кеангели М.М.* Русский язык и культура речи: учебное пособие. М.: МАДИ, 2010. 247 с.
20. Краткий словарь когнитивных терминов / под общ. ред. Кубряковой Е.С. М.: Изд-во МГУ, 1996. 245 с.
21. *Литвиненко Ф.М.* Коммуникативная компетенция как методическое понятие [Электронный ресурс]. URL: <https://www.bsu.by/Cache/pdf/230533.pdf> (дата обращения: 02.12.2018).



UO‘K: 37.091.12:005.963(575.1)

## MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA INDIVIDUAL KASBIY RIVOJLANISH TRAYEKTORIYASI TUSHUNCHASI HAMDA UNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

*Mallayeva Ozoda Baxromovna*  
*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi dotsenti*  
*pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*  
*E-mail: ozodamallayeva201gmail.ru*

**Annotatsiya:** *Xalq ta’limi tizimidagi pedagog xodimlar, xususan tizimdagi ingliz tili o‘qituvchilari har besh yilda kamida bir marta malaka oshirishlari lozim bo‘lgan. Bugungi kunda pedagog xodimlarning besh yilda bir marotaba malaka oshirishi ayrim MDH mamlakatlarida saqlanib qolgan. Rivojlangan mamlakatlarda esa o‘qituvchilarning har yili uzluksiz malaka oshirishi yo‘lga qo‘yilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *kasbiy rivojlanish, malaka oshirish, ehtiyoj, individual, ma’naviy va moddiy qiziqishlar.*

## ПОНЯТИЕ ТРАЕКТОРИИ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ В СИСТЕМЕ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ И ЕГО ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

*Маллаева Озода Бахромовна*  
доцент Академии МВД Республики Узбекистан  
доктор философии по педагогическим наукам (PhD)  
E-mail: ozodamallayeva201gmail.ru

**Аннотация:** Педагогические работники системы государственного образования, особенно преподаватели английского языка, должны были повышать свою квалификацию не реже одного раза в пять лет. Сегодня в некоторых странах СНГ сохраняется еще такая система. В развитых странах существует система ежегодного непрерывного повышения квалификации учителей. С учетом этих опытов в данной статье рассматриваются вопросы траектории индивидуального профессионального развития преподавателей в системе повышения квалификации.

**Ключевые слова:** профессиональное развитие, профессиональное развитие, потребности, индивидуальные, духовные и материальные интересы.

## THE CONCEPT OF THE TRAJECTORY OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF AN INDIVIDUALITY AND ITS THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS IN THE SYSTEM OF ADVANCED TRAINING

*Mallayeva Ozoda Baxromovna*  
Associate Professor of the Academy of the MIA of the Republic of Uzbekistan  
Doctor of Philosophy in Educational Sciences (PhD),  
E-mail: ozodamallayeva201gmail.ru

**Annotation:** Pedagogical staff in the public education system, especially English language teachers in the system, had to upgrade their qualifications at least once every five years. Today, the training of teaching staff every five years is preserved in some CIS countries. In developed countries, continuous professional development of teachers is established every year.

**Keywords:** professional development, professional development, needs, individual, spiritual and material interests.

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish jarayoni uchun “individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi” yangi tushuncha hisoblanadi. Mazkur tushunchadan dastavval, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son Qarorining 1-bandida “xalq ta’limi xodimlarining malaka oshirish bo‘yicha ehtiyojlari o‘rganiladi hamda Uzluksiz kasbiy ta’lim maxsus elektron platformasi orqali ularning individual kasbiy rivojlanish

trayektoriyasi tuziladi”, deya foydalanilgan.

Shu vaqtga qadar, xalq ta’limi tizimidagi pedagog xodimlar, xususan tizimdagi ingliz tili o’qituvchilari har besh yilda kamida bir marta malaka oshirishlari lozim bo’lgan. O’qituvchining besh yilda bir oy, ya’ni 144 soat dastur asosida malaka oshirishi va qolgan to’rt yilu o’n bir oy malaka oshirish jarayoniga jalb qilinmasligi uning o’z ustida ishlamasligiga va davr o’zgarishlari hamda zamonaviy ta’limiy axborotlardan chetda qolib ketishiga sabab bo’lgan.

Bugungi kunda pedagog xodimlarning besh yilda bir marotaba malaka oshirishi ayrim MDH mamlakatlarida saqlanib qolgan. Rivojlangan mamlakatlarda esa, o’qituvchilarning har yili uzluksiz malaka oshirishi yo’lga qo’yilgan. Masalan, Koreya Respublikasida o’qituvchi har yili kamida 108 soat, Singapur va Yaponiyada har yili 100 soatdan ortiq, Niderlandiyada 166 soat malaka oshirishi belgilangan. Aynan mazkur davlatlarda malaka oshirish jarayoni pedagoglarning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga asoslanishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi tushunchasi haqida so’z borganda, avvalo, bu tushunchaning mazmun-mohiyatini anglash juda muhim hisoblanadi. Binobarin, “har qanday narsa va hodisani aniqlashdan avval uning mohiyatini anglatuvchi tushunchalar yoki u haqda ma’lumot beruvchi ta’riflarni chuqur tahlil va tadqiq etish qo’yilayotgan muammoning ilmiy-amaliy yechimini topishda eng qulay vosita hisoblanadi”.

“Individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi”dagi trayektoriya tushunchasiga to’xtaladigan bo’lsak, ushbu tushunchaga O’zbekiston milliy ensiklopediyasida shunday ta’rif beriladi: “Trayektoriya (lotincha traectorius – harakatga oid) – fazoda harakatlanayotgan moddiy nuqta hosil qiluvchi chiziq. Moddiy nuqtalardan iborat tizim harakatlanganda uning har bir nuqtasi o’zining trayektoriyasi bo’ylab harakat qiladi. Moddiy nuqtalar tizimining holati – holatlar fazosida nuqta hisoblanadi va uning trayektoriyasi holat trayektoriyasi, deb ataladi”.

**Adabiyotlar tahlili.** “Individual ta’lim trayektoriyasi” tushunchasi bo‘yicha dunyoda ko‘plab olimlar tadqiqot olib borishgan. Jumladan, ularga misol qilib A.S.Gayazov, T.M.Kovalyova, O.V.Volkova, E.F.Zeyer, G.P.Shedrovitskiy, N.I.Klokar hamda S.A.Vdovina va I.M.Kungurova kabi olimlarni keltirish mumkin. A.S.Gayazov trayektoriya tushunchasi o‘zining klassik ma’nosida “...ba’zi bir jismning harakatlanish chizig‘i yoki ishorasi”, deb tushunilishini ta’kidlaydi”.

Mamlakatimizda malaka oshirish tushunchasi hamda pedagog xodimlar malakasini oshirish masalasida ko‘plab olimlar tadqiqot olib borgan. Jumladan, J.G‘.Yo‘ldoshev, M.Yaxyayev, R.Jo‘rayev, A.Baxramov, A.Zakirov, M.A.Yuldashev, Sh.Saidqulov, N.R.Raxmonov, R.B.Isroilov, M.N.Nishonov, K.Z.Zaripov, B.Nuriddinov, Z.A.Artikbayeva, M.Dexkanova, M.Jumaniyozova, A.Gulboyev, N.Raxmankulova, D.M.Mamatqulov, S.Toshev, B.F.Yalgashev, A.Asqarov, E.Norboyev, X.Xo‘jamov, M.Umarov, B.Umarov va boshqalar o‘z tadqiqotlarida malaka oshirish tushunchasi, uning rivojlanish tarixi, malaka oshirishning nazariy, pedagogik-psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy asoslari, malaka oshirish mazmuni, uning ehtiyojga asoslanishi, variativligi, pedagog kadrlarning malaka oshirishga bo‘lgan ehtiyojlarini aniqlash va boshqa shu kabi masalalarni tadqiq etishgan. Mazkur ta’riflardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, pedagogika faniga “trayektoriya” atamasi fizika-matematika fanlari kategoriyasi sifatida kirib kelgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Pedagogika fanida “rivojlanishning individual trayektoriyasi” atamasini ilk bor I.S.Yakimanskaya qo‘llagan. U insonning “rivojlanishidagi individual trayektoriyasi”ning ikki xil yo‘nalishi mavjud, deb hisoblagan. Ular:

1) bolaning andragogika va ijod talablariga moslashishi (moslashuvchanligi) – bu unga yangilikni izlash va topishga imkon beradi;

2) mavjud vaziyatdan chiqish, uni yengib o‘tish yo‘li, individual tajribada mavjud bo‘lgan bilimlarga, usullarga, harakatlarga tayanib o‘zi uchun yangi vaziyatni yaratish.

I.S.Yakimanskaya o‘z qarashlarida “rivojlanishning individual trayektoriyasi”ni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim doirasida shaxsni o‘zini o‘zi tashkil etish va o‘zini anglash mexanizmini shakllantirish bilan bog‘laydi.

Ta’kidlash kerakki, individual ta’lim trayektoriyasi yoki individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi tushunchalari mamlakatimizdagi pedagogika faniga oid manbalarda uchramaydi. Shunga ko‘ra, ushbu tushuncha tahlilini Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) hamda xorij olimlari ilmiy tadqiqotlari orqali ko‘rib chiqamiz.

Shu o‘rinda aytish lozimki, aksariyat xorijiy va MDH olimlari tadqiqotlarida “individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi”ga muqobil tushuncha sifatida “individual ta’lim trayektoriyasi” tushunchasi qo‘llaniladi. Masalan, pedagog olim A.V.Xutorskiy talqiniga ko‘ra, “individual ta’lim trayektoriyasi – bu har bir ta’lim subyekting ta’lim jarayonida shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishning individual usuli” hisoblanadi.

T.P.Korostiyanets individual ta’lim trayektoriyasini nafaqat shaxsiy rivojlanish yo‘li, balki ta’lim subyekting individual faoliyat dasturi sifatida ham ko‘rib chiqadi. Uning fikricha, individual ta’lim trayektoriyasi bu shaxsning o‘z qarorini ongli ravishda qabul qilishiga tayyorligini ham bildiruvchi tushuncha hisoblanadi.

A.V.Xutorskiy va T.P.Korostiyanetslarning individual ta’lim trayektoriyasi tushunchasiga berilgan ta’rifida ko‘proq shaxsning individualligi, uning ongli va ruhiy imkoniyatini nazarda tutishadi. Lekin, mazkur olimlarning ta’riflarida individual ta’lim trayektoriyasi ko‘proq individning butun hayotiy faoliyatini qamrab oladigan tushuncha ekanligiga urg‘u berilgan bo‘lib, o‘quv faoliyati bilan bog‘liq jarayon ekanligiga kamroq e’tibor qaratilgan.

Rus olimasi E.A.Aleksandrova individual ta’lim trayektoriyasi bo‘yicha bergan tahlilida, uni ta’lim subyekti uchun ta’lim beruvchi bilan birgalikda ishlab chiqilgan va ta’lim subyekting hayotidagi ta’lim va ta’limdan tashqari sohalarni qamrab oladigan faoliyati dasturi, deya hisoblagan. Shu bilan birga, tadqiqotchi individual ta’lim trayektoriyasini shaxsga va ijtimoiylashuvga yo‘naltirilgan hamda bilim, ijodiy va amaliyotga yo‘naltirilgan trayektoriya turlariga ajratgan.

Ta’kidlash kerakki, E.A.Aleksandrova o‘zining individual ta’lim trayektoriyasi bo‘yicha bergan tahlillarida A.V.Xutorskiy va T.P.Korostiyanetslardan farqli o‘laroq mazkur tushunchani “ta’lim oluvchi va beruvchi bilan birgalikda ishlab chiqiladigan, ta’lim va ta’limdan tashqari sohalarni qamrab oladigan dastur” ekaniga e’tibor qaratgan.

Yana bir rus olimasi O.A.Isakova o‘z tadqiqotlarida individual ta’lim trayektoriyasi tushunchasiga ta’lim subyektining qobiliyati, ta’lim ehtiyojlari, moddiy va tashkiliy darajadagi pedagogik yordamni o‘z ichiga oluvchi tanlov imkoniyatiga asoslangan individual jarayon sifatida qaragan. Tadqiqotchi N.N.Surtayeva esa, individual ta’lim trayektoriyasini har bir o‘quvchining qobiliyatlari, imkoniyatlari, motivatsiyasi va qiziqishlariga mos keladigan, individual ta’lim maqsadlarini amalga oshirish uchun amaliy harakatlarning ma’lum bir ketma-ketligi sifatida izohlagan.

Mazkur tadqiqotchilar o‘z qarashlarida individual ta’lim trayektoriyasi tushunchasini ta’lim subyektining qobiliyati, ta’lim ehtiyojlari bilan bog‘liq individual jarayon sifatida izohlashib, unga amaliy harakatlar ketma-ketligi sifatida baho berishgan. Shu nuqtai nazardan yuqoridagi olimlarning fikrlariga nisbatan O.A.Isakova va N.N.Surtayevalarning “individual ta’lim trayektoriyasi” tushunchasi bo‘yicha ilgari surgan qarashlari ham nazariy, ham amaliy jihatdan haqiqatga yaqin keladi.

T.A.Timoshina “individual ta’lim trayektoriyasi” tushunchasini antropotsentrik va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqib, unga: ta’lim jarayoni subyektining ijtimoiy-iqtisodiy va vaqtinchalik imkoniyatlari” sifatida qaraydi. A.M.Maskayeva esa, individual ta’lim trayektoriyasini “...o‘zgaruvchan ta’lim jarayonida ta’lim subyektining tajriba va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish natijasi” sifatida ta’rif bergan.

Mazkur tadqiqotchilar ham o‘z qarashlari bo‘yicha “individual ta’lim trayektoriyasi”ga “ta’lim subyektining ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyati, tajriba va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish natijasi” sifatida baho berishgan. Lekin ular aslida mazkur tushuncha faqat ta’lim subyektigagina taalluqli emasligini, u pedagogik ko‘mak va

hamrohlik bilan amalga oshiriladigan ham nazariy, ham amaliy jarayon ekanligini inobatga olishmagan.

**Tahlil va natijalar.** O‘rganilayotgan obyektning batafsil tahlili shuni ko‘rsatdiki, uning ta’riflari ko‘pligiga qaramay, “individual ta’lim trayektoriyasi” tushunchasiga nisbatan barcha yondashuvlarni birlashtirgan holda quyidagi xarakterli xususiyatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

ta’lim faoliyatining muayyan predmeti uchun individual ta’lim trayektoriyasi ishlab chiqiladi;

ta’lim subyektining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi;

pedagogik ko‘mak va hamrohlik bilan amalga oshiriladi;

qiziqish va tayyorgarlik darajasiga qarab tanlash imkoniyatini beradi;

o‘quv jarayoniga o‘tish (dastur) bosqichlarini amalga oshirish ketma-ketligini nazarda tutadi;

bu shaxsning o‘z-o‘zini anglashi hamda o‘z faoliyatini belgilashiga asoslanadi.

“Individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi” tushunchasi, garchi mamlakatimiz pedagogika sohasi uchun yangi kirib kelgan tushuncha bo‘lsada, albatta nazariya va amaliyotda ushbu tushunchaga muqobil keladigan tushunchalar ishlatilgan. Ulardan biri malaka oshirish tushunchasi hisoblanadi.

Jumladan, A.Gulboyev o‘z nomzodlik ishida o‘qituvchilar malakasini pedagogik tashxis vositasida uzluksiz oshirish masalalariga to‘xtalib, pedagoglar malakasini oshirishda ularning ichki dunyosi, subyektiv imkoniyatlari, faoliyat mayllari, ma’naviy va moddiy qiziqishlarini inobatga olish muhim ekanligini aytib o‘tgan.

M.Dexkanova o‘z tadqiqotida “malaka oshirish tizimida tinglovchilar uchun amalda qo‘llanilayotgan rejalash-majburlash tamoyilidan ixtiyoriylik tamoyiliga o‘tish zarurligi, kasb-hunar ta’limi rahbar xodimlari shaxsiy ehtiyojlaridan, ya’ni jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va demokratik o‘zgarishlar, kasb-hunar ta’limidagi islohotlar,

uzluksiz pedagogik tizimni isloh qilish va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularning malakalarini maqsadli oshirish zarurligi”ga e’tibor qaratgan.

U.Sh.Begimkulov, M.Mamarajabov, S.Tursunovlar esa malaka oshirish masalasida “bir tarafdin pedagog doimiy rivojlanish va o‘z malakasini oshirishga tayyor bo‘lishi, ikkinchi tarafdin jamiyat tomonidan pedagogning doimiy o‘qishi va rivojlanishiga bo‘lgan ehtiyojini ro‘yobga chiqarish uchun sharoit yaratilishi lozim”, deya ta’kidlashgan.

Ta’kidlash lozimki, shu kungacha ishlatilgan “malaka oshirish” tushunchasi hamda amaliyotga yangi kirib kelayotgan “individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi” tushunchalari o‘rtasida o‘ziga xos o‘xshashlik va tafovut mavjud. Ushbu tushunchalardagi o‘xshashlikka keladigan bo‘lsak, ularning har ikkisida ham pedagogni “kasbiy turg‘unlik holati”ga tushirmaslik ma’nosi mavjud. Tafovut esa, “malaka oshirish” tushunchasida:

davriylik (uch yil, besh yil);

umumiylik (umumiy malaka oshirish dasturlari);

jamoaviylik (tinglovchilarni kurslarga jamoaviy jalb etish) ifodalangan bo‘lsa, “individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi” tushunchasida:

davomiylik (24/7 rejimi);

individuallik (ehtiyojga asoslangan o‘quv dasturlari hamda yakka tartibda malaka oshirish) nazarda tutilgan.

Umuman olganda, malaka oshirish tizimi ham barcha sohalar qatori davr talablari asosida rivojlanib, ushbu jarayonga avvalgi yondashuvlardanda samaraliroq yondashuv va texnologiyalar kirib kelmoqda.

**Ilmiy muhokama.** Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, har bir yangilik albatta ta’lim-tarbiya sifatini oshirishga xizmat qilishi lozim. Ya’ni, zamonaviy – “individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi” bo‘ladimi yoki an’anaviy – malaka oshirish bo‘ladimi, albatta, mazkur yondashuvlar o‘qituvchilik faoliyati samaradorligi uchun xizmat

qilishi zarur.

Zinhor o‘qituvchilik faoliyati yuqoridagi an’anaviy yoki zamonaviy yondashuvlarga xizmat qilib qolmasligi zarur bo‘lib, bu ikki omil munosabatida yakuniy natijaga kasbiy rivojlanish samaradorligini qo‘yish ratsional yondashuv hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval

**Pedagog xodimlarning “individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi” uchun zarur bo‘ladigan ta’lim resurslari**

| Tashqi ta’lim resurslari                   |                                                                                                         |
|--------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1                                          | Attestatsiya                                                                                            |
| 2                                          | Bevosita malaka oshirish; masofaviy malaka oshirish (kurslar, seminarlar, konferensiyalar va boshqalar) |
| 3                                          | Kasbiy, ijodiy tanlovlarda qatnashish                                                                   |
| 4                                          | O‘qituvchilar uchun olimpiadalarda ishtirok etish                                                       |
| 5                                          | Tuman uslubiy birlashma faoliyatida ishtirok etish                                                      |
| 6                                          | Tuman pedagogik ustaxonalari, pedagogik ko‘priklar, laboratoriyalar                                     |
| 7                                          | Vebinarlar, video darsliklar                                                                            |
| 8                                          | O‘qituvchilarga mo‘ljallangan internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlar                                   |
| 9                                          | Ekspert komissiyalarida ishtirok etish                                                                  |
| 10                                         | Tanlovlar hakamlar hay’atida ishtirok etish                                                             |
| 11                                         | Ilmiy-pedagogik tajriba va tadqiqotlarda qatnashish                                                     |
| Ichki resurslar                            |                                                                                                         |
| 12                                         | Pedagogik kengash                                                                                       |
| 13                                         | Seminarlar; konsultatsiyalar; mahorat darslari                                                          |
| 14                                         | Maktab uslubiy birlashmasi faoliyatida qatnashish                                                       |
| 15                                         | Darslar (tashrif, o‘zaro tashrif)                                                                       |
| Self menejment – o‘z-o‘zini rivojlantirish |                                                                                                         |
| 16                                         | Self menejment uchun maqsad va uslubiy mavzu qo‘yish hamda faoliyat olib borish                         |
| 17                                         | Ta’lim texnologiyalarini o‘rganish                                                                      |
| 18                                         | Yangi o‘quv materiallarini tatbiq etish, darsliklarni sinovdan o‘tkazish                                |
| 19                                         | Internet-resurslardan foydalanish va ularga materiallar berib borish                                    |
| 20                                         | Portfolio yuritish                                                                                      |
| O‘zaro hamkorlikda o‘rganish               |                                                                                                         |
| 21                                         | Ochiq darslar o‘tkazish yoki ochiq darslarga tashrif                                                    |
| 22                                         | Master-klasslar (mahorat darslari), pedagogik seminarlarda qatnashish                                   |
| 23                                         | Kasbiy tajribasini ommalashtirish                                                                       |
| 24                                         | Nashrlar: tezis va maqolalar berib borish                                                               |

1-jadvalda berilgan ta’lim resurslari pedagogning “individual kasbiy rivojlanish

trayektoriyasi”ni ishlab chiqish uchun zarur hisoblanadi. Albatta, bu jarayonda har bir pedagog umumta’lim maktabidagi o‘quv rejasi va mavjud intizomga muvofiq harakat qilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ya’ni, har qanday individuallik yoki individual tanlov albatta jamoaviy maqsadlar bilan uyg‘un bo‘lishi yoki eng kamida ushbu maqsadlarga putur yetkazmasligi lozim bo‘ladi.

“Individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi”ning ishlab chiqilishida albatta ta’lim muassasasidagi sharoit hisobga olinishi va ayni vaqtda pedagog o‘z imkoniyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, istiqbol rejalarini, kerakli bilimlarni olish uchun qilgan harakatlari hamda o‘rganish natijalarini baholashni hisobga olishi muhimdir. Bizningcha, kasbiy rivojlanishning individual trayektoriyasini amaliy jihatdan quyidagicha ifodalash mumkin (2-jadval).

2-jadval

### **Pedagoglar kasbiy rivojlanishining individual trayektoriyasi**

| <b>T/r</b> | <b>Kasbiy rivojlanish resurslari</b>              | <b>Amalga oshirish bosqichlari</b> | <b>Amalga oshirish vaqti</b> | <b>Manzil</b> | <b>Qo‘lga kiritilgan natija</b> |
|------------|---------------------------------------------------|------------------------------------|------------------------------|---------------|---------------------------------|
| <b>1</b>   | <b>Tashqi ta’lim resurslari</b>                   |                                    |                              |               |                                 |
| 1.1.       |                                                   |                                    |                              |               |                                 |
| <b>2</b>   | <b>Ichki resurslar</b>                            |                                    |                              |               |                                 |
| 2.1.       |                                                   |                                    |                              |               |                                 |
| <b>3.</b>  | <b>Self menejment – o‘z-o‘zini rivojlantirish</b> |                                    |                              |               |                                 |
| 3.1.       |                                                   |                                    |                              |               |                                 |
| <b>4.</b>  | <b>O‘zaro hamkorlikda o‘rganish</b>               |                                    |                              |               |                                 |
| 4.1.       |                                                   |                                    |                              |               |                                 |

2-jadvalda keltirilayotgan kasbiy rivojlanishning individual trayektoriyasi o‘z nomi bilan individual xarakterga ega bo‘lib, amaliyotda unga ma’muriy tus berilmasligi, boshqaruv vositasi bo‘lib qolishining oldini olish zarur bo‘ladi. Xorij tajribasi shuni ko‘rsatdiki, kasbiy rivojlanishning individual trayektoriyasi pedagogik amaliyotda ma’muriy hujjat yoki boshqaruv vositasi hisoblanmaydi. U pedagogning shaxsiy-kasbiy istiqbol rejasi hamda kundalik daftarining uyg‘unlashgan shakli hisoblanadi.

Albatta, xorij tajribasida pedagog kasbiy rivojlanishining individual trayektoriyasi ustidan to‘liq nazorat o‘rnatilmasada, davr yakuni (o‘quv yili, o‘quv kursi kabilar)da mazkur masalaga murojaat qilinadi. Pedagogning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga e’tibor qaratilishi va uning baholanishi faqat rag‘batlantirish nuqtai nazaridan amalga oshiriladi. Shu ma’noda “individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi” har bir pedagogni kasbiy motivatsiyaga undovchi omil hisoblanadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, mualliflik ta’rifimizga ko‘ra “individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi – bu ta’lim muassasasi hamda pedagogning shaxsiy, kasbiy resurslariga asoslanuvchi, pedagogning yangi davr talablariga moslashib borishiga, kasbiy faoliyatdagi mavjud to‘siqlarni yengib o‘tishiga xizmat qiluvchi, individual tajribada mavjud bo‘lgan bilimlar, usullar va harakatlarga tayanib, o‘zi uchun yangi vaziyatni yaratish, shaxsiy konsepsiyasini ochish yo‘lidir”.

Pedagogik faoliyatda individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini amaliy jihatdan yo‘lga qo‘yish uchta bosqichga asoslanadi. Ular:

- 1) ta’lim muassasasida pedagoglarning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi uchun zarur bo‘ladigan ta’lim resurslari va imkoniyatlarini aniqlash;
- 2) birinchi punktdagi asoslardan kelib chiqqan holda pedagoglar tomonidan individual rivojlanish trayektoriyasi (rejasi)ni ishlab chiqish;
- 3) pedagogning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini baholash bosqichlaridan iborat bo‘ladi.

Individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi o‘z mazmuniga ko‘ra davomiylik (24/7 rejimi), individuallik (ehtiyojga asoslangan o‘quv dasturlari hamda yakka tartibda malaka oshirish)ni nazarda tutadi. Unga ma’muriy vosita sifatida qarash amaliyotda yaxshi oqibatlarga olib kelmaydi. Aksincha, pedagogik faoliyatda individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga rag‘batlantirish vositasi, pedagogning kasbiy motivatsiyaga undovchi omil sifatida qarash ijobiy natija beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06/19/5712/3034-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06/19/5712/3034-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07/21/4963/0064-son.
4. *Ibragimov A.A.* Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish tizimini ko‘p vektorli yondashuv asosida takomillashtirish. Pedagogika fan. fal dok. ... Dis. – T.: 2020.
5. *Radjiyev A.* Malaka oshirishda “hayot davomida o‘qish” tamoyili amal qiladi. <https://yuz.uz/news/malaka-oshirishda-hayot-davomida-oqish-tamoyili-amal-qiladi> (murojaat qilingan sana: 22.12.2020).
6. *Asqarov A.D.* Xalq ta’limi xodimlari malakasini masofadan oshirish tizimini takomillashtirish. Pedagogika fan. fal dok. ... Dis. – T.: 2017. – 52 b.
7. *Raxmankulova N.* Xalq ta’limi tizimida uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish masalalari. “Ta’limda menejmentning dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. Toshkent, 2019-yil 17-may. 11-13-b.
8. *Renton Jane.* Coaching and Mentoring: What They Are and How to Make the Most of Them. – New York: Bloomberg Press, 2009. – ISBN-9781576603307.
9. *Свинин Е.В.* Необходимость и случайность как выражение закономерностей правовой действительности. Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Владимир, 2006. – 27 с.
10. *Abu Nasr Forobiy.* Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. – T.: Yozuvchi. – 2002. – 29-b.
11. *Abdullayev A.X., N.S. Rahimov, M.O. Xadayev.* “Katta yoshdagi aholini o‘qitish markaziga: qadam-baqadam”, Toshkent, 2013-yil 17-bet.
12. A.Avloniy nomidagi XTTRMXQTMOI da 2019-yil 8-19-aprel kunlari O‘zbekiston-Germaniya hamkorlik loyihasi doirasida Germaniyaning Gyote instituti Toshkent filiali ko‘magida Germaniyalik o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasi bo‘yicha yetakchi mutaxassis, pedagogika va psixologiya fanlari doktori, professor V.R.Xanish tomonidan “Change Management” mavzusida tashkil etilgan amaliy seminar-trening materiallari. <https://www.rolf-hanisch.de>.
13. *Abduqodirov A., Pardayev A.* Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug‘ati. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 14-b.
14. *Abdullayeva M.N.* “Addie” – o‘quv dasturlarini ishlab chiqish modeli bilan tanishtirish. A.Avloniy nomidagi XTTRMXQTMOI “Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish tizimini isloh qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2020-yil 29-may) 165-168-betlar.
15. *Бегимкулов У.Ш., Мамаражабов М., Турсунов С.* Программа FLASHMX и её возможность использования при обучении. – Т.: ТГПУ, 2006. – С. 5.
16. Butun dunyo bo‘yicha mobil internet tezligi reytingi bilan tanishamiz (2020-yil, noyabr). <https://www.terabayt.uz/post/butun-dunyo-boyicha-mobil-internet-tezligi-reytingi-bilan-tanishamiz-2020-yil-noyabr-> (murojaat qilingan sana: 17.12.2020).
17. *Burns M.* (2019). Distance Education for Teacher Training: Modes, Models, and Methods. Washington, DC: Education Development Center.
18. Germaniya Xalq Universitetlari Assotsiatsiyasi xalqaro hamkorlik instituti (Deutscher

Volkshochschul-Verband e.V., DVV). <http://www.dvv-international.de>.

19. Гаязов А.С. Индивидуальные траектории образования личности [Электронный ресурс] / А.С. Гаязов // Режим доступа: <http://www.raop.ru/index.php?id=878>.

20. Gamburg katta yoshlilar ta'limi to'g'risidagi deklaratsiyasi, Germaniya. 1997.



UO‘K: 626.141(575.123)

## SUV OMBORLARINING TABIIY-TEXNOGEN OBYEKT SIFATIDA XUSUSIYATLARI

*Yalgashev Obidjon Uchqunboyevich*  
*texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*  
*O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi kafedra o'qituvchisi*  
*E-mail: yalgashevobidjon@gmail.com*

**Annotatsiya.** Suv omborlari foydali hajmining kamayib borish ko'rsatkichlari o'zgarishi masalalari ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan bo'lib, hozirgi kunda suv omborlari muammolaridan biri sifatida suv omborining loyqa-cho'kindilar bilan to'lib borishi, yemirilishlar, cho'kishlar va yuvilishlar ta'sirlariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada yuqorida keltirilgan holatlar tahlil qilinib, suv omborlari foydali hajmining kamayib borishi natijasida hosil bo'ladigan holatlarni aniqlash usullari masalasiga hamda loyqa-cho'kindilar hajmini aniqlash hisob usullariga takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar.** suv omborlari, suv to'plash, qirg'oqlar, dimlangan, maksimal chuqurligi, oqiziqlar, loyqa-cho'kindilar, tekislik, foydali hajm, yemirilish, o'pirilishlar, suvga to'yinish.

## ХАРАКТЕРИСТИКА ВОДОЕМОВ КАК ПРИРОДНО-ТЕХНОГЕННОГО ОБЪЕКТА

*Ялгашев Обиджон Учқунбоевич*  
*доктор философии по техническим наукам (PhD)*  
*преподаватель кафедры Академии МЧС Республики Узбекистан*  
*E-mail: yalgashevobidjon@gmail.com*

**Аннотация.** Научно обоснованный анализ изменения полезной емкости водохранилищ в различных регионах получил широкое распространение, и одной из актуальных проблем водохранилищ является предотвращение захоронений, вызванных небольшими оползнями, проседанием и размывом на затопленных прибрежных склонах. В статье дан анализ этих явлений и для предотвращения вышеперечисленных случаев даны рекомендации по немедленному выявлению возникающих прибрежных территорий и разработке мер по их предотвращению, а также по реализации мер по предотвращению прибрежных оползней.

**Ключевые слова:** водохранилища, водосбор, берега, затемнение, максимальная глубина, отложения, мутные отложения, равнина, полезный объем, оползни, обвалы, водонасыщенность.

## CHARACTERISTICS OF WATER RESERVOIRS AS A NATURAL-MANUFACTURED OBJECT

*Yalgashev Obidjon Uchkunboyevich*  
*Doctor of Philosophy in Technical Sciences (PhD)*  
*Lecturer of the Department of the Academy of the Ministry of*  
*Emergency Situations of the Republic of Uzbekistan*  
*E-mail: yalgashevobidjon@gmail.com*

**Annotation.** The issues of changing the indicators of decreasing the useful volume of reservoirs in different territories have been widely studied in the scientific literature, currently special attention is paid to the prevention of situations such as burials resulting from the impact of small faults, washouts, subsidence and washouts on coastal slopes flooded with reservoir water, as one of the problems of reservoirs. The article analyzes the above circumstances and provides suggestions for the rapid identification of emerging areas of the coast, as well as for the implementation of measures to prevent coastal landslides.

**Keywords:** reservoirs, water collection, shores, dimming, maximum depth, sediments, turbid sediments, plain, useful volume, landslides, collapses, water saturation, gravity.

Jahonda daryolar oqimini suv omborlari va yirik suv olish inshootlari yordamida boshqarish suv resurslaridan kompleks foydalanishning muhim yoʻnalishlaridan biri boʻlib hisoblanmoqda. Tarixiy jarayonlarni oʻrganish shuni koʻrsatadiki, suv obyektlari insoniyat taraqqiyotida muhim rol oʻynab kelgan. Bir tomondan suv toshqinlari, qurgʻoqchilik, daryolar, koʻllar va dengizlar rejimining oʻzgarishi halokatlar va katta ijtimoiy-iqtisodiy zararlarga sabab boʻlgan boʻlsa, boshqa tomondan, suv obyektlari qishloq xoʻjaligi, energetika, sanoat va iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishini taʼminlab kelmoqda. Insonlar oʻz faoliyatini qadimda daryolar, koʻllar va dengizlar tabiiy sharoitiga moslashtirgan boʻlsa, vaqt oʻtishi bilan ular daryolar va boshqa obyektlar rejimini oʻz faoliyatiga moslab oʻzgartira boshladi.

Aholi sonining koʻpayishi, oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishga boʻlgan talabning oʻsishi, suv omborlari sonining ortib borishi daryo oqimi hajmini vaqt davomida boshqarish sharoitini yaxshilovchi, takomillashgan usullarini ishlab chiqishga alohida eʼtibor qaratilishini taqozo qilmoqda. Bu borada AQSH, Avstraliya, Niderlandiya, Daniya, Avstriya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy, Misr, Rossiya,

Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, O‘zbekiston va boshqa rivojlangan mamlakatlarda suv omborlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ekspluatatsiya davrini uzaytirish uchun loyqa bosishi jadalligini pasaytirish, filtratsiya va bug‘lanish hajmlarini kamaytirish imkonini beruvchi matematik modellashtirish va geoaxborot texnologiyalariga asoslangan ish rejimini ishlab chiqish, suv ombori quyi byefida o‘zan jarayonlarini modellashtirish orqali o‘zan deformatsiyasining oldini olish va ularning ishonchli ekspluatatsiyasini ta’minlash dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirda respublikamizda suv omborlarini barpo yetish, o‘zan va qirg‘oqlar eroziyasi holatlarining oldini olish, suv resurslaridan samarali foydalanishga ta’sir yetuvchi omillarni aniqlash hamda takomillashtirish imkoniyatlarini beruvchi mavjud gidravlik hisoblashlarning yangi usullarini yaratishga doir chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”da, jumladan – “Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun melioratsiya va irrigatsiya obyektlarini rivojlantirish” vazifasi belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralidagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”, 2018-yil 17-aprelidagi PF-5418-son “Qishloq va suv xo‘jaligini boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 25-sentabridagi PQ-3286-son “Suv obyektlarini muhofaza qilish tizimini kelgusida takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2017-yil 27-noyabridagi PQ-3405-son “2018-2019-yillar davomida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va irrigatsiyani rivojlantirish davlat dasturi to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda ushbu sohada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar belgilab berilgan.

Suv omborlari foydalanishga topshirilgandan so‘ng suv ombori yuqori byefida loyqa cho‘kindilar cho‘kish holatlari yuzaga keladi, natijada suv ombori kosasi ham loyqaga to‘la boshlaydi, bu esa suv ombori foydali hajmining kamayishiga sabab

bo‘ladi va suv omborining gidravlik ishonchliligi hamda inshootdan foydalanish samaradorligi kamayadi. Suv omborlarining loyqa cho‘kindilar bilan to‘lishi, suv balansining hisoblari va suv yo‘qotish muammolari bo‘yicha A.B.Avakyan, S.T.Altunin, M.A.Velikanov, A.V.Karaushev, A.N.Gostunskiy, I.A.Kuzmin, I.I.Levi, M.A.Mostkov, X.A.Ismagilov, F.Sh.Muhamedjanov, E.J.Maxmudov, M.R.Bakiyev, F.Xikmatov, A.M.Arifjanov, F.A.Gapparov, M.R.Ikramova, G.Davronov, I.A.Axmedxodjayeva, T.U.Apakxujayeva va boshqa ko‘plab olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va ma’lum ijobiy natijalarga erishilgan.

Bugungi kunda olib borilgan izlanishlarga qaramasdan suv omborlarida qirg‘oq yemirilishini baholashda suv hajmi o‘zgaruvchanligi va tog‘ jinslarini hisobga olib va ular hisobiga yuzaga keladigan favqulodda vaziyatlarni aniqlashning samarador usullarini ishlab chiqish masalalari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Suv omborlarining qurilishi va daryo oqimining boshqarilishi uning tabiiy gidrologik rejimini tubdan o‘zgartirib yuboradi va natijada boshqa tabiat hodisalarining kechishiga ta’sir o‘tkazib, boshqa sharoitni yuzaga keltiradi. Bu o‘zgarishlar gidrouzelning yuqori va pastki byeflarida turlicha bo‘lishi mumkin, uning suv xo‘jaligi tasarrufidagi maydonlarda, ya’ni daryo oqimidan foydalaniladigan hududlarda yesa butunlay o‘zgacha bo‘lishi mumkin. Suv omborining atrof-muhitga ta’sir yetadigan hududlarini quyidagicha belgilash mumkin: suv ombori va uning atrofidagi joylar; suv ombori tomonidan boshqariladigan suv, oqiziqlar, ularning kimyoviy va biologik xossalari ta’sir yetuvchi quyi oqim; daryodan olingan suvni ishlatib, unga qayta tashlaydigan vodiy hududi; daryodan olingan suv bilan sug‘oriladigan massiv.

Suv ombori yuqori byefidagi hudud muhitining o‘zgarishi darajasi va yo‘nalishiga birinchi navbatda uning o‘lchamlari, shakli, suv ombori morfologiyasi, uning tubi va qirg‘oqlarini tashkil qiluvchi jinslar, suv omborining ish rejimi va hududning iqlimiy sharoiti ta’sir ko‘rsatadi. Suv ombori pastki byefiga yesa daryo oqimi tabiiy rejimining ko‘p yillik, mavsumiy va hatto sutka davomida boshqarilib, o‘zgartirilishi, daryo o‘zanidan oquvchi suv sarfi miqdorining kamayishi, yon

irmoqlardan suv kelib qo‘shilishi hamda daryo vodiysining fizik va geografik xususiyatlarining o‘zgarishi ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, suv omborining atrof-muhitga ta’siri turlicha, ya’ni bevosita yoki bilvosita, ijobiy yoki salbiy, doimiy yoki vaqtincha, yillar davomida o‘tib yoki so‘nib boruvchi bo‘lishi mumkin. Hududni suv bosishi oqibatida hudud gidrografiyasi jiddiy ravishda o‘zgarib ketadi. Suv omborlari atrof-muhitini tashkil qiluvchilari gidrosfera va atmosfera, biosfera va geodinamik sharoitni shakllantiruvchi barcha omillar, ya’ni relyef, yerosti suvlari rejimi, iqlim, tuproq, o‘simlik va hayvonot dunyosi, landshaft va boshqalarga ta’sir ko‘rsatadi.

Yeng yirik suv omborlarining ham iqlimga ta’siri keng maydonga tarqalmaydi. Bunda ayrim hududlar mikroiklimi radiatsiya yig‘indisining ortishi va radiatsion balansning ko‘tarilishi, suv omborining quruqlikka nisbatan yuqoriroq issiqlik sig‘imi bilan aniqlanadi. Bundagi ta’sir turli regionlarda turlicha bo‘lishi mumkin. Quruq iqlimlik zonalarda suv ombori ta’siri nam zonalarga nisbatan kuchsiz. Bahorda suv omborlari qirg‘oq bo‘yi hududlariga salqinlashtiruvchi ta’sir ko‘rsatadi, issiq davrning ikkinchi yarmida yesa, ilqlik beradi.

Suv omborlarining yerosti suvlari sathi va rejimiga ta’siri yesa kuchli. Suv ombori qurilgunga qadar daryo yerosti suvlarini qabul qiluvchi bo‘lgan. Suv ombori to‘ldirilib borishi bilan yerosti suvlari sathi ham ko‘tarilib boradi va yana suv omboriga suv berdi. Ammo, sathini ko‘tarib olguncha, suv ombori hisobidan to‘yinadi. Bunda yerosti suvlari nishabligi va oqim tezligi kamayib, sathining ko‘tarilishini ta’minlaydi. Natijada zaminning drenaj xususiyati kamayadi. Yerosti suvlarining dimlanib bosimining ko‘tarilishi mahalliy sharoitga bog‘liq bo‘lib, ta’sir doirasi qirg‘oqdan boshlab bir necha o‘n metrdan ko‘plab kilometrlargacha yetishi mumkin. Suv omboriga yaqin joylaridagi grunt suvlari sathi yil davomida tez-tez va katta diapazonda o‘zgarib turadi, ya’ni suv tashlanganda pasayib, suv ombori to‘ldirilganda ko‘tariladi.

Grunt suvlarining ko‘tarilishi atrofda joylashgan binolar poydevorlari, yerosti kommunikatsiyalari, qishloq xo‘jalik maydonlari va o‘rmonchilik xo‘jaliklari

hududlarida zamin namligining ortib ketishiga, yer yuzasiga chiqqan holda yesa botqoqlanishga va uning ta'sirida yesa sho'rlanishga olib keladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, salbiy ta'sirlar bilan bir qatorda ijobiy ta'sir ham bo'lishi mumkin. Yerosti suvlari tabiiy holda juda chuqur joylashgan bo'lsa, suv ombori qurilishi va suv sathining ko'tarilishi grunt suvlari zaxirasining ortishi va o'simlik dunyosining yaxshi rivojlana boshlashiga olib keladi.

Yirik suv omborlarining qurilishi qandaydir darajada tektonik jarayonlarga ta'sir ko'rsatishi, ya'ni yer qimirlash hodisalariga sabab bo'lishi, natijada suv ombori kosasining deformatsiyalanishi, qirg'oqlar qayta shakllanishini kuchaytirishi va ularni suv bosishiga olib kelishi mumkin. Suv ombori qurib bitkazilishi bilan, katta suv bosimi ostida, ya'ni gidrodinamik ta'sir, gidromorfologik jarayonlar (shamol to'lqini, qirg'oqlar balandligi va morfologiyasi, jinslar turkumi, o'simliklar bilan qoplanganlik va ularning turlari) ta'siri ostida uning qirg'oqlari relyefi shakllana boshlaydi.

Suv ombori yordamida oqim hajmining boshqarilishi tevarak-atrofdagi tuproq va o'simlik qatlamining o'zgarishiga ta'sir qiladi. Bunday ta'sirning quyidagi turlari mavjud: doimiy, davriy va epizodik suv bilan qoplanishi; grunt orqali pastdan kuchli, o'rtacha va kuchsiz suvning namlik ta'siri; aktiv va epizodik iqlimiy ta'sir.

Tuproq va o'simlik qatlamiga ta'sir orqali bo'ladigan o'zgarishlar o'lchamlari turlicha bo'lib, tekislikda joylashgan suv omborlariniki juda katta bo'ladi. Ba'zi zonalar kengligi bir necha metrdan kilometrlargacha yetib boradi. Davriy suv bosadigan hududlarda botqoqliklar shakllanadi, grunt suvlari yer yuzasiga juda yaqin joylashadi. Bu yerlarda tuproq namligi faqat grunt suvlari joylashgan chuqurlik bilangina yemas, balki kapillyar ko'tarilish miqdori bilan ham o'lchanadi. Uning qiymati gruntning mexanik tarkibiga bog'liq bo'lib, 0,5-1,0 m.dan 6,0 m.gacha yetishi mumkin.

Grunt suvlari sathi 1-2 m chuqurlikda bo'lgan zonalarda grunt gumus, azot, fosfor, kalsiy, temir birikmalari bilan to'yinib, doimiy maysazorlar paydo bo'ladi. Grunt suvlari 2-4 m chuqurlikda bo'lsa, gumus jinslarning harakatlanuvchanligi ortadi.

Doimiy suv bosgan hududlarda avval mavjud bo‘lgan o‘simlik qatlamining yo‘q bo‘lib ketishiga olib keladi. Doimiy sayoz suv bosadigan yoki vaqtinchalik suv bosadigan joylarda gidrofil va gigrofil assotsiatsiyalar qatlami hosil bo‘ladi. Bularning rivojlanishiga suv omborining sath rejimi, to‘lqindan himoyalanganlik, avvalgi o‘simliklar turi va tarkibi, joyning relyefi va suv ombori tubi gruntlari, suvning kimyoviy tarkibi va boshqalar ta’sir ko‘rsatadi.

Grunt suvlarining ko‘tarilishidan daraxt va butalar o‘tlardan ko‘ra kuchliroq ta’sirlanadilar. Doimiy suv bosgan hududlarda ular asta-sekinlik bilan yo‘qolib ketadi. Vaqtinchalik va kam suv bosadigan joylarda suv va minerallar bilan to‘yinish yaxshilanadi, natijada daraxtlar va boshqa o‘simlik turlari yaxshi o‘sadi. Shuni aytib o‘tish kerakki, tuproq va o‘simlik qatlamining, suv rejimining o‘zgarishi faunaning o‘zgarishiga olib keladi, chunki yashash sharoiti va ozuqa bazasi o‘zgaradi.

Suv omborlaridagi cho‘kindilar fraksion tarkibining tahlili bo‘yicha suv omboriga kirish qismida 1,0-0,5 mm diametrli zarrachalar 13,98 foizni, 0,5-0,25 mm diametrli zarrachalar 11,49 foizni, 0,25-0,10 mm diametrli zarrachalar 7,56 foizni, 0,10-0,05 mm diametrli zarrachalar 10,48 foizni, 0,05-0,01 mm diametrli zarrachalar 26,8 foizni, 0,01-0,005 mm diametrli zarrachalar 13,34 foizni, 0,005-0,002 mm diametrli zarrachalar 16,42 foizni tashkil etadi. Suv omborining to‘g‘oni yuzasidan olingan cho‘kindilar fraksion tarkibining tahlili bo‘yicha 1,0-0,5 mm diametrli zarrachalar 2,26 foizni, 0,5-0,25 mm diametrli zarrachalar 1,97 foizni, 0,25-0,10 mm diametrli zarrachalar 1,60 foizni, 0,10-0,05 mm diametrli zarrachalar 16,65 foizni, 0,05-0,01 mm diametrli zarrachalar 39,31 foizni, 0,01-0,005 mm diametrli zarrachalar 14,47 foizni, 0,005-0,002 mm diametrli zarrachalar 23,74 foizni tashkil etadi. Stvorlar bo‘yicha cho‘kindilarning taqsimoti hamda ulushiga e’tibor qaratsak, 35-40 foizi yirik fraksiyali ( $d=1,0-0,1$  mm) zarrachalar va 50-60 foizi esa mayda fraksiyali ( $d=0,05-0,001$  mm) zarrachalardan tashkil topishi aniqlandi.

Tub va muallaq cho‘kindilarning laboratoriya sharoitida fraksion tarkibi tahlil qilindi. Loyqa cho‘kindilarning fraksion tarkibini o‘rganish maqsadida laboratoriya

tahlillari olib borildi. Suv omboridagi cho‘kindilarning fraksion tarkibi tahliliga ko‘ra 35-40 foiz yirik fraksiyali ( $d=1,0-0,1$  mm) zarrachalar, 55-60 foiz mayda fraksiyali ( $d=0,05-0,001$ mm) zarrachalar mavjudligi aniqlandi. Ma’lumki, suv omboridagi mayda fraksiyali loyqa cho‘kindilar tarkibida ekin maydonlari uchun foydali bo‘lgan zarrachalar mavjud, ularni sug‘orish tarmoqlariga uzatish orqali ekin maydonlariga yetkazib borilsa, ekin maydonlari unumdorligiga va tuproq meliorativ holatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Iqtisodiyot sohalarini suv bilan ta’minlash uchun mo‘ljallangan suv omborlarining ahamiyati juda katta. Suv omborlarining daryo oqimini boshqarish darajasi va xarakteri bo‘yicha u xizmat ko‘rsatadigan hududlar bir necha qismlarga bo‘linadi [1]:

yuqori byefda suv omborining bevosita ta’sir zonasi:

suv sathi NDS (normal dimlangan sath) va 10 foiz ta’minlanganlikdagi dimlanish egri chizig‘ini hisobga olgan holda, suv yuzasi chizig‘idagi doimiy suv bosgan hudud;

suv sathi NDS va dimlanish yegri chizig‘ini hisobga olgan holda, suv yuzasi chizig‘idagi davriy va vaqtincha suv bosadigan hudud. Bunda ta’minlanganlik temiryo‘llar uchun 0,3 foiz, aholi punktlari uchun 1 foiz va ekin maydonlari uchun 5 foiz qabul qilinsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Suv omborining loyqalanishi borasida olib borilgan nazariy va eksperimental tadqiqotlar tahlilidan suv ombori qirg‘oqlari yemirilishini kamaytirishda oqim va daryo oqiziqlarining taqsimotini ifodalaydigan omillardan suv hajmi o‘zgaruvchanligi va tabiiy dala sharoitida suv omborida yuzaga kelgan qirg‘oqlarining yemirilishiga ta’sir etuvchi omillar suv hajmining o‘zgaruvchanligi va daryo oqiziqlarining tarkibiy qismiga bog‘liqligi aniqlandi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Авакян А.Б. Водохранилища и окружающая среда. М.: Изд. «Знание», 1982 год, С. 48.
2. Авакян А.Б., Салтанкин В.П., Шарапов В.А. Водохранилища. – М.: Мисл, 1987 год.

– 325 стр.

3. Алтуний С.Т. Водозаборные узлы и водохранилища. Колос, М. 1964 год. 431 стр.

4. Андрианов В. Территория ArcGIS // ArcReview. - N3 (38), 2006 год. – С. 2.

5. Беркович К.М. Руслые процессы на реках в сфере влияния водохранилищ. – М.: Географический факультет МГУ, 2012 год. 163 стр.

6. Бреховских В.Ф., Казмирук Т.Н., Казмирук В.Д. Донные отложения Иванковского водохранилища: состояние, состав, свойства. Ин-т водных проблем. – Москва: Наука, 2006. С. 173.

7. Влатский В.В. Моделирование речного стока с использованием ГИС технологий. Вестник ОГУ №9 (115), 2010 год. С. 104-109.

8. Вуглинский В.С. Водные ресурсы и водный баланс крупных водохранилищ. – Л.: Гидрометеиздат, 1991. 223 стр.

9. Вуглинский В.С. К вопросу о методике учета влияния водохранилищ на речной сток. Труды ГГИ, вып. 274. Л., 1981. С. 73-85.

10. Гречишев А. Трехмерное ГИС-моделирование и техническая инвентаризация // ArcReview. – N3 (38), 2006. – С.19-20.

11. Гурянова Л.В. Введение в ГИС. Учебное пособие. БГУ, г.Минск, 2008 год. 135 стр.

12. Зиновев А.Т., Кошелев К.Б., Марусин К.В., Кошелева Е.Д. Математическое моделирование руслового потока для прогнозов влияния строительства в поймах. Водное хозяйство России № 2, 2017. С. 54-72.

13. Gapparov F.A. Suv omborlarini xavfsiz va samarali ishlatishni tashkil etish // “AGRO ILM” jurnali. – Toshkent, 2007. – №4. 32-bet.

14. Арифжанов А.М. Распределение взвешенных наносов в стационарном потоке // Водные ресурсы. – М., 2011. – №2. С.185-187.

15. Арифжанов А.М., Ахмедходжаева И.А. Водные ресурсы . – 2011. – 140 стр.

16. Axmedxodjayeva I.A., Apakxujayeva T.U. Suv omborlari gidravlikasi. T.: 2016. 149-bet.

17. Gapparov F.A., Arifjanov A.M., Ibragimov B.T., Yalgashev O., Gafurov B.B. Turli hududlardagi suv omborlari foydali hajmining kamayib borish ko‘rsatkichlari o‘zgarishining tahlili // “Yong‘in-portlash xavfsizligi” ilmiy jurnali, № 1 (6), 2021-yil. 100-107-b..(05.00.00; №28).

18. Gapparov F.A., Arifjanov A.M., Ibragimov B.T., Yalgashev O., Gafurov B.B. Suv omborlaridagi loyqa-cho‘kindilar miqdorini baholash usullarini takomillashtirish // “Yong‘in-portlash xavfsizligi” ilmiy jurnali, № 1 (6), 2021-yil. 108-117 b. (05.00.00; №28).

19. Gapparov F.A., Arifjanov A.M., Yalgashev O. Suv omborlari hududida shamol rejimi harakteristikalarini aniqlash usullari tahlili // “Fan, muhofaza, xavfsizlik” ilmiy-amaliy jurnali. ISSN-2181-970X № 1 (6), 2021-yil. 108-118-b. (05.00.00; №36).

20. Gapparov F.A., Arifjanov A.M., Yalgashev O. Suv omborlaridan foydalanishda gidravlik va gidrologik rejim tadqiqotlari tahlili // “Fan, muhofaza, xavfsizlik” ilmiy-amaliy jurnali, ISSN-2181-970X № 4 (6), 2021-yil. 119-128 b. (05.00.00; №36).

21. Gapparov F.A., Arifjanov A.M., Yalgashev O. Ochiq zovurlarda deformatsiya jarayonlarini baholash // “Yong‘in-portlash xavfsizligi” ilmiy-amaliy elektron jurnali. ISSN-2181-9327 № 1 (6), 2021-yil 100-107-b. (05.00.00; №28).

22. Khoshimov I., Atakulov D., Yalgashev O., Komilov Sh. Evaluation of Sedimentation of Water Reservoirs with Modern Technologies // International Scientific Conference Construction Mechanics, Hydraulics // Water Resou of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 6, Issue 7, July 2022 (<https://doi.org/10.1051/e3sconf/202336503033>).

23. Yalgashev O. Texnogen ta’sirlar tufayli sodir bo‘ladigan shikastlanish va avariya holatlari // “Hayotiy faoliyat xavfsizligini ta’minlashda innovatsion yondashuv ilmiy ishlanmalar va zamonaviy texnologiyalar” mavzusidagi yosh olimlarning respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. Toshkent. 2019-yil. 96-98 b.

24. Журавков М.А., Видякин В.В. ГИС-технологии в прикладной механике. – Мн.: БГУ, 2000. 155 стр.

25. Yalgashev O., Suyunov Sh. Jins hosil qiluvchi minerallarning va tog‘ jinslarining asosiy turlari // “Energiya tejamkor va mahalliy xomashyolar asosida qurilish materiallari buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarishni rivojlantirish muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-texnikaviy konferensiya materiallari. TAQI, Toshkent. 2018-y. 24-26-b.



UO‘K: 614.84(575.1)(091)“19/20”

## TURKISTON O‘LKASIDA YONG‘IN XAVFSIZLIGI TIZIMINING YUZAGA KELISHI TARIXI

*O‘razbaev Ne‘matjon Kamilovich*  
*O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi kafedra boshlig‘i*  
*tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*  
*E-mail: akademiyafov@mail.ru*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada jamiyat taraqqiyoti, insoniyat ijtimoiy hayotida yong‘in va xavfsizlik masalasi, uni ta‘minlash jamiyat oldidagi dolzarb vazifalardan biri ekanligi, jamiyatda xavfsizlik tizimini joriy etilish tarixi, jamiyat xavfsizlik masalasi bilan shug‘ullanuvchi tuzilmalarining tarkibiy qismlari, tizimning shakllanishi va rivojlanish taraqqiyot bosqichlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** jamiyat, jamiyat xavfsizlik tuzilmalari, davlatchilik, yong‘in, yong‘indan muhofaza, ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy tajriba.

## ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ СИСТЕМЫ ПОЖАРНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ТУРКЕСТАНЕ

*Уразбаев Нѐматжон Камирович,*  
*начальник кафедры Академия МЧС Республики Узбекистан*  
*доктор философии по историческим наукам (PhD)*  
*E-mail: akademiyafov@mail.ru*

**Аннотация.** В данной статье описывается развитие общества, проблема пожарной безопасности в социальной жизни человечества, то, что ее обеспечение является одной из актуальных задач перед обществом, история внедрения системы безопасности в обществе, составляющие структуры общества, занимающиеся вопросами безопасности, этапы становления и развития системы.

**Ключевые слова:** Общество, структуры безопасности общества, государственность, пожар, пожарная охрана, социальное развитие, социальный опыт.

## THE HISTORY OF OCCURRENCE OF THE FIRE SAFETY SYSTEM IN TURKESTAN

*Urazbayev Nematjon Kamilovich*  
*Head of Department of the Academy of the Ministry of Emergency*  
*Situation of the Republic of Uzbekistan*  
*Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD)*  
*E-mail: akademiyafov@mail.ru*

**Annotation.** *This article describes the development of society, the issue of fire and safety in the social life of mankind, the fact that its provision is one of the urgent tasks before society, the history of the introduction of the safety system in society, the components of the structures of society dealing with the issue of safety, the stages of the system's formation and development.*

**Keywords:** *society, society security structures, statehood, fire, fire protection, social development, social experience.*

Mamlakat taraqqiyotida jamiyat hayotining turli sohalarini rivojlantirish va ularning tarixiy jarayonlarini o'rganish muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, turli tarixiy taraqqiyot bosqichlarida insoniyat ijtimoiy hayotida xavfsizlik masalasi va uni ta'minlash dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelgan. Shu ma'noda yong'in xavfsizligi tizimi tarixi jamiyat xavfsizlik tuzilmalarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur tizimning shakllanishi va rivojlanishi qadimgi va o'rta asrlarga borib taqaladi.

Asrlar davomida ibtidoiy jamoa tuzumining paleolit davrida qadimgi odamlar avval tabiiy, ya'ni chaqmoq urishi va vulqon otilishi natijasida hosil bo'lgan olovdan foydalanishgan bo'lsa, keyinchalik, o'rta paleolit davriga kelib, sun'iy olovni ixtiro qilishga muvaffaq bo'lishgan. Olov jamiyat rivojlanib borgan sari ijtimoiy taraqqiyotning bir omili sifatida insoniyat hayotidan o'rin olib borgan. O'rta Osiyoning qadimgi tarixi haqida ma'lumot beruvchi ilk yozma manba – Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da ham olov poklik ramzi sifatida e'tirof etilgan. Qadimda insoniyat aql-idroki olov oldida ojizlik qilib, unga qarshi yetarli darajada qarshilik ko'rsata olmagan. Buning natijasida olov ilohiylashtirilib, unga sig'inishgan, shu bilan birga, olov yong'inlar vujudga kelishiga va katta-katta talafotlar ro'y berishiga sabab bo'lgan.

Asrlar o'tishi bilan insoniyat o'zi yashagan makonda yong'inning oldini olish choralarga e'tibor qarata boshlagan. Ya'ni, aholi o'troq yashaydigan maskanlarda

tungi navbatchilik, ya'ni qorovulliklar tashkil etilgan. Ular yong'inlar ro'y berganda uni bartaraf etish uchun jalb etilgan. O'rta Osiyoga islom dini kirib kelishi bilan mahalliy aholi zardushtiylikning muqaddas unsuri bo'lgan olovga sig'inishni to'xtatgan va ayrim urf-odatlardagina saqlab qolingan. Ayrim hollarda, olov yovuz niyatli kishilarning himoya vositasigina emas, balki hujum qilish, o'ldirish quroliga ham aylangan.

Tarixiy manbalarda Amir Temur davrida o't o'chirish tashkiliy tuzilmasiga asos solinganligi, maxsus o't o'chiruvchi o'nliklar tuzilganligi va yong'inni bartaraf etish ishlariga jalb etilganligi qayd etilgan. Ular kerakli barcha anjomlar bilan ta'minlangani holda, maosh ham olishgan. Biroq, Amir Temur hukmronlik yillaridan keyingi davrda ularning faoliyati to'xtab qolgan. Bir qator muarrixlar, xususan Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarida yong'inning dahshatli ofat ekanligi, uning mudhish oqibatlarini haqida tegishli ma'lumotlar keltirilgan [1].

Ijtimoiy tajriba va davlatchilik taraqqiyotidan kelib chiqib, o'rta asrlarda yong'in xavfsizligiga mos ravishda inshootlar qurila boshlangan. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bunyod etilgan me'morchilik obidalarini qurishda yong'in xavfsizligi masalasiga jiddiy e'tibor berilgani holda, o'tga chidamli qurilish materiallaridan foydalanilgan, yuqori sifatli pishiq g'isht, ganch eritmasi tayanch sifatida ishlatilgan. Shu bilan birga, qurilish materiallariga daryo va ko'llar tubidan keltirilgan hamda yaxshilab ishlov berilgan turli xil kukunlar solingan bo'lib, bu moddalarning aksariyati yong'inbardosh xususiyatga ega bo'lgan.

Odamlar dastlab, olovni o'chirishda oddiy mehnat qurollari, masalan, belkurak, supurgi, chelak, panshaxa va boshqalardan foydalanib kelishgan. Sababi, o'sha davrlarda yong'in xavfsizligini ta'minlash, sodir bo'lgan yong'inlarni o'chirish uchun maxsus tashkilot yoki jamiyat bo'lmagan. Shuning uchun bu ishlarni aholining o'zi jamoaviy tarzda amalga oshirishga harakat qilgan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'rta asrlarda bunyod etilgan ayrim inshootlar, xususan, aholi ko'p yig'iladigan binolarda hovuzlar ham mavjud bo'lgan. Masalan,

Xivaning Jome' (Juma) masjidi o'rta asrlarda shaharning ko'zga ko'ringan binolaridan biri bo'lib, o'ziga xos qurilishi va hajmi bilan ajralib turgan. Mahobatli ko'rinishga ega bo'lgan masjidning markaziy qismida doimo o'zida suv saqlovchi tosh qozon bo'lib, undan tahorat olishda foydalanilgan deb aytilsa-da, aslida juma kunlari har bir musulmon uyida g'usl va tahorat olib kelgani hisobga olinadigan bo'lsa, bu suv yong'inning oldini olishga ham mo'ljallangan, deb aytish mumkin [2].

Shuningdek, o'rta asrlarda aholi istiqomat qiladigan manzillarda hovuzlarning barpo etilganligi aholi uchun suv zaxirasini saqlash bilan birga yong'in xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Xiva, Buxoro, Samarqand, Termiz kabi qadimiy shaharlarda me'moriy obidalarining yong'in xavfsizligi to'liq ta'minlangan bo'lib, bu me'moriy obidalar oldida doimiy suv saqlanadigan hovuzlar barpo qilingan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, bitta Buxoroning o'zida 103 ta hovuz bo'lib, 82 tasining nomi manbalardan saqlanib qolgan. Hovuzlar juda katta mablag'li bo'lgan kishilar homiyligida ustalar tomonidan qurilgan. Buxoro shahridagi katta hovuz "Labihovuz" bo'lib, u 1620-yilda bunyod etilgan. Bu hovuzning bo'yi 42 metr, eni 36 metr, chuqurligi esa 5 metr bo'lgan [3]. Mazkur hovuz nafaqat suv ta'minotida, balki yong'inni tezda o'chirishda ham qo'l kelgan.

Qo'qon xonligi davrida ham aholi yong'inlarning oldini olish va unga qarshi kurashishda bozorlar ichidagi hovuzlardan keng foydalanishgan. Qo'qondagi bozor ichida bunyod etilgan hovuzdan aholi ichimlik suvi sifatida va xo'jalik ishlarini bajarishda foydalanib kelgan. Suv havzalari qo'qonliklar hayotining ajralmas qismi bo'lib, shahar ravnaqida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Uzoq o'tmishda shaharning har bir mahalla boshi, guzarida aholi tomonidan qazilgan va qishin-yozin suv bilan to'ldirilgan hovuzlar bo'lgan. Ular aholi tomonidan turli chiqindilar bilan ifloslanmasligi uchun doimiy nazorat qilib turilgan. Har bahorda o'sha hovuzlar mahalla oqsoqollari, o'nboshi, ellikboshilar rahbarligida tozalanib, ariqlar ochilgan. Kezi kelganda bu hovuz va ariqlardagi suvlardan yong'inlarni o'chirishda unumli

foydalanilgan [4].

Oʻrta Osiyo tarixiga oid boʻlgan qoʻlyozmalarda ham oʻlkada yongʻin xavfsizligini taʼminlashga oid maʼlumotlar uchraydi. Oʻlka tarixida turli harbiy yurishlar, bosqinchilik urushlari, oʻzaro ichki nizolar oqibatida koʻplab yongʻin va vayronagarchiliklar ham roʻy berganligini taʼkidlash lozim. Bunday vaqtda hududlarda yongʻin xavfsizligiga oid maxsus tuzilmalar boʻlib, ular koʻp hollarda davlat obyektlarini muhofaza qilishga yoʻnaltirilganligi va har doim shay holda turganligi tegishli manbalarda ham taʼkidlab oʻtiladi.

XIX asr boshlariga kelib yongʻin xavfsizligi va uni bartaraf etish masalasiga Rossiya imperiyasi hukumati eʼtibor qarata boshladi. Jumladan, 1804-yil 31-mayda imperator Aleksandr I farmoniga binoan dastlabki oʻt oʻchirish komandalari tashkil etilgan boʻlib, oʻshanda Moskvada kasbiy negizda 20 ta oʻt oʻchirish komandasi tuzildi [5]. Keyinchalik Rossiyaning Tver guberniyasiga qarashli Ostankovo shahrida oʻt oʻchirish drujinalari tashkil etilgan [6].

Oʻsha vaqtda komandalar ixtiyorida suv toʻldirilgan bochkali ot-arava boʻlgan va ular brandmeyster rahbarligida shaharning eng qisqa yoʻllari orqali yongʻin joyiga yetib borishgan. Bochkadagi suv olovga nasos bilan sepilgan va yongʻin bartaraf etilgan. Odatda, barcha ishlar qoʻlda bajarilgan boʻlib, yongʻinlar bilan kurashish masʼuliyati aksariyat hollarda aholi zimmasiga tushar, baʼzan yongʻin sodir boʻlganida birlashgan koʻngilli oʻt oʻchirish drujinalari ham jalb etilardi [7]. Koʻngilli oʻt oʻchirish drujinalarining yaxshi tomoni shundaki, ularga pul toʻlanmagan.

Yongʻinga qarshi kurashish drujinalarini tashkil etish ishlari boshqa hududlarda ham davom ettirilib, 1881-yilda knyaz Lvov oʻzining shahar tashqarisidagi hovlisida drujina tashkil qiladi. 1884-yilda esa, Ulyansk qishlogʻida graf Sheremetyev drujinasi tashkil etilgan. 1890-yilga kelib Rossiyaning shahar va qishloqlarida 60 ga yaqin oʻt oʻchirish jamiyatlari tashkil topgan edi.

Jahon adabiyotining yirik namoyandasi, taniqli rus yozuvchisi L.N.Tolstoy ham oʻzi tugʻilib oʻsgan Yasnaya Polyana qishlogʻida koʻngilli oʻt oʻchirish drujinasiga

asos solgan. Mazkur ko‘ngilli o‘t o‘chirish jamiyatlari knyaz A.Lvov tashabbusi bilan birlashtirilib, tashkiliy qo‘mita ham tuzilgan edi. Hatto, yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni targ‘ibot va tashviqot qilish maqsadida 1892-yilda Sankt-Peterburg shahridagi M.Manejning xonalaridan birida ko‘rgazma zali ham ochilgan.

1889-yilda Rossiya imperatorining Yong‘inga qarshi kurash jamiyati Bosh kengashi tashabbusi bilan yong‘inni o‘chirishda jarohat olgan o‘t o‘chiruvchilarga va yong‘inda halok bo‘lganlarning oila a‘zolariga moddiy yordam berishni o‘z vakolatiga olgan “Zangori xoch jamiyati” tuzilgan [8].

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston hududlari Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so‘ng, bu jarayonda Chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati negizida o‘lkadagi moddiy boyliklarga egalik qilish, uni tashib ketish masalalari birinchi o‘rinda turgan bo‘lsa-da, o‘lkada tovar-pul munosabatlarining shakllanishi bilan hududda yangi texnika vositalarining kirib kelishi uchun muayyan darajada imkoniyat yaratildi. Shu bilan birga, ushbu moddiy boyliklarni yong‘indan saqlash choralari ko‘rila boshlandi.

Rossiya imperiyasi ma‘murlari tomonidan paxtachilikning rivojlantirilishi natijasida paxtani qayta ishlash bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan paxta tozalash, yog‘, sovun pishirish korxonalari tarmog‘i kengayib, 1874-yil Toshkentda Turkistonda birinchi paxta tozalash zavodi, 1880-yil Olimxo‘ja Muhammadjonov tomonidan Andijonda, 1881-yil L.Yugovich tomonidan Kattaqo‘rg‘onda, 1890-yilda Andijon tumanida Bo‘taqori kabi paxta tozalash zavodlari ishga tushirildi.

Ko‘p tarmoqli agrosanoat – “Andreyev xutori” nomli savdo-sanoat shirkati ichidagi mavjud zavod esa bir kecha-kunduzda taxminan 200 ming pudgacha (3200 tonna) paxta tozalash imkoniyatiga ega bo‘lgan. 1880-1914-yillar orasida qariyb 220 ta paxta tozalash zavodlari qurilgan. Masalan, 1890-yilda Xiva xonligida 81 ta sanoat korxonasi mavjud bo‘lib, ulardan 27 tasi nisbatan yirik korxonalar edi. Buxoro amirligida esa 1905-yilda 9 ta, 1913-yilda esa 26 ta paxta zavodi ishlab turgan.

O‘lkada sanoat korxonalarining ko‘payishi yong‘in xavfsizligi xizmatini yanada

rivojlantirishni muhim masala sifatida qo‘ydi. 1917-yil fevral oyiga kelib, 36 ta paxta tozalash zavodi, 4 ta yog‘ va sovun ishlab chiqarish zavodlari ishlab turgan [9]. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, yildan-yilga paxtaning ko‘proq yetishtirilishi ishlab chiqarish korxonalaridagi yong‘inning oldini olish bilan birga, paxta omborxonalaridagi paxtani saqlashda ham xavfsizlikni ta’minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etganligini ko‘rsatadi [10].

Rossiya imperiyasi tomonidan o‘lkaga sanoat olib kirilgach, u bilan birga tez alangalanuvchi mahsulotlar: spirt, neft, paxta, ko‘mir, yog‘-moy mahsulotlarini ishlab chiqarish ham yo‘lga qo‘yilgan. Ayni paytda, buning oqibatida joylarda yong‘inlarning ham kelib chiqishi kuzatila boshlangan va ushbu ofatning oldini olish maqsadida Rossiya manfaati nuqtai nazaridan ishlar olib borilgan.

O‘sha davrlarda ishlab chiqarish quvvatlari birmuncha rivojlana boshlagan bo‘lsa-da, o‘lka aholisi va ularga tegishli moddiy boyliklarni yong‘inlardan asrash masalasi general-gubernatorlik, uning tobeligidagi uyezdlar, volostlar boshliqlari ish faoliyatining bironta ham tarmog‘ida uchramaydi. Chor ma’murlari yong‘inning oldini olish yoki uni o‘chirish bilan bog‘liq masalalarga ikkinchi darajali ish sifatida qarab kelgan.

Shuning uchun ham, o‘lkada bir qancha yong‘inlar sodir bo‘lishiga qaramay, Turkiston general-gubernatorligi tomonidan buning oldini olish borasida o‘z vaqtida kerakli chora-tadbirlar belgilanmagan. Chunki, gubernatorlikning yong‘inga qarshi kurashish bo‘yicha tegishli tuzilmasi gubernatorlik tasarrufidagi obyektlarni yong‘indan muhofaza qilish vazifasini bajargan, xolos. Aholi yashash manzillaridagi yong‘inlarning oldini olish yoki uni o‘chirish bilan bog‘liq masalalarga ikkinchi darajali ish sifatida qarab kelingan. Hatto, birorta uyezd hamda volostlarning boshliqlari faoliyatida ham mazkur sohaga oid tarmoq bo‘lmagan [11].

Bu davrda uyezd boshliqlarining yong‘inga qarshi choralar ko‘rish, o‘t o‘chirish qismlarini tashkil qilish, unga kerak bo‘lgan jihozlar va anjomlarni sotib olish haqidagi iltimoslari e’tiborsiz qoldirilsa-da, o‘lkada sodir bo‘lib turgan yong‘inlar imperiya

ma'murlarini bu masalalarga jiddiy yondashishlariga majbur etgan [12].

Chunki, iqtisodiy omillar, moddiy boyliklarni asrash ehtiyoji shunga olib kelgan. Shuning uchun ham Turkiston va uning markazi Toshkentda sodir bo'lgan yong'inlar bu masalaga imperiyaning o'lkadagi ma'murlarini jiddiy e'tibor qaratishga majbur etgan. Yong'inlar sodir bo'lganda esa, asosan, mahalliy aholi kuchiga tayanilgan va jamoatchilik tarzida yondashilgan. Har bir mahallada tungi navbatchiliklar tashkil etilgan, navbatchilar yong'in sodir bo'lganda mahalla ahlini ofatni bartaraf etishga jalb etgan va bunda, asosan, hovuz suvlaridan foydalanilgan.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, Turkiston general-gubernatorligi hukmronligi davrida (1867-yil 14-iyul – 1917-yil 31-mart) yong'in xavfsizligi masalalariga qaratilgan birorta ham me'yoriy hujjat qabul qilinmagan bo'lgan, bu masalalarni hal etish bilan bog'liq jarayonlar imperiya markazidan yuborilgan me'yoriy hujjatlar asosida boshqarilgan [13].

Shunga qaramay, vaqt o'tishi bilan yong'in xavfsizligi tizimi sekin-asta rivojlana boshlagan. Shahar va qishloqlarni yong'indan muhofaza qilishda o't o'chirish kalanchalari katta ahamiyatga ega bo'lgan. O't o'chirish kalanchasi baland qilib qurilgan bino bo'lib, uning eng yuqorisiga kuzatuv minorasi o'rnatilgan. O't o'chirish kalanchalari XIX asrning ikkinchi yarmida qurilib, o't o'chiruvchilar tomonidan shahar va ularga yaqin hududlarda joylashgan qishloqlarni yong'in ofatidan muhofaza qilishda foydalanilgan. Unda o't o'chiruvchilar kecha-yu kunduz navbatchilik qilishib, shahar yoki posyolkalarda boshlangan yong'inni (tutundan) bilishib, bu haqda minoraga osilgan katta qo'ng'iroqni chalib xabar berishgan.

Bundan tashqari, ogohlantiruvchi bayroqchalarni silkitish bilan, tungi paytlarda esa fonuslarni yoqib belgi berishgan. O't o'chirish uchun jangovar tayyorgarlikda otli izvoshlari bo'lib, unda “Chellenj” va “Qizil mash'al” rusumli 4 ta qo'l nasosi, juft otli ikkita nasos va bochkali arava, bir otli, 4 ta bochkali arava bo'lgan. O't o'chiruvchilar xabarni olgan zahoti yong'in sodir bo'lgan joyga yetib borib, suv berib yong'inni o'chirishgan [14]. Albatta, bu choralar hozirgi kundagi rivojlangan texnikalar singari

mukammal bo‘lmasa-da, odamlarga ruhiy dalda bo‘lgan.

Arxiv hujjatlarida o‘lkada sodir bo‘lgan yong‘inlar haqida ko‘plab ma’lumotlar uchraydi. Jumladan, Toshkentning Voskresensk bozorida 1861-yil 29-oktabrda yong‘in sodir bo‘lgan [15]. 1868-yilning 11 va 16-oktabr sanalarida Toshkentning “Qashqar” va “Ko‘kcha” mahallalarida, 1893-yil may oyida “Zangiota” mahallasida, “Beshyog‘och” dahasida, 1879-yilning avgust oyida Samarqanddagi 7-qorovullik saroyi va uning 64 ta rastasida sodir bo‘lgan yong‘inlarni bartaraf etishning iloji topilmagan [16].

O‘lkada yong‘inlarning tez-tez sodir bo‘lishi oqibatida imperiya ma’murlari ma’lum ma’noda yong‘in muhofazasi masalasi bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rishga majbur bo‘lishgan. Sababi, imperiya manfaatlariga xizmat qiluvchi korxonalar va muassasalarda yong‘inning sodir bo‘lishi moddiy jihatdan katta zararlar keltirib chiqarishi tayin edi.

Rossiya imperiyasi Ichki ishlar vazirligining 1880-yil 17-maydagi sirkulyar xati bilan general-gubernatorlar, uyezd va shahar boshliqlariga yong‘in xavfsizligini ta’minlash va u bilan bog‘liq tashkiliy masalalarni hal etish bo‘yicha bir qator tadbirlar o‘tkazishni taklif qiladi. Bunda yong‘in xavfsizligi masalasi bilan politsiya mahkamasi shug‘ullanishi ko‘rsatilib, ba’zi chora-tadbirlar belgilangan bo‘lsa-da, tegishli profilaktika ishlarining sustligi bois yong‘inlar sodir bo‘lishda davom etgan. Bu kabi ofatlarning oldini olish maqsadida ko‘ngillilar jamiyatlari tashkil etilgan.

Ushbu fikrimizga misol sifatida quyidagi ma’lumotni e’tirof etishimiz mumkin. 1897-yili Toshkentda yong‘indan saqlash havaskorlarining o‘t o‘chiruvchilar “Erkin jamiyati” tashkil etilgan [17]. Uning Nizomi bir necha bor Toshkent dumasida ko‘rib chiqilib, 1897-yil 15-mayda qabul qilingan. 82 banddan iborat mazkur Nizomda jamiyatning maqsadi, huquq va majburiyatlari, tarkibiy tuzilishi hamda jamiyatga 17 yoshdan 21 yoshgacha bo‘lgan erkaklar qabul qilinishi ko‘rsatib berilgan.

Jamiyatni moliyaviy jihatdan ta’minlash a’zolik badallari hisobidan amalga oshirilgan. Ushbu jamiyatning ilk qadami yong‘inga qarshi kurash ishlarining

yaxshilanishiga ma’lum darajada yordam bergan bo’lsa-da, sohadagi muammolarni hal eta olmagan. Shuning uchun ham 1908-yilga kelib bu jamiyat tarqatib yuborilgan [18].

Bundan keyin Turkiston o’lkasida vaziyat tobora taranglashib, aholi yashash joylari va ishlab chiqarish obyektlarida sodir bo’layotgan yong’inlar soni keskin oshib bordi. Biroq, yong’in ro’y berganida u bilan kurashish darajasi pastligicha qolavergan. Masalan, 1902-yilda Toshkent shahridagi Voskresensk bozorida ro’y bergan katta yong’inida ham shunday holat kuzatilgan. Ko’rilgan moddiy zararining miqdori 300 ming rubldan ortiqroqni tashkil qilgan [19]. 1903-yilda esa Turkiston general-gubernatori uyida ham yong’in sodir bo’lgan [20]. Bularning barchasi sohada tezkor chora-tadbirlar ko’rishni taqozo etardi.

XX asrning boshlarida Turkiston general-gubernatori o’t o’chirish komandalarini tuzishga ruxsat beradi [21]. Natijada, Toshkent shahar Dumasi o’t o’chirish qismlarini loyihalashtirish uchun maxsus komissiya ham tayinlaydi. Bunday komandalarni tuzish masalasi sansalorlik bilan, ikki yilga qadar cho’zildi. Shunga qaramay, 1902-yilda Toshkentda, keyinchalik boshqa shaharlarda ham mahalliy politsiya apparatlari tarkibida o’t o’chirish komandalari tashkil etila boshlandi. Biroq, Turkiston general-gubernatorligi o’t o’chirish xizmatini tashkil etish bo’yicha birorta ham me’yoriy hujjat qabul qilmadi. Bu boradagi ishlar faqat podsho ma’muriyatidan kelgan me’yoriy hujjatlarni qayta ishlab chiqish yo’li bilan amalga oshirildi.

Ko’rsatilgan yong’inga qarshi me’yoriy hujjatlarda asosan yashash binolarining yong’inga chidamlilik darajalarini oshirish chora-tadbirlari belgilandi. Jumladan, isitish qurilmalarini qurish va ishlatishga qaratilgan hamda yengil yonuvchi suyuqliklarni saqlashdagi choralar qayd etildi. Bundan tashqari, ushbu hujjatlarda uy egalari, do’kon mudirlari yong’inning oldini olish uchun qorovullar tashkil etishlari lozimligi alohida ko’rsatilgan edi [22].

Toshkent shahar Dumasi 1904-yil 15-martda general-gubernatorga xat yo’llab, unda Toshkent shahriga Rossiyaning Yevropa qismidan tajribali mutaxassis kelganidan keyingina shaharda yong’in bilan kurashuvchi komanda shakllanishi

mumkinligi va bunday mutaxassisni shahar hokimiyati taklif etganligini yozadi [23].

Lekin, 1910-yillarda ham Turkistonda yong‘in xavfsizligini ta‘minlash borasida juda ko‘plab muammolar mavjud bo‘lgan. Bu davrda imperiya ma‘murlari mahalliy aholi bilan yong‘inning kelib chiqish sabablari, uni o‘chirish, yong‘inlarning oldini olish choralari haqida suhbatlar o‘tkazib, yong‘in chiqqanda xalqni uning oldini olmaganlikda ayblaydi [24]. Demak, ushbu ma‘lumotdan ko‘rinib turibdiki, Chor hukumati mas‘uliyatni o‘z bo‘yniga olmasdan, uni mahalliy aholi zimmasiga yuklagan.

1912-yilda Toshkentda Mirsalim Mirbadalovga tegishli yog‘ zavodi yonib ketadi. Yong‘inning oldini olishga qanchalik urinilmasin, yong‘in butun zavodni egallaydi. O‘sha davrda chop etilgan maqolada bu haqda “Toshkent shahrining yong‘inga qarshi kurashish komandasi mavjud bo‘lganida, yong‘indan yetgan moddiy zarar kamroq bo‘lgan bo‘lardi” [25], – deya haqli ta‘kid etiladi. Bundan ko‘rinadiki, Toshkentda hali ham alohida yong‘inga qarshi kurashuvchi maxsus komanda mavjud bo‘lmagan.

Imperiya ma‘muriyatining yong‘in xavfsizligi xizmatiga bo‘lgan e‘tiborsizligi sababli yong‘inlarning oldin olish va unga qarshi kurashish tadbirlari deyarli amalga oshirilmagan. Natijada, Toshkentda (qolaversa, boshqa hududlarda ham) bir nechta yong‘inlar yuz berib, asosan, zavodlar yoki savdo do‘konlari yongan [26]. Afsuski, bu kabi yong‘inlarni bartaraf etishda birgalikda harakat qilish yetarli darajada tashkil etilmagan [27]. 1915-yilda Krasnovodsk shahridagi “Sharq jamiyati” paxta omborxonasida juda katta yong‘in ro‘y beradi. Buning natijasida, to‘rt million so‘mlik zarar etadi [28].

1910-yil 21-22-fevral kunlari Amudaryo o‘rmon xo‘jaligi rahbari yordamchisi tomonidan sodir bo‘lgan yong‘inni o‘rganish jarayonida aniqlanishicha, 1910-yilning 14-fevral kuni, kunning ikkinchi yarmida yong‘in boshlanib, u ertasiga kechqurun tugagan. Ushbu yong‘in (hozirgi Qoraqalpog‘istonning To‘rtko‘l, Xorazm viloyatining Urganch shahriga qadar, Amudaryo qirg‘oqlarida sodir bo‘lgan) oqibatida o‘rmon xo‘jaligining katta qismi yonib kulga aylangan [29].

Bu yong‘inni bartaraf etish yoki uning oldini olish choralarini ko‘rishda birorta yong‘in o‘chiruvchi guruh haqida ma‘lumot keltirilgan emas. Yong‘inni bartaraf etish, asosan, mahalliy aholi vakillari yordamida amalga oshirilgan. Bu jarayonning o‘zi ham yong‘inlarning oldini olish va ularga qarshi kurashuvchi birorta tuzilmaning mavjud bo‘lmaganligidan dalolat beradi.

1914-yil 11-iyunda Toshkent shahar Dumasi shahar o‘t o‘chirish jamoatchilik komandasi tarkibini tasdiqlaydi. Unga ko‘ra, komanda 14 kishidan (brandmeyster – o‘t o‘chiruvchi, yong‘in sardori va uning yordamchisi, 2 nafar quvurchi – yong‘in so‘ndiruvchi, 2 ta yong‘in moslamasiga javobgar, 2 nafar suvoriy, 1 nafar suv to‘plovchi, 4 nafar ot haydovchi va 1 ta oshpaz) iborat bo‘lib, o‘t o‘chirish aravasi uchun 10 ta ot ham ajratilgan.

Mazkur shtat tarkibining borgan sari oshirib borilishi ko‘zda tutilgan. Bu o‘t o‘chirish komandasi shaharning eski va yangi qismidagi yong‘inlarni o‘chirishga xizmat qilishi kerak bo‘lgan. Ularning xizmat vazifalarini qonuniylashtirish maqsadida, Harbiy vazirlik tomonidan yong‘inlarning oldini olish va bartaraf etishda o‘t o‘chirish jamoatchilik komandasining vazifalari hamda qoidalari tasdiqlandi (1914-yil 14-oktabr) [30]. Ma‘lumotlarda keltirilishicha, 1914-yil 21-iyun kuni Kaufman skveri, Pushkin ko‘chasida ertalab soat 6-8 lar orasida yong‘in sodir bo‘lgan va uni bartaraf etishda Toshkent o‘t o‘chirish komandasi brandmeysteri va a‘zolari jonbozlik ko‘rsatishgan [31].

Shu o‘rinda qayd etish lozimki, arxiv hujjatlari va tarixiy adabiyotlarda bu kabi misollarni yana ko‘plab uchratish mumkin. O‘lkada Sovet hokimiyati o‘rnatilganidan so‘ng, 1918-yilning 17-aprelida hukumat tomonidan “Yong‘inga qarshi kurashning davlat choralarini tashkil etish to‘g‘risida”gi Dekretning qabul qilinishi bilan sovetlarning yong‘in xavfsizligi xizmati sohasiga asos solindi [32].

Xulosa qilib aytganda, Turkiston o‘lkasi Rossiyasi imperiyasi tomonidan bosib olingandan so‘ng, paxtachilik sohasining yanada rivojlantirilishi natijasida paxtani qayta ishlashga mo‘ljallangan bir qator sanoat korxonalari qurildi. Zavod va

fabrikalarning qurilishi barobarida o'lkada tez alanganuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan sanoat korxonalari ham ochila boshladi. Natijada, joylarda yong'inlar sonining yildan-yilga keskin ko'payish holatlari kuzatildi. Biroq, Turkiston general-gubernatorligi hukumati tomonidan o'lkada yong'in xavfsizligini ta'minlash masalalariga yetarli darajada e'tibor qaratilmadi, yong'inga qarshi xavfsizlik borasida kerakli chora-tadbirlar belgilanmadi.

Keyinchalik imperiya ma'murlari iqtisodiy omillar va moddiy boyliklarni asrash ehtiyoji tufayli yong'inlarning oldini olish masalalariga ma'lum darajada e'tibor qaratib, natijada, o'lkada ko'ngilli tarzda o't o'chirish jamiyatlari va komandalari tuzildi. Lekin, bu ishlar o'lkaning turli hududlarida sodir bo'lgan yong'inlarni bartaraf etish uchun yetarli emas edi. Sababi, ushbu jamiyat va komandalar moddiy va texnik jihatdan Turkiston general-gubernatorligi hukumati tomonidan ta'minlanmadi hamda ularning faoliyati qo'llab-quvvatlanmadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muzaffarov U., Reimboyev R., Rahmatov L., Bahronov D., Doschanov M. 25 yil: sharaf, mahorat va mardlik maktabi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2018-yil. 28-32-betlar.
2. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. – Toshkent. Sharq, 2000-yil.
3. Abdurasulov M. Sharq gavharining durdonasi // Yong'in xavfsizligi. 9 (85), 2012-yil. 41-bet.
4. To'xtayev S. Qadim Buxorodagi o't o'chirish manbalari – hovuzlar, ilk o't o'chiruvchi-meshkoblar. Shahar tarixidan ayrim sahifalar // Yong'in xavfsizligi. 10 (98). 2013. – 33-b.
5. Isakov D. Ko'hna shahar taraqqiyoti yo'lida. Yong'in xavfsizligi – Пожарная безопасность. Ixtisoslashtirilgan amaliy ilmiy-texnikaviy jurnal. – Toshkent, 9 (85), 2012-yil. 39-40-bet.
6. Yong'in xavfsizligi: xizmat yillarida. – Toshkent, 2011-yil. 95-bet.
7. O'zRMA, 90-jamg'arma, 10-ro'yxat, 4457-ish, 128-130-varaqlar.
8. O'zRMA, I-1-jamg'arma, 11-ro'yxat, 1612-ish, 23-varaq.
9. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi joriy Arxivi. Yong'indan saqlash boshqarmasi ichki ishlar xizmatchilarining xalq osoyishtaligini qo'riqlash yo'lidagi xizmatga oid hujjatlari.
10. Saidov S.S., Sharipov H.M va b. Buxoro yong'in xavfsizligi: o'tmish va bugun. 19-20-bet.
11. O'zR MDA, 1-jamg'arma, 5-ro'yxat, 351-ish, 1-2-varaqlar.
12. Toshkent. Ensiklopediya. – Toshkent. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009-yil. 207-bet.
13. O'zR MDA, I-1-jamg'arma, 12-ro'yxat, 198-ish, 1-varaq.
14. Туркестанские ведомости. 29 декабря 1903 г.
15. O'zRMA, I-7-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3702-ish, 45-varaq.

16. O‘zRMA, I-7-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 3702-ish, 35-varaq.
17. O‘zRMA, I-7-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 3702-ish, 58-varaq.
18. Большой пожар в Ташкенте. // Туркестанские ведомости. 1912 год. № 134. С. 2.
19. Два пожара в Ташкенте. // Туркестанские ведомости. 1912 год. № 139. С. 3; Пожара на заводе Иванова в Ташкенте. // Туркестанские ведомости. 1912 год. № 206. С. 3.
20. Подробности пожара в Чиназе. // Туркестанские ведомости. 1912 год. № 265. С. 2.
21. O‘zRMA, I-1-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 11-ish, 1-varaq.
22. O‘zRMA, I-1-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 3702-ish, 55-varaqning orqasi-56-varaqlar.
23. Ташкентская пожарная команда. // Туркестанские ведомости. 1914 год, 12 ноября. № 105. С. 5.
24. Пожары на Пушкинской улицы. // Туркестанские ведомости. 1914, 22 июня. № 137. С. 4.
25. Postda. 1969-yil, 16-aprel. № 31 (1936).
26. Postda. 1969-yil, 16-aprel. № 31 (1936).
27. Postda. 1969-yil, 16-aprel. № 31 (1936).
28. Postda. 1969-yil, 16-aprel. № 31 (1936).
29. Postda. 1969-yil, 16-aprel. № 31 (1936).
30. Postda. 1969-yil, 16-aprel. № 31 (1936).
31. Ташкентская пожарная команда. // Туркестанские ведомости. 1914 год, 12 ноября. №105. С. 5.
32. Ташкентская пожарная команда. // Туркестанские ведомости. 1914 год, 12 ноября. №105. С. 6.



UO‘K- 3318 (575)

## ISHLAB CHIQUARISH CHANGI: ATROF-MUHITGA VA INSON ORGANIZMIGA TA’SIRLI OMILLARINING TAHLILI

*Maxmatqulov Nurilla Imomovich*  
*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti kafedra dotsenti*  
*E-mail: n.mahmatqulov@mail.ru*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tabiat hodisalaridan biri bo‘lgan chang haqida bayon etilgan bo‘lib, uning tarkibiy tuzilishi, ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lgan changlar atrof-muhit va tirik organizmga ta’sir darajasi tahlil qilingan bo‘lib, chang keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan xavfli va zararli omillar bayon etilgan. Bundan tashqari, changdan himoyalani chora-tadbirlari va chang miqdorini aniqlash usullari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** chang, gaz, suyuqlik, tabiiy ofat, ishlab chiqarish, organizm, atrof-muhit, surunkali kasallik, aerosol, aerogel, pnevmokonioz, silikoz.

## АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ВОЗДЕЙСТВИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ПЫЛИ НА ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ И ОРГАНИЗМ ЧЕЛОВЕКА

*Махматкулов Нурилла Имомович*

*доцент кафедры Каршинского инженерно-экономического института*

*E-mail: n.mahmatqulov@mail.ru*

**Аннотация:** В данной статье дается представление о пыли как об одном из природных явлений, ее структурном строении, анализируется степень воздействия пыли на окружающую среду и живой организм, связанные с производством, описываются опасные и вредные факторы, которые может вызвать пыль. Кроме того, перечислены меры защиты от пыли и методы количественного определения пыли.

**Ключевые слова:** пыль, газ, жидкость, стихийное бедствие, производство, организм, окружающая среда, хроническое заболевание, аэрозоль, аэрогель, пневмокониоз, силикоз.

## ANALYSIS OF THE IMPACT FACTORS OF PRODUCTION DUST ON THE ENVIRONMENT AND THE HUMAN ORGANISM

*Makhmatkulov Nurilla Imomovich*

*Associate Professor of the Department of Karshi Engineering and Economics Institute*

*E-mail: n.mahmatqulov@mail.ru*

**Abstract:** This article gives an idea of dust as one of the natural phenomena, its structural structure, analyzes the degree of impact of dust on the environment and a living organism associated with production, describes the dangerous and harmful factors that dust can cause. In addition, dust protection measures and methods for quantifying dust are listed.

**Keywords:** dust, gas, liquid, natural disaster, production, organism, environment, chronic disease, aerosol, airgel, pneumoconiosis, silicosis.

**Kirish.** Ma'lumotlarga qaraganda, har 1 m<sup>3</sup> havo tarkibini katta shahar hududlarida 6000 m<sup>3</sup> atrofida, avtomobil vositalaridan ajraladigan qurum va tutunlarni ham qo'shib hisoblaganda 30000 m<sup>3</sup> atrofida har xil kattalikdagi chang zarralari tashkil etar ekan. Dalalar va bog'larda bu miqdor 10 marta kamaysa, tog'li hududlarda esa undan ham kamroq chang zarralari uchraydi.

Ishlab chiqarishdagi ko'pgina jarayonlar turli xil tarkibdagi chang va gazlarning ajralib chiqishi bilan amalga oshadi. Shu sababli, sof toza havo deyarli uchramaydi va havo tarkibida hamisha ma'lum miqdorda (1m<sup>3</sup> toza havo tarkibida 0,25 mg.dan 10 mg.gacha) changlar bo'ladi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, chang va uning tarkibiy qismini o'rganish orqali uning tirik tabiatga ta'sirini o'rganish metodologiyasini ishlab chiqish mumkin.

**Adabiyotlar sharhi.** Ishlab chiqarishdagi changlarning atrof-muhitga va inson organizmiga ta'sirini mehnat muhofazasi va sog'liqni saqlash, sanitariya epidemiologiya fanlari orqali o'rganib, uning salbiy oqibatlarini minimallashtirish metodlarini tatbiq etishimiz mumkin. Bu sohada, tiklanish davrida buyuk, taniqli olim Paratsels (1493-1541-yillar) tog' ishlarini bajarishda yuzaga keladigan xavfli chang faktorlarni o'rganib chiqqan. U o'z asarlarida: “Barcha moddalar zahardir va barcha moddalar dori-darmon hamdir. Faqat bir me'yor ushbu moddani zaharga aylantirsa, ikkinchi me'yor esa uni dori-darmonga aylantiradi”, deb yozadi.

Nemis olimi Agrikol (1494-1555-yillar) o'zining “Tog' ishlari haqida” asarida, shuningdek, italyan olimi Ramatssin (1633-1714-yillar), rus olimi M.V.Lomonosov (1711-1765-yillar) o'z asarlarida mehnat muhofazasi masalalariga katta e'tibor qaratishgan. Bundan tashqari, V.L.Kirpichyev (1845-1913-yillar), A.A.Bess (1857-1930-yillar), D.R.Nikolskiy (1855-1918-yillar), V.A.Levitskiy (1867-1936-yillar), A.A.Skochinslay (1874-1960-yillar), S.L.Kaplun (1897-1943-yillar), buyuk tabib Abu Ali ibn Sino insonda turli sabablar natijasida changdan kelib chiqadigan kasalliklarni davolashda, buyuk olim Abu Rayhon Beruniy esa atrof-muhit omillari odamlar sog'ligiga ta'sirini o'rganishda juda katta amaliy va nazariy ishlarni amalga oshirishgan.

Vatanimiz olimlaridan O.Q.Qudratov yengil sanoat sohasida, T.I.Iskanderov mehnat gigiyenasi sohasida, O.R.Yo'ldoshev va G'.Yormatovlar sanoat va qurilish sohasida, H.E.G'oyipov qishloq xo'jaligi sohasida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi masala va muammolarini yechishda chuqur nazariy va samarali amaliy ishlar olib borishgan. Ushbu tadqiqotlarda yuqorida sanab o'tilgan olimu tadqiqotchilarning ilmiy asrlari va tadqiqot ishlaridan foydalanildi.

Changlarning atrof-muhitga va inson organizmiga ta'sirini ko'rib chiqishdan oldin uning tarkibiy tuzilishi haqida to'xtalib o'tamiz. Chunki, uning tarkibiy tuzilishini o'rganmasdan, xavfli va zararli ta'sir darajasi haqida tushunchaga ega bo'lmasdan, tadqiqot metodikasini ishlab chiqish amalda imkonsiz.

Chang (aerazol) – havoda bir muddat suzib yuruvchi (harakat qiluvchi) qattiq jismlarning maydalangan yoki boshqacha tarzda olingan mayda zarralaridir. Bunday suzish havoning o‘z harakati ta’sirida, bu zarrachalar (chang zarralari)ning kichik o‘lchamlari tufayli yuzaga keladi [1].

Havoda uchib yurgan chang aerazol, yuzaga cho‘kkani esa aerogel deb ataladi. Chang faqat inson organizmiga doimo ta’sir etib, kasbiy kasalliklar kelib chiqishiga omil bo‘lib qolmasdan, balki ishlab chiqarish texnologiyalari va jihozlarining muddatidan oldin buzilishi, mahsulot sifati pasayishi va ishlab chiqarish hududida sanitariya-gigiyenik holatning yomonlashishiga olib keladi. Changlar hosil bo‘lishiga ko‘ra:

tabiiy changlar – inson faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda hosil bo‘ladi. Bunday changlarga shamol va kuchli bo‘ronlar ta’sirida qum va tuproqlardagi yemirilgan qatlamlar uchishi hamda o‘simlik va hayvonot olamida paydo bo‘ladigan changlar, vulqonlar otilishi natijasida yuzaga keladigan changlar va kosmosdan keladigan changlar kiradi;

sun’iy changlar – sanoat korxonalari va qurilishlarda insonning bevosita yoki bilvosita ta’siri natijasida hosil bo‘ladi. Shuningdek, sanoatning ba’zi bir tarmoqlarida, masalan, kimyo sanoatida xavfli sanoat changlari ajralib chiqadi, ularning chiqarib yuborilishi fojiali holatlarni vujudga keltiradi.

Changlar ko‘rinishi va tarkibiga bog‘liq holda quyidagi guruhlariga bo‘linadi: organik, noorganik (mineral) va aralash changlar. Changlar tuzilishiga ko‘ra qattiq, suyuq va gazsimon holatda bo‘lishi mumkin. Changlar shakli bo‘yicha uch turga bo‘linadi:

ko‘zga ko‘rinuvchi changlar – chang zarrachalari o‘lchami 10 mkm.dan katta bo‘lib, ular o‘z og‘irligi bilan bimalol cho‘ka oladi; mikroskopik changlar. Ularning o‘lchami 0,25 - 10,0 mkm. atrofida bo‘lib, yerga asta-sekinlik bilan cho‘kishi mumkin;

ultra mikroskopik changlar. Bularning o‘lchami 0,25 mkm.dan kichik bo‘lib, havoda muallaq suzib yuradi va ularni elektron mikroskoplar yordamida ko‘rish

mumkin.

Changlar kimyoviy va fizikaviy xossasi bo'yicha ikki turga bo'linadi:

organik changlar (yog'och, ko'mir, torf, paxta, pilla, qog'oz va boshqa xomashyolarga ishlov berish paytida hosil bo'ladigan changlar, shuningdek o'simliklar va hayvonlar harakati tufayli tuproqdan chiqqan changlar);

noorganik (turli qattiq moddalar, minerallar va metallardan ajralib chiqadigan changlar). Organik va noorganik changlarning birgalikda hosil bo'lishi aralash changlar deb ataladi.

**O'tkazilgan tadqiqotlar va ularning muhokamasi.** Chang inson organizmiga nafas yo'llari va oziq-ovqat iste'moli orqali kiradi. Uncha ko'p bo'lmagan miqdordagi zaharli moddalar (qo'rg'oshin, simob changi)ning uzoq vaqtli ta'siri uzluksiz kasbiy zaharlanishga olib kelsa, uning katta miqdori o'tkir zaharlanishga sabab bo'ladi. Ko'pgina zaharli moddalar harorat oshishi bilan suyuq holatdan bug' va gaz holatiga o'songina o'tadi va shu ko'rinishda nafas olish organlari orqali inson organizmiga tushadi [2].

Changning inson organizmiga zararli ta'sir darajasi – yutilgan chang miqdori, uning o'lchami, shakli, kimyoviy tarkibi va eruvchanligiga bog'liq bo'lib, natijada nafas olish organlari, ovqatni hazm qilish organlari, ko'z, teri va boshqa organlar turli darajada kasallanishi mumkin. Shularning ichida eng xavflilari o'pka silikozi, ko'z qorachig'i xiralashishi, ko'zda oq parda hosil bo'lishi, teri yallig'lanishi, qichima va boshqa teri kasalliklarini keltirib chiqarishi mumkin.

Changlar ichida kremniy va uning birikmalarining changi eng xavfli hisoblanadi. Jumladan, kremniy oksidi skvars, silikat changlari, ba'zi bir metallar (alyuminiy va boshqalar)ning changlari va ularning aralashmalari erimaganligi sababli, nafas olish tizimlarida tutilib qoladi va alyuminoz kasalligini yuzaga keltiradi. Eriydigan changlar nafas yo'llarida tutilib so'rilsa va qon tomirlarida, ular kimyoviy tarkibiga qarab, organizmda turli xilda ta'sir xususiyatlarini namoyon etadi. Masalan, qand changi zararsiz, qo'rg'oshin, mis va boshqa metallarning changi zaharlovchi ta'sir ko'rsatadi.

Changning zararli ta'siri pnevmokoniozlar deb ataluvchi asab kasalligiga olib keladi. Ular silikoz, silikatoz va boshqa shakllarda namoyon bo'ladi. Silikoz kasalligi juda changli sharoitda, odatda, ko'p yil, ko'pincha og'ir jismoniy ish bajarilganda rivojlanadi. Bu kasallikka tog'-kon, sement va alebaster ishlab chiqarish korxonalarida ko'p yillab ishlayotgan ishchilar chalinishi mumkin.

Silikoz kasalligining dastlabki belgilari holsizlanish, yo'tal, ko'krak qismida og'riq paydo bo'lishidan boshlanadi. Boshlanishida bu belgilar kam sezilarli bo'lib, holsizlanish faqat jismoniy ish bajarganda namoyon bo'ladi. Kasallik kuchaygan davrda nafas yetishmasligi va holsizlanish, oddiy ishlarni bajarganda va hatto tinch holatda turganda ham ro'y beradi.

Pnevmokonioz kasalligi ko'mir, alyuminiy, temir va aralash tarkibli changlar ta'sirida ham rivojlanishi mumkin. Ishlab chiqarishdagi changlar faqat pnevmokonioz yuzaga kelishiga sabab bo'lmay, balki nafas yo'llari, teri va shilliq qavatning boshqa kasalliklarini ham keltirib chiqaradi. Bularga teri hujayralari ko'chishi, har xil toshmalar, ekzema va dermatit kabi kasalliklar kiradi.

Sanoat korxonalaridagi xonalar va ish joylaridagi havo muhitida mavjud bo'lgan changda ishlayotgan xodimlar sog'ligiga xavf solmasligini ta'minlash maqsadida, “Chang miqdorining ruxsat etilgan oxirgi darajasi” (REOD), sanitar-gigiyenik me'yorlari asosida tartibga solinadi. Bularga quyidagi hujjatlar kiradi [3]:

GOST 17.2.3.02 – “Xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari, ularning tavsifi”;

GOST 12.1.005-88 – “Ish hududining havosi. Umumiy sanitariya-gigiyenik talablar”;

SanQvaN 0141-03 – “Ishlab chiqarish muhitidagi ish sharoiti zaharli va xavfli omillari ko'rsatkichi, ish jarayoni og'irligi va kuchlanishi bo'yicha gigiyenik tasnifi”.

1- jadval

#### Ba'zi bir changlarning ruxsat etilgan oxirgi darajasi

| T/r | Moddalar nomi                   | REOD, mg/m <sup>3</sup> | Xavflilik sinfi |
|-----|---------------------------------|-------------------------|-----------------|
| 1   | Alyuminiy va uning qotishmalari | 4                       | 4               |

|   |                                                                                                                                                                                                                                        |   |   |
|---|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|---|
| 2 | Alyuminiyning dezintegratsiya ko‘rinishdagi oksidi                                                                                                                                                                                     | 2 | 4 |
| 3 | Kremniy saqllovchi changlar:                                                                                                                                                                                                           |   |   |
|   | a) kristall kremniy (II) oksidi, kvars, kristobalit, tridimit moddalar changi 70 foizdan yuqori bo‘lganda;                                                                                                                             | 1 | 3 |
|   | b) tumansimon aerazolli ko‘rinishdagi amorf kremniy(II) oksid modda changi 70 foizdan yuqori bo‘lganda;                                                                                                                                | 1 | 3 |
|   | d) kristall kremniy (II) oksid modda changi 10 dan 70 foizgacha bo‘lganda;                                                                                                                                                             | 2 | 4 |
|   | e) kristall kremniy (II) oksid changda 2 dan 10 foizgacha bo‘lganda.                                                                                                                                                                   | 4 | 4 |
| 4 | O‘simlik va hayvon mahsulotlarining changi:<br>10 foizdan ortiq kremniy (II) oksid aralashganda;<br>2 dan 10 foizgacha kremniy (II) oksidi aralashsa;<br>2 foizdan kam kremniy (II) oksidi bo‘lsa<br>2 foizdan ortiq asbest bo‘lganda. | 2 | 4 |
|   |                                                                                                                                                                                                                                        | 4 | 4 |
|   |                                                                                                                                                                                                                                        | 6 | 4 |
|   |                                                                                                                                                                                                                                        | 4 | 4 |
| 5 | Shisha va mineral tola, sement, apatit, tuproq changlari.                                                                                                                                                                              | 6 | 4 |
| 6 | Uglerod changi: neft, slanets, uglerod oksidi.                                                                                                                                                                                         | 6 | 4 |

Havo tarkibidagi chang miqdori aspirator deb nomlanuvchi sinash jihozida aniqlanadi. Buning uchun changli havo taxminan poldan 1,5 metr balandlikdagi ish joyidan 1-3,5 m va undan ortiq masofalardan namunalar olinib tekshiriladi va tortish usulida havoning hajm birligida, changning og‘irligi mm.da aniqlanadi. Bundan tashqari, changlarning dispersligi ham aniqlanib, u REOD bilan solishtiriladi.

Aspirator rotametri orqali o‘tgan havo miqdorini po‘kak halqaning balandligiga qarab, shu asbobning pasporti orqali aniqlanadi. Reometr asbobi esa so‘rilayotgan havo hajmini o‘zgartirish imkonini beruvchi to‘rtta diafragma bilan ta‘minlangan bo‘ladi. Har bir reometr o‘z shaxsiy pasportiga ega bo‘lib, massalari farqini so‘rib o‘tkazilgan havo hajmiga bo‘lishga asoslangan, ya’ni:

$$C_q = \frac{\Delta m_q}{V_0} \cdot 10^3 = \frac{m_2 - m_1}{V_0} \cdot 10^3, \quad (1)$$

bunda:  $\Delta m_q$  – havodagi chang miqdori, mg;  $m_1$  – filtrning tajribadan oldingi massasi, mg;  $m_2$  – filtrning tajribadan keyingi massasi, mg;  $v_0$  – tajribada filtr orqali so‘rib o‘tkazilgan havoning normal sharoitda, ya’ni havo harorati 0 °C va bosim 760 mm.simob ustuniga teng bo‘lganda egallashi mumkin bo‘lgan hajmi, litr.

Ishlab chiqarish muhitida chang hosil bo‘lishi va uning inson organizmiga zararli

ta'sirini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

texnologik chora-tadbirlar – birinchi navbatda, texnologik jarayonlarni takomillashtirish, ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, shuningdek ishlab chiqarish uskunalari muhrlash;

sanitariya-gigiyenik chora tadbirlar – chang miqdorini kamaytirishga qaratilgan bo'lib, dezinfektsiya, degazatsiya va dezaktivatsiya ishlarni olib borish, shuningdek mahalliy shamollatish;

tibbiy-profilaktik chora tadbirlar – O'zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonuni 9-moddasiga binoan, sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlikda xodimlarni majburiy dastlabki va davriy tibbiy ko'rikdan o'tkazishishni majburiy qilib belgilash.

Dastlabki tibbiy ko'rik bo'lajak xodimning organizmidagi mavjud kasalliklar, kasbi bilan bog'liq xavf ishlab chiqarish sharoitida ahvoli sezilarli darajada yomonlashishi mumkinligini aniqlasa, davriy tibbiy ko'rik esa xodimlarning kasbi bilan bog'liq organizmida rivojlanayotgan o'tkir yoki surunkali kasalliklarning oldini olishga qaratiladi.

**Xulosa.** Texnosferadagi changning atrof-muhit va tirik tabiatga ta'siri nechog'li xavfli ekanligi tufayli, chang miqdorini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Buning uchun ishlab chiqarishdagi chang manbalari, uning hosil bo'lish sabablari, ma'lum hajmdagi havoda bo'lgan chang tarkibi va miqdorini hisobga olgan holda, gigiyenik baho berish kerak. Olingan ma'lumotlar asosida ishchilar salomatligini saqlash va sog'aytirish choralari belgilash lozim. Bunday chora tadbirlar Hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan hamda hayotga tatbiq etilmoqda.

Bejizga xodimning hayoti va sog'lig'i ustuvorligini ta'minlash, ularni himoya qiluvchi xavfsiz texnika, texnologiya va vositalarni ishlab chiqish va joriy etish hamda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan jabrlangan yoki kasb kasalligiga chalingan xodimlarni ijtimoiy himoya qilish masalasi mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida belgilangan emas.

Bundan tashqari, mehnat sharoitlari noqulay ishlarda band bo‘lgan xodimlar belgilangan normalar bo‘yicha sut yoki shunga teng bo‘lgan boshqa oziq-ovqat mahsulotlari, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan tuzli suv, maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal hamda boshqa shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan bepul ta‘minlanadi. Ular bilan ta‘minlash tartibi va shartlari jamoa shartnomalari hamda kelishuvlarida belgilanadi [5].

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Sanitariya nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni /O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. –T.: “Adolat”, 2006-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2015-yil.
3. GOST 17.2.3.02 – “Xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari, ularning tavsifi”.
4. GOST 12.1.005-88 – “Ish hududining havosi. Umumiy sanitariya-gigiyenik talablar”.
5. SanQvaN 0141-03 – “Ishlab chiqarish muhitidagi ish sharoiti, zaharli va xavfli omillar ko‘rsatkichi, ish jarayoni og‘irligi va kuchlanishi bo‘yicha gigiyenik tasnifi”.
6. QMQ II-89-80 – “Sanoat korxonalarining bosh rejası”.
7. QMQ 2.09.02-85 – “Ishlab chiqarish binolari”.
8. Mannonov Y.O., Mavlonov K.G. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi. Darslik. –“ILM ZIYO”, 2015-yil. 347 bet.
9. Yormatov G‘., Isamuhamedov Yo. Mehnatni muhofaza qilish. Darslik. – T.: “O‘zbekiston”, 2002. 384 bet.
10. Xolbayev B.M., Raximov O.D., Maxmatqulov N.I. “Hayot faoliyati xavfsizligi”. Darslik. – QarMII. “Vorıs-nashriyot”, 2020. 304 bet.
11. Ibragimov E.I., Gazınazarova S., Yuldashev O.R. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. – Toshkent, 2014. 535 bet.
12. Tojiyev M.X., Nigmatov I. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Tafakkur bo‘stoni”, 2012. 272 bet.
13. Maxmatqulov. G.R. Murtazayeva, I.T. va b. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Vorıs-nashriyot”. 2024. 397 bet.
14. Maxmatqulov N.I. Matematik modellashirish asosida texnosfera xavfsizligini baholash // Monografiya. – T.: “Vorıs-nashriyot”, 2022. 166 bet.
15. Maxmatqulov N.I., Mamatov N.Z. Mehnat muhofazasi va xavfsizlikni boshqarish tizimini takomillashtirish // Monografiya. 2024. 120 bet.
16. Луковников А.В., Шкрабак В.С. Охрана труда. Учебник. – М.: «Агропромиздат», 1991. 319 стр.
17. Карнаух Н.Н. Охрана труда. Учебник для прикладного бакалавриата. – М.: Издательство Юрайт, 2014. – 380 стр.
18. www.ziyo.edu.uz – Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi sayti.
19. www.minzdrav.uz – Sog‘liqni saqlash vazirligi sayti.
20. www.standart.uz – Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi sayti.
21. www.ish.mehnat.uz sayti.



УДК: 821.161.1

## ОБРАЗ ГЛАВНОГО ГЕРОЯ ПОВЕСТИ С.БАБАЯНА «БЕЗ ВОЗВРАТА. (НЕГЕРОЙ НАШЕГО ВРЕМЕНИ)»

*Эгамбердиева Гузал Мадияровна*  
 профессор кафедры Университета общественной безопасности Республики Узбекистан  
 кандидат филологических наук  
 E-mail: egamberdiyeva.g.m@gmail.com

**Аннотация.** В данной статье анализируется образ главного героя повести С.Бабаяна «Без возврата (Негерой нашего времени)», рассматриваются литературные приемы, при помощи которых автор описывает своего героя: авторские отступления, лирико-публицистические отступления, вставные эпизоды, сравнения, размышления героя, цитирование, самоирония.

**Ключевые слова:** современная литература, повесть, герой нашего времени, негерой, маргинал, современная действительность.

## S. BABAYANNING “QAYTISHSIZ (BIZNING ZAMONAMIZ QAHRAMONI EMAS)” HIKOYASINING BOSH QAHRAMONI OBRAZI

*Egamberdiyeva Guzal Madiyarovna*  
 O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra professori  
 filologiya fanlari nomzodi  
 E-mail: egamberdiyeva.g.m@gmail.com

**Annotatsiya:** ushbu maqolada S.Babayanning “Qaytishsiz (Bizning zamonamiz qahramoni emas)” qissasi bosh qahramonining obrazi tahlil qilinadi, muallif o‘z qahramonini tasvirlaydigan adabiy uslublar – muallifning chekinishi, lirik-publitsistik chekinishlar, kiritilgan epizodlar, taqqoslashlar, qahramonning mulohazalari, iqtiboslar. ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** zamonaviy adabiyot, hikoya, zamonamiz qahramoni, qahramon emas, marginal, zamonaviy voqelik.

## THE IMAGE OF THE MAIN CHARACTER OF S. BABAYAN’S STORY “NO RETURN (NOT A HERO OF OUR TIME)”

*Egamberdiyeva Guzal Madiyarovna*  
 professor of the department of the University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan  
 candidate of philological sciences  
 E-mail: egamberdiyeva.g.m@gmail.com

**Abstract:** This article analyzes the image of the main character of S.Babayan’s story “No Return (Not a Hero of our Time)”, examines the literary techniques by which the author describes

*his hero: author's digressions, lyrical and journalistic digressions, insertion episodes, comparisons, hero's reflections, quoting, self-irony.*

**Keywords:** modern literature, novel, hero of our time, not a hero, marginal, modern reality.

**Введение.** Повесть Сергея Бабаяна «Без возврата (Негерой нашего времени)» посвящена судьбе русской интеллигенции в переломные 90-е годы XX столетия. Это время, когда духовный вакуум царил в российском обществе, когда сознание людей переформатировалось, когда духовные ценности пересматривались, когда зарождалось общество дельцов и потребителей, когда ценность человека приравнена к вещи. Именно в этот период люди умственного труда превратились в маргиналов, ощутив свою никчемность и ненужность.

Следует отметить, что участь интеллигенции в переходные моменты истории одна из излюбленных тем в русской словесности. К ней обращались многие писатели XIX и XX веков (А.С.Пушкин, М.Ю.Лермонтов, Л.Н.Толстой, М.А.Булгаков, Б.Л.Пастернак, А.Толстой). Продолжая русскую классическую традицию, С.Бабаян создает героя, в образе которого воплощен травматический опыт советского интеллигента, который оказался в чужеродной среде.

**Анализ литературы по теме.** Повесть С.Бабаяна «Без возврата (Негерой нашего времени)» была опубликована в 2001 году в журнале «Континент». В том же году она стала первым победителем литературной премии – «Премии Ивана Петровича Белкина», и тем самым привлекло внимание литературоведов. Д.А.Крутиков в своей статье «Нравственная проблематика повести С.Г.Бабаяна «Без возврата (Негерой нашего времени)» [2] рассматривает нравственную проблематику повести в свете социальных, семейно-бытовых, психологических проблем. Повесть С.Г.Бабаяна важна, по мнению автора, не только в литературоведческом аспекте, но и в педагогическом. Автор статьи успешно апробировал повесть в студенческой аудитории и рекомендует для изучения в системе среднего и высшего образования.

Тараненко Н.В. анализирует тему повести и определяет ее как «тема поиска и раскрытия основных особенностей героя времени» [3]. В ходе своего

анализа автор рецензии приходит к выводу: «Персонаж не может вписаться в современный мир, потому что умён, сложен, при этом не уверен в себе. Созданный герой поражает своей пассивностью, своим бездействием. Он всё про себя понимает, но ничего не предпринимает для того, чтобы быть среди людей. Такие герои встречались в русской литературе раньше, для современной литературы такой герой типичен» [3].

Так же нами была проанализирована повесть в статье «Негерой времени...», где мы определяем, что темы «маленького человека» и «судьба русского интеллигента» актуализированы синтезом социокультурных перемен в обществе.

**Методологии исследования.** При изучении повести С.Бабаяна «Без возврата (Негерой нашего времени)» мы использовали сравнительно-сопоставительный метод, а также филологический анализ текста.

**Анализ и результаты.** В первой части повести в качестве экспозиции дана общая характеристика героя. Причем данное описание представлено на фоне авторских размышлений о бытии и сознании, картин действительности 90-х годов XX века и примет зарождающегося общества потребителей. В частности, изменившееся сознание Андрея Ивановича обусловлено перевернувшимся бытом: *«Он получал меньше дворника, меньше охранника, меньше уборщицы, меньше продавца, – трудно было найти человека, который получал бы меньше его, хотя такие люди, конечно, были»; «Он был не жаден и не завистлив в душе по воспитанию и натуре, но бедность вынуждала его быть жадным в поступках»* [1].

Следует отметить, что главный герой Андрей Иванович Стрельцов, представлен как *«невысокий, худой и весь какой-то белесоватый – как будто выгоревший – мужчина»* [1]. В данной характеристике, сравнение, *«будто выгоревший»*, создает двоякое впечатление: с одной стороны – это немолодой человек, а с другой – дана психологическая черта: *«выгоревший»*, как физическое

и эмоциональное состояние.

Математик по образованию, тридцатисемилетний Стрельцов представляет собой собирательный образ советского интеллигента, воспитанного на русской и мировой классике, идеях социализма и приоритета науки над другими сферами жизни. Данный образ конструируется несколькими способами: либо рефлексиями героя, философскими отступлениями автора, либо отсылками к цитатам Маркса, либо перебивками в скобках, в которых представлены те или иные признаки зарождающегося общества потребителей, либо самоиронией героя, реализованной посредством цитат, отрывков из мировой классической литературы.

Например, герой *«был убежден, что всем ходом своей истории человечество обязано исключительно научному прогрессу»* [1]. Данная позиция зиждется на мышлении эпохи Модерна, царствовавшего в XX веке, когда люди науки и искусства считались носителями истины, и их слову безоговорочно доверяли. В эпоху Постмодерна все авторитеты свергнуты и *«в условиях рынка... Андрей Иванович, есть никому не нужная, бесполезная тварь»* [1].

Трагедия одиночества, ненужности и неприкаянности – ведущий мотив данной повести. Необходимо подчеркнуть, что фамилия героя – Стрельцов, восходящая ко временам Ивана Грозного (XVI век). Иными словами, автор апеллирует к его русскому происхождению, тем более имя Андрей, а отчество Иванович есть отсылка к героям русской классики (Андрей Болконский, Андрей Иванович Тентетников, Андрей Иванович Штольц и др.).

Если Андрей Болконский – мыслящий человек, находившийся в постоянном поиске истины, смысла своего существования, Штольц целеустремленный, прагматичный, неунывающий деятель, а Тентетников – апатичный, слабохарактерный, отказывающийся от реального мира герой, то Стрельников – это рефлексирующий герой, глубокая натура, выбитый из колеи под грузом социальных проблем. Иными словами, это герой-интеллигент,

превратившийся в маргинала не по собственной воле, а по стечению обстоятельств.

Помимо этого, автор создает типажи современных людей. В частности, образ мальчишки лет двадцати пяти олицетворяет жулика и дельца 90-х годов *«длинноголовый, со стандартно-энергичным лицом, стриженный под гребенку, в узеньком черном галстуке и белой рубашке с закатанными рукавами»* [1].

Следует отметить, что мысли Андрея Ивановича отражены параллельно изображенным картинкам. Так, свою никчемность он чувствует, сопоставляя себя с механиками у трансформаторной будки *«Счастливые люди, – с тоскою подумал он. – Они умеют чинить машины, они нужны...»* [1].

Реалии и события 90-х годов: безработица, разделение на богатых и бедных, русско-чеченские войны, расстрел парламента, беззаконие, политическая нестабильность, разобщенность общества – представлены как философские размышления о жизни и общественном устройстве через призму глубокого разочарования народом и жизнью вообще.

Если первые философские отступления тесно связаны с динамикой политических и социальных перемен в России, то последние иллюстрируют авторские умозаключения о природе убийства, о природе человека. Вторая часть повести заканчивается рассуждениями о русской интеллигенции посредством сравнения чувств Андрея Ивановича и русской интеллигенции начала XX века. Время в данной части то сужается до периода 90-х годов, то расширяется от начала XX века до сталинской эпохи.

Обилие внесюжетных элементов композиции (лирико-публицистических отступлений, вставных эпизодов и т.д.) передает не только масштаб поднимаемых проблем, но и позволяет показать движение авторской мысли от частного к общему, что в итоге выпукло раскрывает художественную идею повести: самое страшное для человека остаться одиноким, ненужным, бесполезным.

Если во второй части весь круг социальных и политических проблем были освещены при помощи композиционных приемов сравнения, где чувствовалась открытая декларация автора своих идей, что позволяет воспринимать ее как публицистическую, то в 3 части акцент на внутреннем мире героя, на его попытки осмысления себя, своей жизни, своего места обусловил введение различных форм психологизма (рефлексии, внутренний монолог, поток сознания и т.д.).

В 3 части повести размышления героя сосредотачиваются на себе, на своей жизни. *«Вся жизнь насмарку, – горько, устало подумал Андрей Иванович. – Машины нет, дачи нет... Работа стоит... могут и сократить»*; *«вся его жизнь прошла... проходит впустую»* [1]. Герой незаметно для себя начинает осознавать, что он лишний, бесполезный – и в семье – *«Лариса и Настя... он им не нужен»*, *«Всё, что делают и чем интересуются даже близкие ему люди, не просто чуждо, но и дико ему. Да о чем говорить? Они... нет, они, конечно, ему не чужие! – это он им чужой.»*; и на работе – *«Одного из нас сократят.»* [1].

Находка вороненка – значимый эпизод в трансформации героя. Не случайно третья часть заканчивается весьма символически, герой решается на действие: *«Андрей Иванович знал, что за кустами, сейчас невидимая ему, была лужайка с остовом старых качелей... остовом его детства. Он колебался – ну, птица какая-то кричит, – но страх и даже как будто тоска, звучавшие в этих криках, вызвали родственный отклик в его душе – и он, сморщив лицо и зажмурясь, с треском проломился через кусты»* [1]. Стрельцов из созерцателя, бездействующего философа, пассивного аналитика, благодаря вороненку начинает действовать.

Процесс спасения птенца представлен в четвертой части повести, которая реализована в героико-романтическом ключе; бой с котом, борьба с самим собой, спор с краснолицым мужиком. Данная часть фактически кульминационная, герой проявляет все свои человеческие качества, начало внутренней

трансформации проявляется через внешние нестандартные действия героя: «... бросился между хищником и его жертвой», «... в нем самом вспыхнула ярость – и на эту кровожадную тварь... хозяина жизни! – и на подобных ему, и на себя, на миг спасовавшего перед ними, – и он решительно пошел на кота», «Он не любил ворон – это были грязные, нахальные, шумные птицы, а иногда – например, видя, как вороны терзают крысиный труп, – испытывал к ним отвращение; но здесь была не ворона, а беспомощный, слабый птенец, и Андрею Ивановичу было жалко птенца...» [1].

Следует отметить, что VII часть повести одна из значимых, в ней автор раскрывает два отношения к жизни: индивидуалистско-потребительское и альтруистское. Именно альтруизм есть отличительная черта интеллигенции, равнодушие и боль из-за злодейств, происходящих в мире. Спор с четой Евдокимовых есть противопоставление жизненных ценностей: «все вокруг были заняты только работой, детьми, покупками, здоровьем, развлечениями, телевизионными сплетнями, – всем было решительно наплевать и на убийства, и на бездомных, и на стариков, и на войну»; – «Несчастные не мы, а эта страна дураков, где торгаш ценится дороже ученого! Прохвостов сеять не надо, они сами родятся: вон, капитализму еще десяти лет нет, а чубайсы и березовские уже с миллионами. Этого... добра предостаточно, но в мире сейчас всё определяет наука, технологии, – а ученого надо вырастить!» [1].

Примечательно то, что и Евдокимовы, и жена Лариса – представители интеллигенции. Тяготение интеллигенции к индивидуализму, оправдание этой жизненной концепции, обмельчание людей умственного труда – вот главная трагедия российского общества. Не случайно Стрельцов одинок, альтруисты в новом обществе не нужны. Причем автор далек от мысли создания положительного героя, за которым правда. Стрельцов неоднозначен в своих мыслях, и поступках: «Вы пальцем не желаете пошевелить, только кричите: ах какие мы несчастные, нам мало платят!» [1] – это обвинение Ларисы вполне

справедливо. Андрей Иванович – это герой, который только наблюдает, но не действует и в этом его трагедия. Опека над вороненком – это первый шаг к действию, к пониманию себя. Стрельцов делает выбор, остается с птенцом, ему важно заботиться о том, кому по-настоящему нужен.

**Заключение и предложения.** Главный герой повести как «лишний человек» с мятущейся душой, который по воле обстоятельств слился с «маленьким человеком». Следует отметить, его маргинальность и хроническую нравственную недостаточность. Об это намекает и название повести Сергея Бабаяна «Без возврата. Негерой нашего времени». В повести явно видно, что автор хочет найти истину в условиях изменившегося общества, пытается ответить на сложнейшие вопросы бытия, поставить диагноз обществу и интеллигенции в частности.

Не случайно для Андрея Ивановича Идеальная формула жизни – это «Жить надо так, чтобы от твоего присутствия мир становился хоть чуточку лучше» [1]. Герой остается верным этому жизненному кредо, и забота о вороненке способ сделать жизнь лучше. Финал повести неоднозначный: с одной стороны Стрельцов остался без семьи, забросил математику, «работает охранником в детской поликлинике» [1], а с другой – герой спокоен, научился мечтать, он «страшно доволен» [1], он наслаждается жизнью, находя тихие радости в повседневной размеренности.

### Использованные литературы:

1. Бабаян С. Без возврата. (Негерой нашего времени). / Континент. №108, 2001. <https://magazines.gorky.media/continent/2001/108/bez-vozvrata-negeroj-nashego-vremeni.html>.
2. Крутиков Д.А. Нравственная проблематика повести С. Г. Бабаяна «Без возврата (Негерой нашего времени)» // Вопросы журналистики, педагогики, языкознания. 2016. №21 (242). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nravstvennaya-problematika-povesti-s-g-babayana-bez-vozvrata-negeroy-nashego-vremeni>
3. Тараненко Н.В. Рецензия на повесть С.Г.Бабаяна «Без возврата. Ненастоящий герой». – С. 2. <https://nsportal.ru/shkola/literatura/library/2014/07/03/retsenziya-na-knigu-sbayana-bez-vozvrata-nenastoyashchiy>
4. Эгамбердиева Г.М. «Негерой времени...». / Звезда Востока, Ташкент, 2024. №2. С. 145-147.

5. *Beržaitė D.* О главном герое романов Достоевского (Заметки на полях книги Л. Сараскиной «Достоевский») // *Literatūra*. – 2012. – Т. 54. №. 2. С. 63-74.
6. *Szabó T.* «Кто он, мой главный герой?» принципы конструирования главного героя в романах Л. Улицкой // *Literatūra*. – 2017. – Т. 59. №. 2. С. 122-137.
7. *Ахмедова М.М.* О Процессе трансформации героя (на примере рассказа З.Прилепина «Какой случится день недели») // Проблемы методологии и опыт практического применения синергетического подхода в науке. 2019. С. 39-40.
8. *Березуева А.Э.* Коммуникативный портрет главного героя кинотекстов жанра «Боевик» // Известия Волгоградского государственного педагогического университета. 2010. Т. 46. №. 2. С. 67-71.
9. *Камилова С.Э.* Проблема личности в современном рассказе (на материале русских и узбекских рассказов) // *Austrian Journal of Humanities and Social Sciences*. 2014. №. 11-12. С. 196-199.
10. *Крикливец Е.В.* Повесть в русской и белорусской модернистской прозе второй половины XX века // Ученые записки Новгородского государственного университета. 2021. №. S1 (34). С. 44-48.
11. *Лесевіцкі А.В.* К вопросу о психологическом прототипе главного героя последнего романа А.М Горького «жизнь клима самгина» // Евразийский гуманитарный журнал. 2024. №. 3. С. 56-66.
12. *Мурзахмедова Г.М.* К вопросу о главном герое исторического романа // Известия ВУЗов (Кыргызстан). – 2009. №. 4. С. 309.
13. *Никольский Е.В.* Проблема героя времени в романе Алексея Иванова «Географ глобус пропил» // Пушкинские чтения. 2014. №. XIX. С. 128-136.
14. *Слонь О.В.* Анализ образа героя художественного произведения на уроке литературного чтения в начальной школе // Личность, семья и общество: вопросы педагогики и психологии. 2016. №. 9 (66). С. 11-18.
15. *Хатамова Д.А., Алтундаг М.* К вопросу о термине «художественный образ» // Интернет-пространство как вызов научному сообществу XXI века. 2021. №. 1. С. 43-46.
16. *Чернова С.В.* Художественный образ: к определению понятия // Вестник Вятского государственного университета. 2014. №. 6. С. 109-116.
17. *Шилина К.О.* Поэтика романа В. Маканина «Андеграунд, или Герой нашего времени» (проблема героя) : дис. 2005.
18. *Эгамбердиева Г.* Изобразительно-выразительные средства языка в миниатюрах М. Пришвина // *News of UzMU journal*. 2024. Т. 1. №. 1.2. 1. С. 351-354.
19. *Эгамбердиева Г.М.* Вопрос о своеобразии в образах // Филология и лингвистика. 2018. №. 2. С. 1-4.
20. *Эгамбердиева Г.* Своеобразие мифологического образа пери в узбекских сказках и дастанах // Актуальное в филологии. 2021. Т. 3. №. 3.

UO‘K 323.212

## YANGI O‘ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINING INNOVATSION TARAQQIYOT BILAN O‘ZARO ALOQADORLIGI

*Raxmanov Abdurauf Muxammedovich,  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*E-mail: kamol.maxmudov2020@mail.com*

*O'razbayev Ne'matjon Kamilovich  
O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi kafedra boshlig'i  
tarix fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarga berilayotgan e'tibor, yoshlar tadbirkorligi va bu borada yaratilayotgan shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar, tadbirkorlik va innovatsiya tushunchalarining o'zaro aloqadorligi va mutafakkirlarning bu tushunchalarga bergan ta'riflari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik, innovatsiya, ishbilarmonlik, qadriyat, urf-odat, an'ana, halollik, jamiyat, texnologiya, majburiyat, shartnoma, lokomotiv, ijtimoiy-falsafiy, modernizatsiya, strategiya, klaster, tafakkur.

## ВЗАИМОСВЯЗЬ МОЛОДЕЖНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА С ИННОВАЦИОННЫМ РАЗВИТИЕМ В ПОСТРОЕНИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

*Рахманов Абдурауф Мухаммедович  
доктор философии по философским наукам (PhD)*

*доцент кафедры Ташкентского государственного экономического университета*

*E-mail: kamol.maxmudov2020@mail.com*

*Уразбаев Неъматжон Камилевич  
начальник кафедры Академии МЧС Республики Узбекистан  
доктор философии по историческим наукам (PhD)*

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются реформы, реализуемые в нашей республике в процессе становления Нового Узбекистана, внимание, уделяемое инновационным идеям и технологиям, молодежному предпринимательству и созданным в этом отношении условиям и возможностям, взаимосвязь понятий предпринимательства и инноваций и анализируются мнения мыслителей по поводу определений этих понятий.

**Ключевые слова:** предпринимательство, инновация, бизнес, ценность, традиция, честность, общество, технология, приверженность, контракт, локомотив, социально-

*философский, модернизация, стратегия, кластер, мышление.*

## THE REALITIONSHIP BETWEEN YOUTH ENTREPRENEURSHIP AND INNOVATIVE DEVELOPMENT IN BUILDING A NEW UZBEKISTAN

*Rakhmanov Abdurauf Muxammedovich*

*Associate Professor of the Department of Tashkent State University of Economics,*

*Doctor of Philosophy in Philosophical Sciences*

*E-mail: kamol.maxmudov2020@mail.com*

*Urazbayev Nematjon Kamilovich*

*Head of the Department of the Academy of the Ministry of Emergency Situations*

*of the Republic of Uzbekistan*

*Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD)*

**Annotation.** *This article examines the reforms implemented in our republic in the process of formation of the New Uzbekistan, attention paid to innovative ideas and technologies, youth entrepreneurship and the conditions and opportunities created in this regard, the relationship between the concepts of entrepreneurship and innovation, and analyzes the opinions of thinkers regarding the definitions of these concepts.*

**Keywords:** *entrepreneurship, innovation, business, value, tradition, honesty, society, technology, commitment, contract, locomotive, socio-philosophical, modernization, strategy, cluster, thinking.*

Bugungi davr yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar zamonidir. O‘zbekiston ham o‘z oldiga ilmiy yutuqlarga tayanib, innovatsion iqtisodiyotga o‘tish vazifasini maqsad qilib qo‘ydi. Albatta, Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida ishtirok etayotgan har bir yosh tadbirkorlar, ishbilarmonlar mavjud bilimlari, kasbiy mahorati, tashkilotchilik imkoniyatlari va tajribasiga asoslanib kelajakda, o‘z faoliyati tufayli erishadigan samarali faoliyatini, jamiyatdagi yaratuvchilik o‘rnini tasavvur qilishi lozim.

Yosh tadbirkorlar o‘z faoliyatini innovatsiya talablariga mos ravishda tashkil qilsa, ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni jalb qilgan holda ish olib borsa, bunday faoliyat modernizatsiya, jadal taraqqiyot hamda ijtimoiy yo‘naltirilgan jamiyatni mustahkamlashda muhim ahamiyatga egadir. Bu borada jamiyat hayotida yoshlarning tadbirkorlik faolligini oshirib borish ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlash lozimdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Faol tadbirkorlik biznes faoliyatini innovatsion, ya’ni zamonaviy yondashuvlar, ilg‘or texnologiya va boshqaruv usullari asosida tashkil etadigan yo‘nalishdir.

Faol tadbirkor deganda, biz raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimi, yangi ish o‘rinlari yaratib, nafaqat o‘zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlarni tushunamiz. Bunday tadbirkorlar safini kengaytirish, jumladan yuqori texnologiyalar, ilm-fanning eng so‘nggi yutuqlariga asoslangan texnika va asbob-uskunalarni mamlakatimizga olib kelish va joriy etish uchun ularga munosib sharoitlar yaratish bizning birinchi galdagi vazifamiz bo‘lishi shart. Kerak bo‘lsa, tadbirkorlarimiz xorijdagi yetakchi kompaniya va tashkilotlarda tajriba orttirishi, o‘zaro manfaatli hamkorlik qilishi uchun ularga har tomonlama imkoniyat tug‘dirib berishimiz lozim”[1].

Ushbu mexanizmning huquqiy jihatiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta‘minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq, respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng erkinlik berish, ular faoliyatiga noqonuniy aralashuvni tubdan qisqartirish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va profilaktika samaradorligini oshirish siyosatimizning ustuvor yo‘nalishi va davlat organlarining birinchi darajali vazifasi etib belgilandi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rejadan tashqari va muqobil tekshirishlarning barcha turlari bekor qilindi” [2].

Insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida tadbirkorlik va innovatsiyalar rivoji xususida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, “Xo‘sh, tadbirkor, tadbirkorlik tushunchalari qanday mazmunga ega va nimani anglatadi? Bu tushunchalarni birinchi bo‘lib XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida ingliz iqtisodchisi Richard Kantilon qo‘llagan. Uning fikricha, tadbirkor – tavakkalchilik sharoitida faoliyat ko‘rsatuvchi kishidir. Shu boisdan u yer va mehnat omilini iqtisodiy farovonlikni belgilab beruvchi boylik manbai deb bilgan”[3].

“Keyinchalik, XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshida mashhur fransuz iqtisodchisi J.B.Sey (1767-1832) Siyosiy iqtisod risolasi kitobida (1803) tadbirkorlik

faoliyatini ishlab chiqarishning uch mumtoz omillari – yer, kapital, mehnatning yaxlitligi deb ta’riflagan edi”[4]. Tadbirkorlik (inglizcha – enterprise, enterprising, ruscha – предпринимательство) – foyda olish maqsadida fuqarolar va yuridik shaxslarning o‘z tashabbusi asosida mustaqil faoliyatidir.

Mutafakkir Adam Smit o‘zining tadqiqotlarida, tadbirkor – bu, o‘z kapitaliga ega bo‘lgan shaxs va o‘z faoliyati davomida foyda olishga harakat qilib, iqtisodiy tavakkalchilikni tanlaydi. Tadbirkorlikning moddiy asosini, olimning fikricha, xususiy mulk tashkil qiladi, shuningdek xususiy tashkilot jamiyatga foyda keltirishi lozim [5].

B.A.Rayzberg “Tadbirkorlikni mustaqil omil sifatida hisoblash mumkin, chunki u ishlab chiqarish, daromad keltiruvchi kuch sifatida asosiy uch omil harakatini kuchaytiradi”[6], deb fikr yuritadi. A.V.Shestakov esa “Tadbirkorlik – bu o‘zining harakati bilan xo‘jalik faoliyatini xavfga qo‘yish asosida daromad olish va o‘z mulkini ko‘paytirish uchun moddiy resurslardan eng yaxshi usulda foydalanish faoliyatidir”[7], – deb e’tirof etadi. V.Ya.Ilyuxin esa tadbirkorlik ma’lum bir ishni nazarda tutishini aytib: “Tadbirkorlik – bu mustaqil faoliyat bo‘lib, o‘z faoliyatini ma’lum xavf-xatar ostida, mulkdan foydalanish, tovarlarni sotish, ma’lum bir ishni bajarish yoki xizmat qilish natijasida daromad olishga aytiladi” [8], – deb ta’rif berib o‘tadi.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, “Avesto”dan boshlab inson mehnatini ulug‘lovchi, dangasalikni qoralovchi axloqiy fikrlar, mehnatsevarlikdan saboq beruvchi g‘oyalarda jamiyat va inson hayotining farovonligi alohida e’tirof etilgan. Bu nodir kitobda xalqimiz tarixi, boy madaniy-ma’naviy merosi, urf-odatlar, an’analar, qadriyatlari hududimizda mavjud bo‘lgan davlatlarning iqtisodiy, siyosiy tizimi va rivojlanish manbalari ko‘rsatib berilgan. Zero, “Avesto” kitobi nafaqat qadimiy tarixiy yodgorlik, ayni paytda o‘zbek xalqining qadriyatlari va madaniyatining uzoq asrlarga borib taqalishini isbotlaydigan tarixiy hujjat sifatida ahamiyatlidir.

“Jumladan, Avestoda kishilarning o‘zaro iqtisodiy munosabatlarida o‘z ahdda turish, berilgan va’daning ustidan chiqish, o‘z so‘zi va qasamiga sodiq bo‘lish, tadbirkorlik, savdo-sotiq, iqtisodiy munosabatlarda tadbirkor majburiyat va

shartnomalarga qat’iy amal qilishi, insonlar tomonidan ishonch bildirilgan omonatni, ya’ni berilgan qarz (moddiy narsa-buyum)ni o‘z egasiga vaqtida qaytarish kabi bitim, kelishuv va shartnomaviy munosabatlarning shakli va ayirboshlash turlari haqidagi fikrlar muhim ahamiyatga ega” [9].

Bundan tashqari, inson tarbiyasiga bag‘ishlangan alloma Kaykovusning “Qobusnoma” asarida quyidagi fikrlar berilgan: “Ey farzand, o‘zingni mol jam etmakdin g‘ofil tutmag‘il va lekin har narsani etmak tilasang jahd qilg‘il, toki halollik bila jam bo‘lsun va hamisha senga boqiy hamda yoqimli bo‘lsun... Ammo daxling na chog‘liq bo‘lsa, xarjing ham ul miqdor bo‘lsun. Shunda senga qashshoqlik mashaqqati yuzlanmag‘ay. Har kishiki xarjini daxlidan oz qilsa, hech vaqt qashshoq bo‘lmag‘ay” [10].

Ma’lumki, O‘rta asrlar Sharq allomalari orasida Abu Nasr Forobiyning davlat va jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi fikrlari hozirgacha ilmiy jamoatchilikning e’tiborida bo‘lib keladi. Mutafakkirning davlat boshqaruviga yangiliklarni joriy etish va shu orqali farovonlikni ta’minlash to‘g‘risidagi fikrlari bizning davrimiz uchun ham dolzarb ahamiyatga egadir. “Ba’zan rahbarlar bir shaharning sohibkori, shahar xalqi hayotiga tegishli ishlarda tadbirkor bo‘ladilar.

Ular bu yo‘l-yo‘riqlarni o‘tmishda kechgan boshliqlardan o‘rganadilar, lekin shu bilan birga, rahbar kelajak uchun o‘tmishdagi rasm-rusum, yo‘l-yo‘riqlarni isloh qilishi lozim va foyda topsa, turmush sharoiti taqozosiga qarab ularni o‘zgartiradi. Shuningdek, yomon odatlarni o‘zida ifodalovchi o‘tmishni ham o‘zgartirmog‘i kerak. Aks holda o‘tmishning talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday yengillik, o‘zgarish va o‘sish bo‘lmaydi” [11].

Demak, ushbu fikrda aynan, innovatsiya so‘zi ishlatilmagan bo‘lsada, unda innovatsiya so‘zining asl ma’nosi bor. Har bir davrning ham o‘ziga xos boshqaruv usuli bo‘lganidek, o‘sha davrda rahbar shaxslar, o‘zidan oldingi rahbar bo‘lib o‘tgan shaxslarning jamiyat uchun olib borgan keng ko‘lamli, xalqchil islohotlari davom ettirilishida ular tomonidan qo‘lga kiritilgan ijobiy boshqaruv usul va vositalaridan

foydalangan.

Ushbu sohada Abu Ali ibn Sinoning ham fikrlari diqqatga sazovordir. Mutafakkirning inson faoliyatida bilimning o‘rni va ahamiyati, olingan bilimlarni hayotiy turmushda qo‘llash borasidagi mulohazalari alohida ahamiyatga ega. Uning fikricha, insonning ma’naviy-ruhiy olami bilish, bilim olish va amaliy hayot davomida shakllanadi. Zero, hayot bilimsiz bo‘lishi mumkin emas, bilim esa amaliyotsiz befoydadir.

Innovatsiya tushunchasining shakllanishiga e’tibor bersak, bu tushuncha falsafiy adabiyotlarda asosan XIX asrning oxirlaridan qo‘llanila boshlaganligi ma’lum bo‘ladi. Dastlab, bu falsafiy tushuncha turli ma’nolarda, xususan, Abu Nasr Forobiyda ta’kidlanganidek, jamiyat hayotiga yangicha odatlarning kirib kelishi ma’nosida qo‘llanilgan. Keyinroq unga boshqacharoq yondashildi. Uni ko‘proq iqtisodiy hayotga taalluqli sifatida innovatsion yangiliklarning kirib kelishi nazarda tutiladi.

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida ushbu tushuncha innovatsiya (ingl. Innovations – kiritilgan yangilik, ixtiro): 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanilishi”[12] – deb ta’riflanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev innovatsiyalar masalasiga to‘xtalib o‘tar ekan, “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi.

Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak. Shuning uchun biz Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etdik va uning oldiga aniq vazifalarni qo‘ydik. Bu vazirlik nafaqat

iqtisodiyot sohasida, balki butun jamiyat hayotida eng muhim loyihalarni amalga oshirishda o‘ziga xos lokomotiv rolini bajaradi, deb ishonamiz” [13].

Mamlakatimizdagi modernizatsiya va islohotlar natijasida hozirgi zamon O‘zbekiston faylasuflari tomonidan ham innovatsiyalarning falsafiy asoslarini tahlil qilish jarayoni boshlandi. Jumladan, A.Begmatovning izlanishi mamlakatimizda innovatsiya islohotlarining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o‘rganishda dastlabki harakat bo‘ldi. Muallif innovatsion faoliyatni, innovatsion ong hodisalarining natijasi sifatida, innovatsion inson shakllanishi hodisasiga to‘xtalib, taraqqiyotning yangicha bosqichi innovatsion rivojlanishga olib kelishini e’tirof etadi.

Tadqiqotchi A.Axmedov esa o‘zining ilmiy izlanishlarida “Innovatsion faoliyat sohasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni atroflicha tahlil qilib, innovatsiya va innovatsion jarayonning huquqiy mohiyatini tushuntirib: huquqiy muhofaza qilish amaliyotini takomillashtirish innovatsion faoliyatni amalga oshirishga oid fuqarolik qonun-hujjatlarini yangilash yuzasidan rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rganib, innovatsion faoliyatni huquqiy tartibga solish muammolarining yechimini topish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan” [14].

Tadqiqotchi A.Egamberdiyev esa innovatsiyani quyidagicha ta’riflaydi: “Innovatsiya – jamiyat a’zolarining yangicha tafakkur va faoliyatiga asoslangan holda moddiy va ma’naviy boyliklar yaratish jarayoni bo‘lib, uning natijasida ijtimoiy-iqtisodiy hayotda muhim ijobiy o‘zgarishlar vujudga keldi” [15]. Ko‘rinib turibdiki, innovatsiya tushunchasini tahlil qilishda bir xilda yondashish yo‘q. Sababi, innovatsiya so‘zi turli sohalarga taalluqli bo‘lgani tufayli, shunday xususiyatga egadir.

“Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”da tadbirkorlik uchun zarur shart-sharoitlar yaratish birlamchi vazifa deb belgilanadi [16]. O‘zbekistonda tadbirkorlikning rivojlanish jarayoni o‘zining madaniy, tarixiy xususiyatlariga ega bo‘lib, diniy, milliy qadriyatlari mazmuni bilan, mamlakatda vujudga keltirilgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sharoit, barqaror vaziyat bilan ajralib turadi. Mamlakatimizning mintaqadagi geosiyosiy o‘rni va globallashuv jarayonining ta’siri

natijasida, jahonda sodir bo‘layotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlardan ajralib qola olmaydi. Shuning uchun ham milliy tadbirkorlik modelini yaratishda taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasidan ijodiy foydalangan holda, milliy qadriyatlarga asoslangan tadbirkorlikni shakllantirish, rivojlantirish lozim.

Innovatsiyaga yondashuvchilardan yana biri Skott Berkundur. U innovatsiya – bu, eng avvalo, g‘oyadir, deb ta’kidlaydi. G‘oyalar hech qachon yakka holda paydo bo‘lmaydi va o‘zi bilan birga yangi mazmundagi g‘oyani olib keladi. Jumladan, kompyuter klaviaturasi. Unga bog‘liq holda kompyuterning bir necha qismlari paydo bo‘ladi. Bu g‘oyalar XX asrda yuzaga kelgan va ijtimoiy muhitga kirgan, ular narsalarning o‘zaro birlashuvini ifoda etgan. Klaviatura o‘zida yozuv mashinkasi, elektr energiyasi, plastmassa, operatsion tizim, sxema, USB kabi ilgari yaratilgan yangiliklarni ifoda etadi. Shu nuqtai nazardan, innovatsiyalarga ham yuqoridagi tendensiyalarni tatbiq etish mumkin [17].

Innovatsiyalar bo‘yicha falsafiy ko‘rinishda tadqiqotlar olib borgan Skott Elias AQSH innovatsiya jarayonini qadimgi davr bilan bog‘laydi, aniqrog‘i, ijodga yaqin qo‘yadi. “Ilmiy ijod taraqqiyotida inson aqlining roli, uning murakkablashib borishi, ijtimoiy aql, fandagi kashfiyot va bularning natijasida ijodning yangi modellari yuzaga kelishi muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaydi” [18]. Shundan kelib chiqilsa, falsafiy ijodning qadimgi shakllari bugungi innovatsiyalarning asosini tashkil etadi.

Yuqorida biz tadbirkorlik va innovatsiya so‘zining kelib chiqishi, taraqqiy etishi haqida fikr yuritgan olimlarning mulohazalari bilan tanishib chiqdik.

Ijtimoiy ong va tafakkurning rivojlanishida yangi yo‘nalishlar paydo bo‘lmoqda. Zero, tafakkur qilish innovatsion g‘oyalarning kelib chiqishiga imkon yaratadi. Bu esa yosh tadbirkorlar uchun kerakli imkoniyatlarni ochib beradi.

Mazkur imkoniyat esa, yosh tadbirkorlarga faoliyat yuritishida qo‘l keladi, fikrlash qobiliyatiga ta’sir qiladi, mantiqiy xulosalar chiqarishga undaydi. Tadbirkorlik keng jabhalarni qamrab oladi va olmoqda. Bular hatto matematika, fizika, fazoviy hodisa bo‘ladimi, musiqa, adabiyot, san’at, sport sohalarini ham o‘zida jamlaydi. Bu

jarayonlar tafakkur obrazlari orqali amalga oshadi. Ma'lumki, tafakkur nima deganda, tafakkur predmet va hodisalarning inson ongida mavhumlashgan yoki abstraksiyalashgan holda aks etishi tushuniladi.

Demak, innovatsiyada hali rivojlanmagan, hayotda uchramagan predmet va hodisalarning ana shu tafakkur orqali namoyon qilish xususiyatini ham unutmaslik kerak. Islohotlar jarayonida jamiyat a'zolari bo'lgan yoshlarning faoliyat turlari ularning aqliy faoliyati va tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir. Maqsad qilgan obyekt yoki voqelikni o'zgartirish ko'rsatilgan tafakkur turlarini o'zlashtirganda tadbirkorning faoliyati yengillashadi.

Yosh tadbirkorlar uchun navbatdagi yo'nalishlardan biri – bu tadbirkorlikda klaster tizimini joriy etishdir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-oktabrdagi 834-son “Yoshlar tadbirkorlik klasterlarini tashkil etishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi [19] qarori dasturul-amaldir. Chunki, bu hujjat aynan yosh tadbirkorlar faoliyatiga qaratilgan. Faqat undan unumli foydalanilsa, yosh tadbirkor faoliyatida o'z maqsadiga erishadi. Jumladan, mazkur hujjatda quyidagilarga e'tibor qaratilganki, ya'ni yosh tadbirkorlar uchun umumiy yo'nalishlarning barchasiga taalluqli klasterlar faoliyatini yo'lga qo'yish belgilab berilganki, undan unumli foydalanish yutuqlar garovidir.

E'tibor beraylik:

klasterlar hududida joylashgan ishlab chiqarish maydonlari faqat O'zbekiston Yoshlar ittifoqiga a'zo bo'lgan yosh tadbirkorlarga korxona tashkil topguniga qadar, ammo besh yildan kam bo'lmagan muddatga ijara haqining “nol” stavkasi bo'yicha ijaraga beriladi;

klasterda yoshlarga ko'maklashish, maslahat berish, tadbirkorlik faoliyatini hayotga tatbiq etish bilan bog'liq zarur me'yoriy hujjatlarni tayyorlashda amaliy yordam ko'rsatish xizmatlari bepul amalga oshiriladi;

klaster hududida joylashtiriladigan tadbirkorlik subyekti xodimlarining shtati 35 yoshgacha bo'lgan shaxslar bilan to'ldirilishi va ular xodimlar umumiy sonining

kamida 70 foizini tashkil etish kerak;

foydalanilmayotgan, shu jumladan, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hududida joylashgan davlat mulki O‘zbekiston Yoshlar ittifoqining shahar hamda tuman kengashlari taklifiga ko‘ra, besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ijara haqining “nol” stavkasi bo‘yicha ijaraga beriladi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlab o‘tish mumkinki, Yangi O‘zbekistonni barpo etishda modernizatsiyalashuv jarayoni, jamiyat boshqaruvi institutsional tizimlarining takomillashuvi, innovatsion texnologiyalardan foydalanayotgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatining jadallashuvi, iqtisodiy tarmoqlar, tadbirkorlik subyektlari uchun mo‘ljallangan sog‘lom raqobat muhitini yaratish – O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallashi uchun harakatining jadallashuvi hamda yosh tadbirkorlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini yanada oshiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. T.: “O‘zbekiston”, 2018, 19-bet (2017-yil 22-dekabr).
2. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2019-y., 70 bet.
3. Azizov X.T. Tadbirkorlik (biznes) huquqi. Darslik. – T.: TDYU nashriyoti, 2016. – 20-bet.
4. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов / А.Смит; [пер. с англ.; предисл. В.С.Афанасева]. – Москва: Эксмо, 2007. – С. 960.
5. Райзберг Б.А. Основы бизнеса. М., 1996 г, 7-стр.
6. Шестаков А.В. Предпринимательская деятельность. Сергеев А.А. Экономические основы бизнеса планирования. – М., 1999, 303-стр.
7. Илюхин В.Я. Экономическая теория. Юрист. Москва., 2000 г.
8. Boboev H. va boshq. “Avesto” Sharq xalqlarining bebaho yodgorligi. – T.: “Toshkent moliya instituti”. 2004-y. 33-b.
9. Kaykovus. Qobusnoma. T.: “O‘qituvchi”, 1986-y, 72-73-bet.
10. Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: 1994. – 189-190-betlar.
11. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.4. – Toshkent: 2002. – 169-bet.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. T.: “O‘zbekiston” 2018, 19-20 betlar (2017-yil 22-dekabr).
13. Axmedov A.A. Innovatsion faoliyatni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish. Yuridik fanlari doktori (DSc) diss.. avtoref. – Toshkent: 2017. – 58-bet.
14. Egamberdiyev A.A. O‘zbekistonda modernizatsiyalash sharoitida yshlarda innovatsion ong shakllanishining ijtimoiy-falsafiy muammolari. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. 2019-yil. 40-bet.
15. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashr. Toshkent. O‘zbekiston. – 147-bet.

16. Scott Berkun. The Myths of Innovation. Published by O'ReillyMedia Inc., Sebastopol, 2007. P. 7.
17. Skott Elias. Developments in Quaternary Science. 2012. Volume 16. – P. 1.
18. <https://lex.uz/docs/3382157>



UO‘K: 37.015.3

## INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING DIRECTORS AND SPECIALISTS OF INDUSTRIAL ENTERPRISES ON LABOR PROTECTION

*Rakhimov Oktyabr Dustkabilovich*  
Head of the Department of the Karshi Engineering-Economics Institute  
Doctor of Sciences in Technical Sciences, Professor  
E-mail: rahmat1959@mail.ru

**Annotation.** The article clearly illustrates the information on innovative pedagogical technologies and interactive methods of teaching directors and specialists of enterprises, organizations and institutions labor protection course, and provides a classification defined by the authors. The course of labor protection covers modular teaching technology and ways of using interactive methods in teaching. In order to make sure that the course does not directly affect the work and save the time of specialists, it is recommended to conduct training of directors and specialists on labor protection on the basis of online digital modular technology.

**Keywords:** course study, innovative pedagogical technology, modular teaching, interactive method, digital technology, online teaching.

## SANOAT KORXONALARI RAHBARLARI VA MUTAXASSISLARINI MEHNATNI MUHOFAZA QILISH BO‘YICHA O‘QITISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

*Rahimov Oktyabr Dustkabilovich*  
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti kafedra mudiri  
texnika fanlari doktori, professor  
E-mail: rahmat1959@mail.ru

**Annotatsiya.** Maqolada korxona, tashkilot va muassasalarning rahbar va mutaxassislarini mehnatni muhofaza qilish o‘quv kursi bo‘yicha o‘qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalari hamda o‘qitishning interaktiv uslublari to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilib, muallif tomonidan ishlab chiqilgan tasnifi keltirilgan. Mehnatni muhofaza qilish o‘quv kursida modulli o‘qitish texnologiyasi hamda interaktiv o‘qitish uslublariidan foydalanish uslubiyoti yoritilgan. Kurs o‘qishining bevosita ishga ta‘sir etmasligiga erishish hamda mutaxassislarning vaqtlarini tejash maqsadida rahbar va

*mutaxassislarni mehnat muhofazasi bo'yicha o'qitishni raqamli texnologiyalar asosida onlayn usulda modulli texnologiya asosida amalga oshirish tavsiya etilgan.*

Tinglovchi va kursantlarda fizika fanini o'qitishda robototexnika elementlari hamda mobil ilovalardan foydalanish to'g'risidagi bilim va tasavvurlarning dastlabki holati aniqlandi va ularni rivojlantirish imkoniyatlari izlandi. Shu maqsadda ilg'or pedagogik tajribalar o'rganildi va umumlashtirildi. Tajribaning boshlanishida o'zlashtirish darajalari bir-biriga yaqin bo'lgan tinglovchi va kursantlar guruhlarini ishtirok etishdi.

## 1-jadval

## Dastlabki nazorat sinovi natijalari

| № | Ta’lim muassasasi                                        | Ta’lim yo’nalishi nomi                                                                                           | O’zlashtirish ko’rsatkichlari |
|---|----------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------|
| 1 | O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi                 | Yong‘in xavfsizligi. Texnosfera xavfsizligi                                                                      | 62 %                          |
| 2 | O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti | Aniqllovchi va qo‘riqllovchi elektron tizimlarni tashkil etish va foydalanish bo‘yicha qo‘mondonlik-muhandisligi | 66 %                          |
| 3 | O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi    | Umumqo‘shin qo‘mondonligi                                                                                        | 58 %                          |

Tinglovchi va kursantlarning bilimlarini aniqlashda 5 baholi baholash mezonini qo‘llash ko‘zda tutildi, ya’ni:

a’lo (5 baho): fizika faniga oid qonuniyatlarning mohiyatini tushunib yetadi va aytib bera oladi, mustaqil mushohada yuritib, ijodiy fikrlab, xulosa qabul qila oladi, masalalar hamda mustaqil ishlarni bajara oladi;

yaxshi (4 baho): fizika faniga oid qonuniyatlarning mohiyatini tushunib yetadi va aytib bera oladi, xulosa qila oladi, masalalar hamda mustaqil ishlarni bajara oladi, mustaqil mushohada yurita olmaydi;

qoniqarli (3 baho): fizika faniga oid qonuniyatlarning mohiyatini tushunib yetadi va aytib bera oladi, xulosa qila oladi, masalalar hamda mustaqil ishlarni bajara olmaydi, mustaqil mushohada yurita olmaydi;

qoniqarsiz (2 baho): fizika faniga oid qonuniyatlarning mohiyatini tushunib yetay olmaydi va aytib bera olmaydi, xulosa qila olmaydi, masalalar hamda mustaqil ishlarni bajara olmaydi, mustaqil mushohada yurita olmaydi.

Tinglovchi va kursantlarda fizika fanini o‘qitishda robototexnika elementlari hamda mobil ilovalardan foydalanish to‘g‘risidagi bilim va tasavvurlarining shakllanganligini aniqlash uchun to‘rt darajali (a’lo, yaxshi, qoniqarli, qoniqarsiz) mezondan foydalanildi. Pedagogik tajriba-sinov ishlariga 393 nafar tinglovchi va kursantlardan 196 nafari tajriba guruhiga, 197 nafari nazorat guruhiga jalb qilindi (2-jadval).

2-jadval

**Tajriba-sinov ishlarida qatnashgan tinglovchi va kursantlar soni**

| OTM nomi                                                       | Guruhlar | Jami tinglovchi<br>va kursantlar<br>soni | O‘quv yillari |               |               |
|----------------------------------------------------------------|----------|------------------------------------------|---------------|---------------|---------------|
|                                                                |          |                                          | 2021-<br>2022 | 2022-<br>2023 | 2023-<br>2024 |
| O‘zbekiston Respublikasi<br>FVV Akademiyasi                    | Tajriba  | 65                                       | 22            | 21            | 22            |
|                                                                | Nazorat  | 66                                       | 22            | 22            | 22            |
| O‘zbekiston Respublikasi<br>Jamoat xavfsizligi<br>universiteti | Tajriba  | 65                                       | 22            | 21            | 22            |
|                                                                | Nazorat  | 65                                       | 22            | 22            | 21            |
| O‘zbekiston Respublikasi<br>Qurolli Kuchlari<br>Akademiyasi    | Tajriba  | 66                                       | 22            | 22            | 22            |
|                                                                | Nazorat  | 66                                       | 22            | 22            | 22            |
| Jami                                                           |          | 393                                      | 132           | 130           | 131           |

Dastlabki so‘rov natijalari asosida fizika fanini o‘qitishda robototexnika elementlari hamda mobil ilovalardan foydalanish to‘g‘risidagi bilim va tasavvurlarning shakllanganlik darajasini oshirish lozim, degan xulosaga kelindi.

**Uchinchi, shakllantiruvchi bosqich** (2023-2024-yy.)ning asosiy maqsadi pedagogik tajriba-sinov ishlarini tajriba va nazorat guruhlarida ishlab chiqilgan metodologik va didaktik talablar asosida o‘tkazish, natijalarni tahlil qilish va umumlashtirishdir.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichi 2023-2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi 1-bosqich hamda 2-bosqich kursantlari o‘rtasida o‘tkazildi.

Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi: fizika faniga tegishli ma’ruza, amaliy hamda laboratoriya mashg‘ulotlarini kuzatish hamda ushbu mashg‘ulotlarda kursantlarning robototexnika elementlari hamda mobil ilovalardan foydalanish yuzasidan bilim va tasavvurlarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan tahlil qilish; robototexnika elementlari hamda mobil ilovalardan foydalanish ishlarini va topshirishlarini tahlil qilish; tinglovchi va kursantlar bilan so‘rovnoma o‘tkazish, suhbat olib borish [4].

Tajribada ishtirok etayotgan guruhlarni shakllantirish va ularda fizik tushunchalarning shakllanganlik darajasini aniqlash maqsadida tajriba-sinov o‘tkazilib, yuqoridagi mezonlar asosida baholandi. Tadqiqot ishining bu bosqichida tanlab olingan tajriba va nazorat guruhlaridagi tinglovchi va kursantlarda robototexnika elementlari hamda mobil ilovalardan foydalanishning shakllanganlik darajasini aniqlash uchun har bir tinglovchiga fizika fanidan robototexnika elementlari hamda mobil ilovalardan foydalanish berildi va ularning javoblari tahlil qilindi. Ushbu robototexnika elementlari hamda mobil ilovalar asosida har ikkala guruhda olingan natijalar tajriba va nazorat guruhlarining tinglovchi va kursantlarining bilimi va ularda fizik tushunchalarning rivojlanganlik darajalari orasidagi farq tahlil qilindi (3-jadval).

3-jadval

**Tinglovchi va kursantlarda fizika fani ko‘nikmalari rivojlanganlik darajasining natijalari**

| Guruh                                      | Tinglovchilar soni | 5 baho     | 4 baho     | 3 baho    | 2 baho    |
|--------------------------------------------|--------------------|------------|------------|-----------|-----------|
| <b>2021-2022-o‘quv yilidagi natijalar:</b> |                    |            |            |           |           |
| <b>Tajriba</b>                             | <b>66</b>          | 22         | 33         | 10        | 1         |
| <b>Nazorat</b>                             | <b>66</b>          | 13         | 25         | 24        | 4         |
| <b>Jami</b>                                | <b>132</b>         | <b>35</b>  | <b>58</b>  | <b>34</b> | <b>5</b>  |
| <b>2022-2023-o‘quv yilidagi natijalar:</b> |                    |            |            |           |           |
| <b>Tajriba</b>                             | <b>64</b>          | 24         | 35         | 5         |           |
| <b>Nazorat</b>                             | <b>66</b>          | 7          | 31         | 22        | 6         |
| <b>Jami</b>                                | <b>130</b>         | <b>31</b>  | <b>66</b>  | <b>27</b> | <b>6</b>  |
| <b>2023-2024-o‘quv yilidagi natijalar:</b> |                    |            |            |           |           |
| <b>Tajriba</b>                             | <b>66</b>          | 27         | 33         | 5         | 1         |
| <b>Nazorat</b>                             | <b>65</b>          | 7          | 20         | 33        | 5         |
| <b>Jami</b>                                | <b>131</b>         | <b>34</b>  | <b>53</b>  | <b>38</b> | <b>6</b>  |
| <b>Umumiy</b>                              | <b>393</b>         | <b>100</b> | <b>177</b> | <b>99</b> | <b>17</b> |

Mashg‘ulotlar nazorat guruhlarida an’anaviy usulda, tajriba guruhlarida esa kursant va tinglovchilar tomonidan fizika mashg‘ulotlarida ma’ruza, amaliy hamda laboratoriya mashg‘ulotlarini kuzatish hamda ushbu mashg‘ulotlarda robototexnika elementlari hamda mobil ilovalardan foydalanish holatini o‘rganish orqali amalga oshirildi.

**Xulosa va takliflar.** Olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijasida oliy harbiy ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitishda robototexnika elementlari hamda mobil

ilovalardan foydalanish asosida taklif qilingan o‘qitish metodikasi quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi:

1. Pedagogik tajriba-sinov ishining asosiy bosqichlari mazmuni yoritilgan. Oliy harbiy ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitishda robototexnika elementlari hamda mobil ilovalardan foydalanish asosida shakllantirish ta’lim jarayonida ijobiy samara berishi ilmiy asoslandi.

2. Oliy harbiy ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitishda robototexnika elementlari hamda mobil ilovalardan foydalanish fanning o‘zlashtirilishi samaradorligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi.

3. Oliy harbiy ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitishda robototexnika elementlari hamda mobil ilovalardan foydalanish orqali fanning o‘zlashtirilishi samaradorligi oshirilishi matematik-statistik metod asosida tahlil qilindi.

4. Pedagogik tajriba-sinov natijalari tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan yuqori ekanligi (xi kvadrat Pirson ( $\chi^2$ ) kriteriyasi asosida isbotlandi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Уилнер-Дживер С. Пусковая установка EV3 // электронный портал Lego Engineering Center for Engineering Education and Outreach Tufts University. – URL: <http://www.legoengineering.com/ev3-projectile-launcher>.
2. Валк Л. Большая книга LEGO MINDSTORMS EV3: [пер. с англ. С.В. Черникова]. – М.: Издательство «Э», 2017. – 408 с.
3. Исогава Й. Книга идей LEGO MINDSTORMS EV3. 181 удивительный механизм и устройство. – М.: Эксмо, 2017. – 232 с.
4. Tellez Ricardo, Angulo Cecilio. Generating an autonomous robotic agent from the evolution of simple cooperative sub-agents. Available in: <http://www.ouroboros.org/papers/paper3.pdf>
5. Stella Vosniadou. How children learn, International Academy of Education. Available in: <http://www.ibe.unesco.org/International/Publications/EducationalPractices/prachome.html>.
6. Ruiz J, Salazar R. Introduction to Robotics. Chapter 1. Universidad de Chile. Available in: <http://robotica.li2.uchile.cl/EL63G/capitulo1.pdf>.
7. Юревич Е.И. Основы робототехники. СПб.: БХВ-Петербург, 2005. С. 416.
8. Чупин Д.Ю. Современные требования к содержанию подготовки педагогических кадров технологического профиля в Новосибирской области //Нижегородское образование. 2017. № 2. С. 92-96.
9. Чупин Д.Ю. Подготовка учителей технологии к применению образовательной робототехники в профессиональной деятельности // Подготовка педагогических кадров технологического профиля в условиях реиндустриализации региона: сборник статей Всероссийской научно-практической конференции. Новосибирск: Изд-во НГПУ, 2018. С. 22-

26.

10. Чупин Д.Ю. Организационные аспекты образовательной робототехники в современной школе // Образовательная робототехника: сборник статей Международной научно-практической конференции. Новосибирск: Изд-во НГПУ, 2017. С. 108-113.

11. Филиппов С.А. Уроки робототехники. Конструкция. Движение. Управление. М.: Лаборатория знаний, 2018. – 190 с.

12. Филиппов С.А. Уроки робототехники. Конструкция. Движение. Управление. М.: Лаборатория знаний, 2018. – 190 с.

13. Филиппов С.А. Онлайн курс «Основы робототехники» [Электронный ресурс] – Режим доступа URL: <http://www.lektorium.tv/robotics>.

14. Ушаков А.А. Задачи для факультатива робототехники: Сборник задач. Демонстрационный вариант. Барнаул: Гимназия №42, 2009. 91с.

15. Тарапата В.В., Самылкина Н.Н. Робототехника в школе: методика, программы, проекты. М.: Лаборатория знаний, 2017. 109 с.

16. Российская ассоциация Образовательной робототехники: сайт [Электронный ресурс] – Режим доступа URL: <http://www.raor.ru>.

17. Бачинин А., Панкратов В., Накоряков В. Основы программирования микроконтроллеров. ООО «Амперка», 2013. 207 с.

18. Боголюбова А.Н., Никитина Д.А. Популярно о робототехнике. Киев: Наук. Думка, 1989. 200 с.

19. Голобородько Елена Николаевна. Робототехника как ресурс формирования ключевых компетенций обучающихся. [Электронный ресурс] Режим доступа URL: <http://robot.edu54.ru/publications/108/>.

20. Горский М. Создание кружка робототехники. Проблемы и трудности // VII Всероссийская конференция “Современное технологическое обучение: От компьютера к роботу”. [Электронный ресурс] Режим доступа URL: <https://www.youtube.com/watch?v=phxRbnCF3s4>.



UO‘K: 937.635.3

## TRIXOGRAMMA FOYDALI HASHAROTINING TABIATDA TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

*Rustamov Anvar Axmatovich,  
O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi kafedra o‘qituvchisi,  
qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
E-mail: [rustamov.anvarmirzo84@gmail.com](mailto:rustamov.anvarmirzo84@gmail.com)*

**Annotatsiya:** So‘nggi yillarda respublikamizda ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Bu esa qishloq xo‘jaligi ekinlari zararkunandalariga biologik usullar orqali qarshi kurashishni talab etadi. Trixogramma mayda pardasimon qanotli hasharot bo‘lib, tusi sariq-qo‘ng‘ir yoki qora ranglarda bo‘ladi. Tanasining o‘lchami 0,3 mm dan 0,9 mm gacha keladi.

Oyoq panjalari uch bo'g'imli, urg'ochisining mo'ylovi 5 bo'g'imli, old qanotlari keng, pardasimon, chetlari qisqa hoshiyali, qorni keng, yuqori qismi yumaloq, erkaklarining mo'ylovlari uch bo'g'imli bo'ladi. *Trichogramma* urg'ochilari xo'jayini qo'ygan tuxumlarni ularning hidiga binoan izlaydi.

**Kalit so'zlar:** g'o'za, biotsenoz, so'ruvchi, kemiruvchi, zararkunanda, agrobiotsenoz, parazit entomofag, o'simlik bitlari, oziqlanish, tur tarkibi, fitofag, biologik usul, bioekologiya, biologik samaradorlik.

## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПОЛЕЗНЫХ НАСЕКОМЫХ ТРИХОГРАММЫ В ПРИРОДЕ

Рустамов Анвар Ахматович,  
преподаватель кафедры Академии МЧС Республики Узбекистан  
доктор философии по сельскохозяйственным наукам (PhD)  
E-mail: rustamov.anvarmirzo84@gmail.com

**Аннотация:** В последние годы в нашей республике растет спрос на экологически чистые продукты питания. Для этого необходимы биологические методы борьбы с вредителями сельскохозяйственных культур. Трихограмма – насекомое с небольшими перепончатыми крыльями желто-коричневого или черного цвета. Размер его тела от 0,3 мм до 0,9 мм. Ноги трехчлениковые, усы у самки пятичлениковые. Передние крылья широкие, перепончатые, с короткими краями. Карниз широкий, верхняя часть закругленная. Усы самцов трехчлениковые. Самки трихограммы ищут яйца, отложенные хозяином, по запаху.

**Ключевые слова:** хлопок, биоценоз, лох, грызун, вредитель, агробиоценоз, паразитический энтомофаг, тля, питание, видовой состав, фитофаг, биологический метод, биоэкология, биологическая эффективность.

## ROLE AND IMPORTANCE OF BENEFICIAL INSECTS TRICHOGRAMMA IN NATURE

Rustamov Anvar Axmatovich,  
Lecturer of the Academy of the Ministry of Emergency Situations of the  
Republic of Uzbekistan  
Doctor of Philosophy in Agricultural Sciences (PhD),  
E-mail: rustamov.anvarmirzo84@gmail.com

**Annotation:** In recent years, the demand for environmentally friendly food products has been increasing in our Republic. This requires biological methods to combat pests of agricultural crops. Trichogramma is an insect with small membranous wings, yellow-brown or black in color. The size of its body is from 0.3 mm to 0.9 mm. Legs are 3-jointed, female's mustache is 5-jointed. The front wings are wide, membranous, with short margins. The cornice is wide, the upper part is rounded. Male mustaches are 3-jointed. Trichogramma females search for eggs laid by their host by their scent.

**Key words:** cotton, biocenosis, sucker, rodent, pest, agrobiocenosis, parasitic entomophagus, plant lice, nutrition, species composition, phytophagous, biological method, bioecology, biological efficiency.

**Kirish.** Bugungi kunda butun dunyoda ekologik toza qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Chunki qishloq xo‘jalik ekinlari zararkunandalariga qarshi qo‘llanilayotgan kimyoviy preparatlarning ko‘pgina qismi insonlar, o‘simliklar dunyosi va foydali hasharotlarga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Mamlakatimiz va dunyo olimlarining ko‘p yillik ilmiy tadqiqotlariga ko‘ra qishloq xo‘jaligida qo‘llanilayotgan barcha kimyoviy vositalar dunyoga kelayotgan chaqaloqlar organizmida ham uchrashi mumkinligi ta‘kidlanmoqda. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarida ularning qoldiqlari ma‘lum miqdorda saqlanib qolmoqda. Bu esa kelajakda insoniyat, tabiiy xilma-xillik va ekologiya uchun og‘ir oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Butun dunyo faunasida Trixogrammalar avlodiga kiruvchi 143 tur mavjud bo‘lib, O‘zbekistonda Trixogrammalarning 15 turi topilgan. Shulardan 6 tasining bioekologiyasi chuqur o‘rganilgan bo‘lib, ulardan qishloq xo‘jaligida ekinlar zararkunandasi bo‘lgan tunlam kapalaklarning tuxumlarini yo‘qotishda asosiy biologik vosita sifatida foydalaniladi. Tanasining uzunligi 0,3-0,9 mm.

Trixogrammaning qisqa qanotli va qanotsiz turlari mavjud. Mo‘ylovi 5-9 bo‘g‘imli, qanotlari keng hoshiyali, oldingi qanotlari qisqa hoshiyali, orqa juft qanotlari ingichka. Urg‘ochisining mo‘ylovi qisqa, bir halqali, xivchini ikki bo‘g‘imli. Erkaklari ko‘pincha qanotsiz yoki qanoti soddalashgan bo‘ladi. Trixogramma polifag bo‘lib, 200 ga yaqin turdagi hasharot tuxumini zararlaydi. Asosiy va bosh xo‘jayinga ega. Faqat lichinkasi tekinxo‘rlik (parazitlik) qiladi.

Yetuk hasharotlar gul shirasi va nektari bilan oziqlanadi. Urg‘ochi Trixogramma xo‘jayin organizmning yangi qo‘yilgan tuxumi ichiga o‘z tuxumini qo‘yadi. Tuxumdan chiqqan Trixogramma lichinkasi xo‘jayin tuxumi ichidagi moddalar bilan oziqlanib rivojlanadi. Oziqlanib bo‘lgan Trixogramma lichinkasi shu yerda g‘umbakka aylanadi.

*Homenoptera* turkumining yana bir oila vakili *Trichogramma tidae* bo‘lib, uning jahon faunasida 134 turi aniqlangan va ular *Lipodoptera*, *Diptera*, *Coleoptera*

turkumlari vakillarining tuxumlarida parazitlik qiladi. Mamlakatimizdagi turlar asosan *Trichogramma principium* Sug., *Trichogramma euproctidis* Giz., *Trichogramma evanescens* West., *Trichogramma bactrianum* Sug at Sor., *Trichogramma chilonis* Ishii., *Trichogramma pintoii*, *Trichogramma minutum* Riley. turlari mavjud bo‘lib, tuxumlik davrida zararkunandalarni yo‘q qiladi. Shu bilan birga *Trichogramma principium* faqat Markaziy Osiyoda mavjud.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** *Trichogramma* mayda pardasimon qanotli hasharot bo‘lib, tusi sariq-qo‘ng‘ir yoki qora ranglarda bo‘ladi. Tanasining o‘lchami 0,3 mm dan 0,9 mm gacha, oyoq panjalari uch bo‘g‘imli, urg‘ochisining mo‘ylabi besh bo‘g‘imli, old qanotlari keng, pardasimon, chetlari qisqa hoshiyali, qorni keng, yuqori qismi yumaloq, erkaklarining mo‘ylablari uch bo‘g‘imli bo‘ladi. *Trichogramma* urg‘ochilari xo‘jayin qo‘ygan tuxumlarni ularning hidiga binoan izlaydi.

Yetuk zot *trichogramma* turlari tabiatda erkin holatda uchrab, ular gullarning nektari bilan oziqlanib hayot kechiradilar. Urg‘ochi *trichogramma* zotlari nasl qoldirish maqsadida xo‘jayin tuxumlarining hidiga qarab izlab topadilar. Bitta *Sitotroga cerealella* xo‘jayin tuxumiga *Trichogramma* 1 ta, kamdan-kam holatda 2 ta tuxum qo‘yishi mumkin. Bir dona tunlam kapalagi (*Noctidae*) tuxumiga 1 tadan 3 tagacha, *Sphingidae* tuxumlariga esa 40 tagacha tuxum qo‘yishlari mumkin.

*Trichogramma* lichinkalari tekinox‘rlik qilib rivojlanadilar. *Trichogramma* lichinkasi tuxumning sariqlik qismi bilan oziqlanib, uch yosh hayot kechiradi. Uchinchi yoshdan so‘ng xo‘jayin tuxumi qoraya boshlaydi va pronifa fazasiga o‘tganda qorasimon tus zangori tusga kiradi.

*Trichogramma*ning g‘umbagi ham xo‘jayin tuxumi ichida rivojlanadi. Yetilgan *trichogramma* tuxum qobig‘ini kemiradi va tashqariga uchib chiqib, qo‘shimcha oziqlangandan so‘ng juftlashib tuxum qo‘ya boshlaydi. *Trichogramma*ning tuxum ichida rivojlanishi +26-30°C havo haroratida, 50-70% havo namligida 7-9 kungacha davom etadi. Yetuk zotlarning hayotchanligi ham havo harorati va havo namligiga bog‘liq. Harorat ko‘tarilganda ularning hayoti qisqara boradi.

Ba’zi tur trixogramma yuqori havo haroratida ( $+35^{\circ}\text{C}$ ), namlik 30% bo’lganda tuxum ichida uch yosh lichinka davrigacha rivojlanib, so’ngra halok bo’lish holatlari ham kuzatilgan. Havo harorati  $+10^{\circ}\text{C}$  dan pastga tushganda trixogrammalar qishki uyquga, ya’ni diapauzaga kiradilar (Koroleva, 1938; Bagdanova, 1964; Davletshina, 1973; Durdiyev, 1991; Atamirzayeva, 1991;).

Birinchi marotaba ingliz olimi J.O. Westwood trixogramma parazitini aniqlab, ular tunlam tuxumlarini zararlashi va unda ko’payishini aniqlagan.

1970-yillarga qadar trixogrammaning yangi turlarini morfologik belgilariga qarab aniqlash ishlari ishonchli bo’lmagani uchun nafaqat morfologiyasi, balki biologik va ekologik belgilariga qarab aniqlash ishlari ilgari surilgan. Lekin, bu belgi asosida solishtirilayotgan turlar  $+300^{\circ}\text{C}$  haroratda rivojlangan bo’lsagina taksonomik qimmatga ega bo’lishi mumkinligi ta’kidlangan (Flanders, 1960).

XIX asrning ikkinchi yarmida hind olimlari Trixogramma turlarini bir-biridan ajratadigan aniq taksonomik belgilar orqali aniqlash yo’lini topdilar. Bunda trixogramma turlarini nafaqat mo’ylovlari, balki erkak zotlarining genitaliyalari orqali aniqlash mumkinligini isbotlab berdilar (Nagargatti, Nagaraja, 1968).

Yuqorida ko’rsatilgan belgilar orqali *Trichogramma* oilasiga qarashli 36 ta turlar aniqlanib, ular orasidan 9 ta guruhga qarashli turlar ajratib olindi. Hind olimlarining bu yangiliklarini butun dunyo olimlari poydevor qilib olib, Trixogramma turlarini aniq taksonomik belgilar orqali aniqlash usulini yo’lga qo’yidilar.

Keyinchalik Trixogramma turlari bo’yicha tadqiqot ishlari Fransiya, Bolgariya, Ispaniya, Xitoy, AQSH, Italiya, Rossiya va O’zbekistonda rivojlanib, uni ko’paytirish, saqlash va qo’llash ishlari jadallashdi (Kasinskaya, 1977; Adashkevich, 1978; Pintureau, 1980). U. Ortiqov tomonidan (2007) issiqxonalaridagi pomidorda uchraydigan tunlamlar va ularga qarshi entomofaglarni qo’llash bo’yicha tadqiqot ishlari olib borilgan.

*Homenoptera* turkumining yana bir oila vakili *Trichogramma tidae* bo’lib, uning jahon faunasida 134 turi aniqlangan va ular *Lipodoptera*, *Diptera*, *Coleoptera*

turkumlari vakillarining tuxumlarida parazitlik qiladi. Mamlakatimizdagi turlar asosan *Trichogramma principium* Sug., *Trichogramma euproctidis* Giz., *Trichogramma evanescens* West., *Trichogramma bactrianum* Sug at Sor., *Trichogramma chilonis* Ishii., *Trichogramma pintoii*, *Trichogramma minutum* Riley. turlari mavjud bo‘lib, tuxumlik davrida zararkunandalarni yo‘q qiladi. Shu bilan birga, *Trichogramma principium* Sug. faqat Markaziy Osiyoda mavjud.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Issiqxonalaridagi pomidorda uchraydigan tunlamlar O‘zbekistonda so‘nggi yillarda paydo bo‘lishiga qaramay, qishloq xo‘jalik ekinlariga, jumladan ituzumdoshlar oilasiga mansub o‘simliklarga sezilarli zarar yetkazmoqda. Ularning respublika bo‘ylab tezkorlik bilan tarqalishi va ko‘payishining kuzatilishi, unga qarshi samarali kurash choralarini ishlab chiqib, dalada va issiqxona sharoitida tatbiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Barcha qishloq xo‘jalik ekinlari qatori ituzumdoshlar oilasiga mansub o‘simliklar ham qishloq xo‘jaligida o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Shu boisdan pomidor, kartoshka, bulg‘or qalampiri kabi mahsulotlarni yetishtirishga katta ahamiyat berilmoqda.

Issiqxonalarga zarar keltiradigan hasharot turlarini ularning oziqlanish usuliga qarab ikkiga bo‘lish mumkin. Birinchisi, so‘ruvchi zararkunandalar. Bular o‘simlik shirasini so‘rib, uni rivojlanishdan ortda qoldiradi va hosildorlikni pasaytirib, sifatini buzadi. O‘simliklarda har xil yuqumli (ayniqsa virusli) kasalliklar tarqalishiga sababchi bo‘ladi. Ayrim hasharotlarning shirali chiqindilari (o‘simlik bitlari va oqqanot) o‘simlikning bargi va boshqa qismlarini ifloslantirishi tufayli saprofit zamburug‘larning rivojlanishi uchun qulay muhit yaratib, fotosintez jarayonini izdan chiqaradi.

**Tahlil va natijalar.** Trixogrammaning rivojlanish davri havo harorati 25-30 va namligi 30-70% bo‘lganida 7-35 kun davom etadi. Yetuk hasharotlar 3-18 kun yashaydi. Shu davr mobaynida bir urg‘ochi hasharot 25-92 dona tuxum qo‘yishi mumkin. Tabiatda Trixogramma turlari O‘zbekistonning barcha madaniy dehqonchilik zonalarida va tog‘lardagi yovvoyi o‘simliklarda, cho‘l, chala cho‘llarda ham uchraydi.

Tabiiy sharoitda 14-15 avlod beradi. Trixogrammadan hasharotlar (tunlamalar, parvonalar, odimchilar va boshqalar)ga qarshi kurashishda foydalaniladi. Oddiy trixogrammani biolaboratoriyalarda ko‘paytirish uchun ozuqa sifatida arpa doni kuyasi kapalagining tuxumidan foydalaniladi.

Buning uchun arpa doni har xil chang va iflosliklardan g‘alvirda tozalanib, uch marta yaxshilab suvda yuviladi, so‘ngra don ichidagi har xil ombor zararkunandalari (uzunburun, parvonalar, gabrositus, ayniqsa don kuyasi) hamma rivojlanish davrida – tuxumdan to kapalagigacha zarar keltirilgan kanalarga qarshi gidrotermik usulda arpa doni sterilizatsiya qilinadi. Bunda avtoklav bo‘lmagan biologik laboratoriyalarda arpa doni uch marta yuvilgandan so‘ng 10 sm qalinlikda maxsus jomlarga solinib, gaz alangasida 25 minut davomida qizdiriladi.

Jomga solingan arpaning qalinligi 8-10 sm.dan oshilmasligi lozim. Arpa solingan jom ustiga qo‘shimcha bitta jom yopib, arpa suv bug‘ida dimlanadi, arpa doni kuyib ketmasligi uchun avval 0,5 litr suv sepib, arpa aralashtiriladi, so‘ngra har 2-3 minutda 0,5 litr qaynoq suv qo‘yib aralashtiriladi va yana yopib dimlanadi. Shu tariqa 30 minut davomida 9-10 marta suv qo‘yilib aralashtiriladi, bunda 10 kilogramm arpa uchun 44,5 litr qaynoq suv sarflanadi.

Arpani dimlash paytida ikkala jom ichidagi harorat 900 °C dan kam bo‘lmasligi lozim. Agarda laboratoriyalarda avtoklav bo‘lsa 1,4-1,5 atmosfera bosimi ostida 95-100 °C haroratda avtoklavning yuqoridagi monometri 1-1,5 atmosfera bosimini ko‘rsata boshlangandan keyin 20-25 minut davomida avtoklavdagi arpa sterilizatsiya qilinadi.

Arpani sterilizatsiya qilish, ya’ni qizdirish tugallaganidan so‘ng arpa doni namligi 16 % ga tushgungacha yerga yoyib shamollatiladi, so‘ngra qalinligi 5 sm qilib barkashlarga yoki maxsus jomlarga solib, stellajga qo‘yiladi. Arpa doni qalinligi 5 sm dan qalin bo‘lsa sitotroga tuxumidan chiqayotgan mayda qurtchalar pastki qatlamidan arpa doniga kira olmaydi. Natijada arpa doni qurt bilan zararlanmay qolishi mumkin. Don kuyasi tuxumi (*Sitotroga*) oq qog‘oz parchalariga solinib, jomga solingan arpa

ustiga, 3-4 joyga qo'yiladi. 1 g arpa kuyasi kapalagi tuxumi (*Sitotroga*) 2 kg arpaga qo'yilishi kerak.

Sitotroga qurtchalari arpa donini qay darajada zararlaganini aniqlash uchun don pichoqlar yordamida kesib ko'riladi. Bunday aniqlashda 100 ta arpa doni kesib ko'riladi va zararlash darajasi % miqdorda maxsus jurnalga yozib boriladi. Arpani zararlashda olib borilgan ish to'g'ri olib borilsa, zararlash darajasi albatta 70-80 % gacha yetadi.

**Xulosa va takliflar.** Entomafaglar orasida Trixogramma foydali hasharoti ko'pgina qishloq xo'jaligi ekinlarining zararkunandalariga qarshi samarali kurashish vositasi ekanligini inobatga olib, quyidagicha xulosa va takliflarni keltirib o'tish mumkin:

fermer xo'jaliklari ekin maydonlarida yig'im-terim mavsumi yakunidan so'ng shudgorlash ishlarini olib borish va begona o'simlik qoldiqlaridan tozalash ishlari nazoratini yo'lga qo'yish;

qishloq xo'jaligi ekinlarining zararkunandalariga entomafaglar orqali qarshi kurashish usullarini ishlab chiqish va xususiy biolaboratoriyalar sonini oshirish;

yetishtirilishi belgilangan qishloq xo'jaligi ekinlarining urug'lari, ko'chat va boshqalarni yerga qadashdan avval maxsus dori vositalari yordamida ishlov berish orqali zararkunanda hasharotlarga chidamliligini oshirish;

ekin maydonlarida qishloq xo'jaligi ekinlarini almashlab ekish ishlarini joriy qilish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xusanov A.K. O'simlik shiralarning ozuqa o'simliklariga moslanish xususiyatlariga doir ma'lumotlar. ADU. Ilm. xabarnoma, 2010. №3. 21-22-b.
2. Xusanov A., Ismonov I. Moylisoy va Xonobod ekologik hududlarida uchrovchi ba'zi o'simlik shiralari (Homoptera, Aphidinae) turlarining geografik o'zgaruvchanligi haqida // "Entomologiyaning dolzarb muammolari". FDU. 2010. 62-63-b.
3. Xo'jayev Sh. T. Xolmurodov E.A. Entomologiya, qishloq xo'jaligi ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. "Fan" nashriyoti. Toshkent, 2009.
4. Xo'jayev Sh., Yusupova M., Kuriyazov Sh. Ko'sak qurtiga qarshi biologik kurashning istiqbollari. O'simliklarni zararkunandalardan himoya qilishda ilg'or tajriba. Materiallar to'plami. Talqin. – Toshkent, 2008. 40-43-b.

5. Xalilov X.X. va boshqalar. O‘simliklarni uyg‘unlashgan himoya qilish. Uslubiy qo‘llanma. “Nur” nashriyoti. Toshkent, 1998.
6. Xo‘jayev Sh.T. Insektidsid, akaritsid biologik faol moddalar va fungidsidlarni sinash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar. Maqolalar to‘plami. Toshkent: Kimyo komissiyasi. 2004.
7. Xusanov A.K. O‘simlik bitlarining ozuqa o‘simliklariga moslanish xususiyatlariga doir ma’lumotlar. ADU. Ilm. xabarnoma, 2010.
8. Zokirov I., Axmedov M., Isroiljonov S. Turli ekologik sharoitlarga o‘simlik shiralarning (Homoptera, Lashnidae) adaptatsiyalanish xususiyatlari haqida // Biologik xilma-xillikni saqlash muammolari. – Toshkent, 2006. 71-73-b.
9. Zokirov I., Urmonova D. O‘simlik shiralari fe‘l-atvorlari funksional boshqarilishining umumiy yo‘nalishlari. “Zoologiya fanining dolzarb muammolari” ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2009. 77-b.
10. Zokirov I., Axmedov M., Isroiljonov S. Turli ekologik sharoitlarga o‘simlik bitlarining adaptatsiyalanish xususiyatlari haqida. “Biologik xilma-xillikni saqlash muammolari”. – Toshkent, 2006.
11. Рашидов М.И. Интегрированная защита посленовых овощных культур от вредителей. Монография. –Ташкент, 2008. С. 13-22.
12. Хусанов А.К. Экологическая классификация афидофауны Ферганского хребта // «Животный мир Казахстана и сопредельной территорий». Материалы Международной научной конференции посвященной 80-летию института зоологии Республики Казахстан. – Алмата, 2012. С. 180-181.
13. Abbosov A., Qoraboyev M. Sabzavot ekinlarini ekish va parvarishlash. // “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi”. Toshkent, 2007. – №1. Б. 26.
14. Агаева Б. Бурый томатных клещ – опасный вредитель томатов // Социалистическое сельское хозяйство Азербайджана. 1979. – №1. С. 48-50.
15. Адашкеевич В.Р. Энтомофаги овощных культур. Afidofagi. – М.: 1975. 113 с.
16. Азимов Б.Д. Технология сортов томата в Узбекистане. Ташкент: Fan, 1995. 244 с.
17. Azimov B.D. Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikning hozirgi ahvoli va dolzarb muammolari. // O‘zbekiston agrar fan xabarnomasi. – Toshkent: Sharq, 2000. Б.18.
18. Акимов.И.А. Тетраниковые клещи степной зоны Украины: Автореф. дисс. . канд. биол. наук: Киев, 1965. 18 с.
19. Алимухаммедов С.Н., Кузницов Н.Н., Успеский М., Мизова И.Ю. Вредные и полезные клещи Средний Азии. – Тошкент: Фан, 1982. 183 с.
20. Бондаренко Н.В., Поляков И.Л., Стрелков А.А. Вредные нематоды, клещи и грызуны. – М.: Kolos, 1977. С. 129-131.

UO‘K: 621.311.25:621.039

## TRANSPORT ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA ISHCHI VA XIZMATCHILARNING ISH JOYLARIDA ELEKTR XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING ZAMONAVIY USULLARI

Maxkamov Nurmuxammad Yangiboyevich  
O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi kafedra professori  
texnika fanlari nomzodi, professor  
Abdazimov Shavkat Xakimovich  
Toshkent davlat transport universiteti kafedra dotsenti  
texnika fanlari nomzodi, dotsent  
Yangiboyev Xurshidbek Nurmuxammad o‘g‘li  
O‘zbekiston Respublikasi FVV Fuqaro muhofazasi instituti bo‘lim boshlig‘i  
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
mahkamov1962@gmail.com

**Annotatsiya:** Maqolada elektr tokining insonlarga ta’siri, elektr tokidan muhofazalanish, elektr toki urishi oldini olishning zamonaviy usullari haqida tushunchalar keltirilgan. Shu bilan birga, elektr toki urishidan muhofaza qilish uchun kerakli bo‘lgan himoya qilish vositalarini qo‘llash keltirilgan. Elektr xavfsizligi nuqtai nazaridan binolarning uch turi mavjudligi keltirilgan. GOST-12.1.019-79 ga ko‘ra elektr xavfsizligi elektr qurilmalarning konstruksiyalari, elektr tokidan himoyalashning maxsus usullari bilan, ishni bajarish vaqtida esa tashkiliy va texnik tadbirlar bilan ta’minlash lozimligi ta’kidlab o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Elektr toki, himoya vositalari, elektr tokidan himoya qilish, zamonaviy vositalar.

## СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭЛЕКТРОБЕЗОПАСНОСТИ НА РАБОЧИХ МЕСТАХ РАБОЧИХ И СЛУЖАЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ ТРАНСПОРТНОГО ПРОИЗВОДСТВА

Махкамов Нурмухаммад Янгибоевич  
профессор кафедры Академии МЧС Республики Узбекистан  
кандидат технических наук, профессор  
Абдазимов Шавкат Хакимович  
доцент кафедры Ташкентского государственного университета транспорта  
кандидат технических наук, доцент  
Янгибоев Хуршидбек Нурмухаммад угли  
начальник отдела института гражданской защиты МЧС Республики Узбекистан  
доктор философии по техническим наукам (PhD)  
mahkamov1962@gmail.com

**Аннотация:** В статье дано понятие о воздействии электрического тока на человека, защита от поражения электрическим током, современные методы предотвращения

поражения электрическим током. Применение защитных средств, необходимых для защиты от поражения электрическим током. С точки зрения электробезопасности различают три типа зданий. Исходя из ГОСТ-12.1.019-79 подчеркивается необходимость обеспечения электробезопасности конструкций электротехнических устройств, приводятся специальные методы защиты от электрического тока и организационно-технические мероприятия, применяемые при работе.

**Ключевые слова:** электричество, средства защиты, защиты от поражения электрическим током, современные средства.

## MODERN METHODS OF PROVIDING ELECTRICAL SAFETY IN THE WORKPLACES OF WORKERS AND SERVANTS IN TRANSPORT MANUFACTURING ENTERPRISES

Makhkamov Nurmukhammad Yangiboyevich

Professor of the Department of the Academy of the Ministry of  
Emergency Situations of the Republic of Uzbekistan

Candidate of Technical Sciences, Professor

Abdazimov Shavkat Khakimovich

Associate Professor of the Department of Tashkent State University of Transport

Candidate of Technical Sciences, Associate Professor

Yangiboyev Khurshidbek Nurmukhammad ugli

Head of the Department of the Institute of Civil Defense of the  
Ministry of Emergency Situations of the Republic of Uzbekistan

Doctor of Philosophy in Technical Sciences (PhD)

makhkamov1962@gmail.com

**Annotation:** The article presents concepts about the impact of electric current on humans, protection against electric current, modern methods of preventing electric shock. At the same time, the application of protective equipment necessary for protection against electric shock is presented. Electric current is the ordered movement of free electrons – charged particles in solids (related to conductors), ions in liquids (electrolytes) and some gases. From the point of view of electrical safety, three types of buildings are distinguished. According to GOST-12.1.019-79, the need to ensure electrical safety by the design of electrical devices, special methods of protection from electric current and organizational and technical measures during work is emphasized.

**Keywords:** electricity, means of protection, means of protection against electric shock, modern means.

**Kirish.** Ishlab chiqarishda, kundalik hayotda elektr energiyasini qo‘llash sohasi kengayib bormoqda. Shu munosabat bilan elektr xavfsizligi qoidalari odamlarning kundalik hayotida alohida ahamiyat kasb etadi. Har yili o‘n minglab odamlar elektr toki urishidan vafot etadi. Elektr jarohatlarining 60 foizi ishda va 40 foizi kundalik hayotda sodir bo‘ladi. Ishlab chiqarish jarayonida sodir bo‘lgan jarohatlar umumiy sonining taxminan 11 foizini elektr jarohatlari tashkil qiladi. Elektr toki qattiq jismlarda

erkin elektronlarni – zaryadlangan zarrachalarning tartibli harakatini (o‘tkazgichlarga tegishli), suyuqliklardagi (elektrolitlar) va ba’zi gazlardagi ionlarni ifodalaydi.

Elektr toki o‘z harakatini elektr manbasining o‘zidan boshlaydi, ma’lum bir ishni bajarish natijasida hosil qilinib, yopiq zanjirdan o‘tib, yana manbaga qaytadi. Zaryadlangan zarrachalar zanjirda harakatlanish paytida ham foydali, ham ba’zi hollarda zararli va hatto xavfli ishni bajaradi. Bu harakat natijasida elektr energiyasi qisman isitish, yoritish, plazma, radiatsiya, radioto‘lqinlar hamda maydonlarga aylanadi va ularning ortib ketish holati tufayli elektr energiya xavfi oshadi [1, 2].

Albatta, bularning barchasi inson uchun foydalidir, lekin ular me’yorida va nazorat ostida bo‘lishlari kerak. “Elektr xavfsizligi” tushunchasi – bu odamlarni elektr toki, elektr yoyi, elektromagnit maydon va statik elektr energiyasining zararli va xavfli ta’siridan himoya qiluvchi tashkiliy va texnik chora-tadbirlar hamda vositalar tizimidir.

Elektr xavfsizligi zamonaviy usullarini qo‘llashda elektr qurilmalari konstruktsiyasi bilan, texnik usullar va himoya vositalari bilan, elektr qurilmalarida ishlarni bajarishda yoki elektr energiyasi iste’molchilariga xizmat ko‘rsatishda tashkiliy va texnik tadbirlar amalga oshirilishi bilan ta’minlanishi kerak. Elektr xavfsizligini ta’minlash maqsadida binolarning ayrim toifalari, zamonaviy elektr uskunalarning ma’lum xususiyatlariga va ularni joylashtirish shartlariga qarab tasniflanadi [3, 4].

Elektr xavfsizligi nuqtai nazaridan binolarning uch turi mavjud: xavfsiz, yuqori xavfli va o‘ta xavfli. Transport ishlab chiqarish korxonalari rahbarlari quyidagilarni ta’minlashi shart:

elektr va elektrotexnika xodimlarini tanlash, xodimlarni davriy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, mehnat xavfsizligi va yong‘in xavfsizligi bo‘yicha amaliyotlarni o‘tkazish;

elektrotexnika va elektrotexnologiya xodimlarini o‘qitish va bilimlarini sinash;

elektr texnologiya xodimlari uchun lavozim va ishlab chiqarish yo‘riqnomalari hamda mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqish;

elektr himoya vositalari va asboblari bilan jihozlash.

Elektr jihozlari uchun mas’ul shaxs quyidagi ishlarni amalga oshirishi majburiydir:

elektr inshootlarining ishlashini tashkil etish bo’yicha zarur hujjatlarni ishlab chiqish va ularning saqlanishini tashkil etish, elektrotexnika xodimlarini o’qitish, ular bilan yo’riqnomalarni o’tkazish, olgan bilimlarni sinovdan o’tkazish va mustaqil ishlashga ruxsat berish;

elektr inshootlarida xodimlar ishtirokida, barcha turdagi ishlarni xavfsiz olib borishni tashkil etish, elektr inshootlariga texnik xizmat ko’rsatish, rejali profilaktik ta’mirlash va profilaktik sinovlarning o’z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash.

### **Elektr toki ta’siridan himoyalashning asosiy usul va vositalari.**

GOST-12.1.019-79ga muvofiq elektr xavfsizligi elektr qurilmalarning konstruksiyalari, elektr tokidan himoyalashning maxsus usullari bilan, ishni bajarish vaqtida esa tashkiliy va texnik tadbirlar bilan ta’minlanadi [4, 5]:

1. Tok o’tkazuvchi qismlarni dielektrik materiallar bilan qoplash, ya’ni izolyatsiyalash, kuchlanish ostidagi o’tkazgichlarni yaqiniga borib bo’lmaydigan qilib joylashtirish, to’siqlar bilan elektr uskunalarini to’sish.

2. Blokirovka qurilmalarini qo’llash, kichik kuchlanishlarni qo’llash, ish o’rnini izolyatsiyalash, elektr qurilmalarini nollash, elektr qurilmalarini yerga ulash.


3. Elektr tarmog’ini qismlarga ajratish, elektr potentsiallarini tenglashtirish, avtomatik ajratkichlarni qo’llash, elektromagnit maydon ta’siridan himoyalovchi ekranlar o’rnatish, ogohlantiruvchi vositalarni va shaxsiy himoya vositalarini qo’llash.

Elektr tokining kishiga qanchalik zarar yetkazishi tanadan o’tgan tokning miqdoriga bog’liq. Tok kuchi 0,05 amperdan ortiq yoki 36 voltdan katta kuchlanishda kishi hayoti uchun xavfli, 0,1 amper va bundan yuqori tok kishi hayotini o’limga olib kelishi mumkin. Insonni quyidagi hollarda tok uradi: elektr qurilmasining tok o’tib turadigan qismlariga tegilsa, elektr qurilmasining tok o’tmaydigan, lekin avariya paytida tok o’tish xavfi bo’lgan qismlariga bevosita tegilsa, elektr qurilmasining yuqori kuchlanishli tok o’tib turadigan qismlariga yaqin borilsa yoki tegilsa va elektr

qurilmasining avariya vaqtida yuqori kuchlanishli tok ta'sirida bo'ladigan qismlariga yaqin borilganda [2, 3].

1000 V kuchlanishgacha bo'lgan, elektr uskunalarda yakka o'zi xizmat qiluvchi navbatchi yoki tezkor ta'mirlash xodimi guruhga ega bo'lishi kerak. Kuchlanish ostida bo'lgan elektr uskunaning to'siqsiz tok o'tkazuvchi qismiga kam masofaga yuk ko'taruvchi va boshqa mashina mexanizmlarining hamda shaxslarning yaqinlashishi taqiqlanadi. Elektr stansiya va podstansiya elektr uskunalarini yakka o'zi ko'rib chiqishni elektr xavfsizligi bo'yicha guruhga ega bo'lgan navbatchi va tezkor ta'mirlash xodimi yoki guruhlarga ega bo'lgan ma'muriy-texnik xodim yoki korxona rahbariyati bajarishi mumkin.


Elektrotexnikaga aloqasi bo'lmagan xodimlar elektr stansiya va podstansiya elektr uskunalarini ko'rib chiqishni va ekskursiyani korxona ma'muriyatining ruxsati bo'lgan, yakka o'zi ko'rib chiqish huquqiga ega bo'lgan xodim nazorati ostida o'tkazishi mumkin. Elektr uskunalarida xizmat qilmaydigan xodim elektr uskunaga navbatchi yoki tezkor-ta'mirlash xodimi yoxud yakka o'zi ko'rib chiqish huquqiga ega bo'lgan, xodim hamrohligida ijozat berib kiritilishi mumkin. Nazoratchi xodim elektr uskunada ishlashga ruxsat etilgan ishchi xavfsizligini to'la ta'minlashi hamda tok o'tkazuvchi qismiga mutlaqo yaqinlashmaslik haqida ogohlantirishi kerak. Bunda biz ish joylarida elektr xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy ultrasonik masofa o'lchagich Buzzer sensoridan (1-rasm) foydalanishimiz mumkin [1].



**1-rasm. Buzzer qurilmasi**


Buzzer qurilmasi yordamida ishchi xodimlar uchun elektr qurilmalaridan xavfsiz

masofa hosil qilish mumkin. Bexosdan ehtiyotsizlik bilan yuqori kuchlanishli elektr qurilmasiga yaqinlashib, baxtsiz hodisa yuz berishining oldini olish Buzzer qurilmasi yordamida amalga oshiriladi. Buzzer qurilmasi 1000 v kuchlanishdan yuqori bo‘lgan elektr uskunalarida yoki boshqa xavfli hududda ishchi xodim ehtiyotsizlik bilan yaqinlashganda qizil chiroq yonadi va signal chalinadi. Ishchi xodim xavfsiz masofaga o‘tmagunicha signal to‘xtamasdan ogohlantiriladi. Buzzer qurilmasidagi asosiy qismlardan biri bu ultrasonik masofa o‘lchagich HC-SR04 sensori hisoblanadi.



**2- rasm. HC-SR04 sensori**

Ultrasonik masofa o‘lchagich HC-SR04 sensori (2-rasm) elektr to‘lqinini belgilangan masofaga jonatadi va to‘lqinni qabul qiladi. Shu orqali qarshisidagi to‘siqlarni aniqlaydi.



**3-rasm. HC-SR04 sensorining elektr to‘lqinini belgilangan masofaga jo‘natishi, to‘lqinni qabul qilishi va to‘siqni aniqlash sxemasi**

Buzzer qurilmasidagi yana bir qism Arduino UNO SMD R3 platasi turli funksiyalarni o‘z ichiga oladi. Arduino UNO SMD R3 platasini dasturlash orqali turli xil buyruqlar berishimiz mumkin.



4-rasm. Arduino UNO SMD R3 platasi

1000 V kuchlanishdan yuqori bo‘lgan, elektr uskunalarni ko‘rib chiqish paytida tok o‘tkazuvchi qismlari 1-jadvalda ko‘rsatilgandan kam masofaga yaqinlashishga qarshi qo‘yiladigan to‘siqlar bilan jihozlanmagan xonalarga kirish taqiqlanadi [3, 5].

1-jadval

**Yuqori kuchlanish ostida bo‘lgan elektr uskuna tok o‘tkazuvchi qismigacha yaqinlashish mumkin bo‘lgan masofa, (m)**

| Kuchlanish, (kV)                                      | Odamlar va ular qo‘llaydigan asbob-uskunalaridan vaqtincha to‘siq, tok o‘tkazuvchi qismlarigacha bo‘lgan masofa, (m) | Yuk changallovchi moslamalar, ishchi yoki transport holatida bo‘lgan yuk ko‘tarish mashina va mexanizmlar bilan tok o‘tkazuvchi qismlar orasidagi masofa, (m) |
|-------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 kV gacha bo‘lgan havo elektr uzatish tarmog‘i uchun | 0,6                                                                                                                  | 1,0                                                                                                                                                           |
| Boshqa elektr uskunolari uchun                        | cheklanmaydi (tegish mumkin emas)                                                                                    | 1,0                                                                                                                                                           |
| 6-35                                                  | 0,6                                                                                                                  | 1,0                                                                                                                                                           |
| 110                                                   | 1,0                                                                                                                  | 1,5                                                                                                                                                           |
| 220                                                   | 2,0                                                                                                                  | 2,5                                                                                                                                                           |
